

17

Z.T.QORABOYEVA

**MAKTABGACHA TA'LIM
MENEJMENTI**

O'QUV QO'LLANMA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Z.T.QORABOYEVA

MAKTABGACHA TA'LIM MENEJMENTI

O'quv qo'llanma

YOD5; 344.963/14
KBK 32.965 (O'zb)
D-12

Qoraboyeva Z.T. "Maktabgacha ta'lim menejmenti". O'quv qollanma – Toshkent.:
"Fan ziyosi" nashriyoti, 2022 y.- 195 b.

KBK 32.965 (O'zb)

Ushbu o'quv qo'llanma maktabgacha ta'lim menejmenti fanining nazariy masalalarini yoritishga qaratilgan bo'lib, unda ijtimoiy maktabgacha ta'limning taraqqiyot bosqichlari, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish tamoyillari va asosiy yo'nalishlari va uni moliyaviy ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori va uslubchi faoliyatiga doir ma'lumotlar berilgan

Qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 60110200 – *Maktabgacha ta'lim* bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlari, mutaxassis va pedagoglar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

O'. M. Asqarova – pedagogika fanlari doktori, professor

G. M. Nazirova – PhD, dotsent

Maktabgacha ta'lim menejmenti / Z.T.Qoraboyeva. –


Toshkent: Fan ziyosi, 2023. - 195

O'quv qollanma' O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 973-9943-8766-6-8

Zohida Qoraboyeva, 2022

"Fan ziyosi" nashriyoti



KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasi faoliyatini tashkil etish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida har jihatdan zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turi hisoblanadi. Shu bois davlat va hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan nomativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli Farmoni hamda «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish omili sifatida samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etish dolzarb vazifalar sifatida belgilab berildi.

Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatadigan rahbar-xodimlarning ta'lim menejmentiga oid nazariy bilimlar, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish jarayoni murakkab va serqirra bo'lganligi uchun oliy o'quv yurtlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishlari

bakalavriat bosqichida maktabgacha ta'lim menejmentining nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlarini o'quv fani sifatida o'qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim menejmenti fanining maqsadi talabalarda maktabgacha ta'limni zamonaviy boshqaruvi va menejmenti rivojlanishining nazariy hamda amaliy tomonlarini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi esa talabalarga ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida menejmentning zamonaviy tizimi va uni asosiy tamoyillari, maktabgacha ta'limni boshqarishning maqsadi, maktabgacha ta'lim va tarbiyani boshqarish usullari, shakllari, tamoyillari, qonuniyatlari shuningdek, turli tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, ularni boshqarish va rivojlantirish prinsiplari va unga ilmiy-nazariy yondashuvi asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi mo'ljallangan o'quv qo'llanma fan asoslarini o'rganish orqali boshqaruv qonuniyatlari va tamoyillari, funksiyalari va vazifalari, shuningdek, boshqaruv tizimida menejmentning o'rni, boshqaruv madaniyati va uslubi, boshqaruv samaradorligi va unga ta'sir qiluvchi omillar, boshqaruv qarorlari mazmuni, mohiyati haqida zamonaviy bilimlarga ega bo'ladilar.

1-MAVZU: IJTIMOY MAKTABGACHA TA'LIMNI TASHKIL ETISH VAZIFALARI

Reja:

1. Ijtimoiy maktabgacha ta'limni tashkil etish vazifalari.
2. Maktabgacha ta'limning davlat xarakteri, uning ta'lim tizimidagi tutgan o'rni.
3. O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonunida maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari.

Tayanch tushunchalar: xalq ta'limi; ta'lim tizimi; ta'lim turlari; bolalar maydonchalari; ommaviy maktabgacha tarbiya, "Bog'chalarni himoyalash Kengashi; maktabgacha ta'lim va tarbiya; maktabgacha ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim tashkiloti turlari.

Ijtimoiy maktabgacha ta'limni tashkil etish vazifalari.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich halqasi bo'lib hisoblanadi. U sog'lom va har tomonlama etuk bola shaxsi shakllanishini ta'minlashga, uni muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlab, uni o'qishga bo'lgan havasini uyg'otishga qaratilgan bo'lib, bu 6-7 yoshgacha bo'lgan davrda davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini amalga oshirishda jamoatchilik va xayriya tashkilotlari, mahalliy uyushmalar (mahalla), xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

Maktabgacha ta'lim – bolaning individual, yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini, uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi – maktabga o'z vaqtida va to'laqonli o'tishini ta'minlovchi har tomonlama, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir.

Ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosining yaratilishi, tashkilotlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi shakllariga o'tayotganligi; nodavlat tashkilotlar tarmoqlari kengayishi; ta'limning ilg'or texnologiyalari tatbiq etilishi; kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirilishi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining alternativ shakllari tatbiq etilishi, moliya institutlari ishtirokida investitsion loyihalar amalga oshirilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining innovatsion va eksperimental faoliyati kengayotganligi maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish tashkiloti hisoblanadi, quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'ligini mustahkamlash;
- bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;
- bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash.

Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, u bashariyatni ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va yuksaklikka olib boruvchi komillik sari yo'ldir. Shu sababli ham insoniyat paydo bo'libdiki, tarbiya masalasi kishilar, oilalar, jamoalar, davlatlar oldida muhim muammo bo'lib kelmoqda va ular ko'p variantli yo'llar, vositalar bilan turlicha shakllarda, uslublarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-

sharitlar yaratish, ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ishlari izchil amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi - faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"¹ning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida maktabgacha ta'lim tizimida bajarilishi ko'zda tutilgan quyidagi maqsadlar ko'rsatib berilgan:

Maqsadlar mazmuni	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
38-maqsad: Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.	2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони.

<p>39-maqсад: Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish</p>	<p>Bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish.</p> <p>2022 — 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish.</p> <p>Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish.</p>
<p>40-мақсад: Maktabgacha ta'lim tizimida byudjet msblag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash</p>	<p>Maktabgacha ta'lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.</p>

Maktabgacha ta'limning davlat xarakteri, uning ta'lim tizimidagi tutgan o'rni.

Hozirgi davrda ijtimoiy maktabgacha ta'limni tashkil etish vazifalarini muvaffaqiyali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarini samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratishni va joriy etishni taqozo qiladi. Zero, kuchayib borayotgan integratsion jarayonlar va axborotlar tizimining xalqaro darajaga etib borishi, raqobatning kuchayishi va boshqalar ijtimoiy boshqaruvga bo'lgan munosabatni foydali tomonga keskin o'zgartiradi va boshqaruv tizimida ijtimoiy o'zgarishlarga bo'lgan moslashuvni tezlashtiradi.

Zamonaviy boshqaruv tizimida rahbarning murakkab vazifasi, ya'ni davlat, jamoa va shaxsning qiziqishlarini birlashtirishni bilishi lozim. Bundan tashqari u faoliyat samaradorligini oshirish uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yishi maqsadga muvofikdir.

Bu masalalarni ijobiy hal qilish rahbar xodimlardan ularning shaxsiy qobiliyatlari bilan birga boshqaruv faoliyati asoslari ilmini mukammal egallashlarini va yuqori darajali malakaga ega bo'lishlarini talab qiladi. Rahbarning o'z qo'l ostidagi xodimlarga bo'lgan ilk munosabati xodimlarning o'z ishlarini yuqori sifatli qilib bajarilishini va ko'tarinki ruxda ishlashlarini ta'minlaydi.

Rahbarlarning xodimlar bilan ishlash jarayonida ularning holatlarini va shaxsiy hususiyatlarini inobatga olish, ularning qalbiga yo'l topa bilishi, uning bilim darajasiga, muomala madaniyatiga bog'liqsir. Bu kabi hususiyatlarga ega bo'lgan rahbarlar o'zlari boshkarib turgan jamoalar oldiga qo'yilgan murakkab masalalarni to'g'ri hal qilishga va rejalarini yuqori samarali qilib bajarishga qodir bo'ladilar.

Yosh avlodni ilk yoshidan boshlab ijtimoiy tarbiyalash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvning engil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlarda inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning etmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi keltirilgan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda eng avvalo oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, birinchidan, maktab yoshiga qadar bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, Konstitutsiyani o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi.

Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar

mahoratini ilg'or usullar orqali muntazam oshirib borishi mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi. Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir. Chunki, biz o'z oldimizga farzandlarimizning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo'yan ekanmiz, shubhasiz, pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarni zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishimiz zarur. SHu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalarini psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan ta'minlash ham bugungi kun talabidir.

Qolaversa, maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgani bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash darajasini yuksaltiradi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib 22 shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi.

Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shartsharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va etuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari.

XIX asrning 80-90-yillariga kelib, mahalliy ma'rifatparvar ziyolilar ayollarning og'ir ahvoli va bolalar qarovsizligini e'tiborga olib, ijtimoiy maktabgacha tarbiya tizimini yo'lga qo'yish zarurligi g'oyasini ilgari suradilar. Jumladan, 1872 yilda Turkistonda tuzilgan «Jamiyati xayriya» tarkibiga kirgan ziyolilar vakillari tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug'ruqxonalar bilan bir qatorda, ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun etimxonalar, ya'ni dastlabki bolalar uylari tashkil etildi.

1891 yilda «Bog'dorchilik» jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun «Bolalar maydonchasi» ko'rinishida dastlabki bolalar bog'chasi ochilgan. Bolalar bog'chasi uchun imtirohat bog'i hududidan sersoya, salqin joy ajratib berilgan bo'lib, bu erda rag'imchoqlar, qayiqalar o'rnatilgan, turli o'yinchoqlar tayyorlangan. Maydonchada kattagina gulzor tashkil etilib, bu erda bolalar turli o'simliklarni parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Biroq 1991-1903 yillar mobaynida mablag' taqchilligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan.

1896 yilda Turkistondavasiylar kengashi kambag'allarning bolalari uchun «Yasli»lar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi. Yasli ishlarini nazoartchi-uslubchi ayol boshqargan, shuningdek, xizmat qiluvchi ayollar ham bo'lgan. Bu muassasalarda bolalarga o'qish, yozish, sanash bilan bir qatorda, bir necha hunarlar ham o'rgatilgan. Ammo, butun o'lka bo'ylab, shunday yaslilardagi bolalar soni 50-60 nafardan oshmagan.

Shuningdek, mahalliy ziyolilarning sa'y-harakatlari bilan Toshkent, Samarqand, Sirdaryo va Namanganda kambag'allarning bolalari uchun etimxonalar (bolalar uylari) tashkil etilgan.

O'zbekistonda ommaviy maktabgacha tarbiyaning yuzaga kelishi o'tgan asrning 1910-1920 yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Turkistonda bolalarni gimnaziya kirishga tayyorlovchi xususiy bolalar bog'chalari mavjud edi. 1919 yilda respublikadagi siyosiy va iqtisodiy holat munosabati bilan o'sib kelayotgan avlodning sog'lig'ini saqlash, oziq-ovqat bilan ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi "Bog'chalarni himoyalash Kengashi" tuzildi. Bolalarni davlatning yanada sermahsul mintaqalariga ko'chirib o'tkazish, shuningdek, ularni ovqat, kiyim-kechak, uy, yoqilg'i, tibbiy yordam bilan ta'minlash masalalari o'rganilgan. Bu masalalarni echishning asosiy vositasi ommaviy oshxonalar, bolalar bog'chalari va yaslilar tashkil etish bilan bir qatorda ayollarni respublikaning jamoat va siyosiy hayotida faol ishtirok etishga yordam berishga tayyorlash edi.

Ta'lim ishini rivojlantirish uchun 1918 yilda Toshkentning eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun 4-bolalar bog'chasi tashkil qilindi. 1919 yilda esa Samarqandda 2-bolalar bog'chasi va 3-bolalar uyida maktabgacha guruhlar ochildi. 1926 yilga kelib maktabgacha ta'lim muassasalarida (jami 40 ta) 2000ga yaqin bolalar bo'lgan.² Maktabgacha tarbiya muassasi xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturi ishlab chiqildi. 1927 yilda boshlangan ayollarning "Hujum" harakati munosabati bilan bolalarning bolalar bog'chasiga berish hollari yanada ko'paydi. Kasaba uyushmalari va yirik fabrika-zavodlarda ishlayotgan ayollarga yordamchi tashkilot sifatida yozgi sog'lomlashtirish maydonchalari tashkil etildi.

XX asrning 30-yillarida bolalar bog'chalarining tozalik va metodik yordam holatini tekshirish keng tarqaldi. Bu tekshirishlar natijalariga ko'ra xonalar va maydonchalarning jihozlanmaganligi, asbob-uskunalar bilan ta'minlanmaganligi, tozalik me'yorlariga amal qilinmasligi kabi kamchiliklarga qarshi kurash olib borilgan.

Qishloqlardagi bolalar bog'chalari va maydonchalari ta'lim muassasalariga nisbatan bo'lgan salbiy qarashlar tufayli katta qiyinchiliklarga duchor bo'lgan.

² O.O. Эшонқўжаева. Ўзбекистон ССРда таълимнинг ривожланиши. Т.:Фан. 1990 й. 76.

1930 yilda O'zbekistonda respublikaning barcha katta shaharlari va viloyatlarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan pedagogik maslahatxonalar tashkil qilindi. Uning faoliyati doimiy ma'ruzalar, radiosuhbatlar, ayollar uchun ko'rgazmalar tashkil qilishdan iborat edi. Ular uchun bolalarga "eng yaxshi burchak qilish" bo'yicha musobaqa ham o'tkazilgan. Pedagogik maslahat beruvchilar oilalarga borishgan, bolalar burchaklarini tashkil qilishgan va shu bilan bolalarni bog'chalarga qabul qilish tartibi hamda oilalarga tarbiya masalalari bo'yicha maslahatlar berib borishgan.

1933-1934 yillarda O'zbekistonda 3840 ta kolxoz maydonchalari bo'lib, unda 127 ming bolalar qatnashgan. 1933 yil bolalar bog'chalari uchun ilk dastur loyihalarini ishlab chiqarish yili sifatida muhrlandi. Rusiy zabon bolalar bog'chalari dasturlari asosida tuzilgan bu dasturlar keyinchalik mahalliy sharoitlarni inobatga olib qayta tuzildi.

Ta'lim birlashmalarining metodik faoliyati yagona markaz tomonidan rahbarlikni amalga oshirishga ehtiyoj sezgan. 1934 yil Toshkentda tuzilgan Respublika ta'lim metodik xonasi shunday markaz vazifasini bajardi.

Ommaviy ta'limning rivojlanishida eng katta to'siqlardan biri malakali kadrlarning etishmasligi bo'lgan. Qishloq aholisidan kadrlar tayyorlash uchun qisqa muddatli uch oylik kurslar tashkil qilingan. Bundan tashqari XX asrning 30-yillaridan boshlab ta'lim mutaxassislarini tayyorlash vazifasi pedagogika o'quv yurtlari zimmasiga qo'yildi. 1930 yildan Toshkentda faoliyat yurituvchi pedagogika o'quv yurti 1936 yilga 60 ta mutaxassis tayyorladi.

1938-1939 yillarda respublikada 927 ta bolalar bog'chasi ochilgan edi va ularda 36710 ta bola tarbiyalanar edi. Maydonchalar soni esa 4835 ta bo'lib, ularda 152000 bola bor edi. Shu bilan birga bu vaqtda onalar uchun "Bolalar xonalari" ham tashkil etilgan.

Shu yillarda ta'limni yaxshilash maqsadida quyidagi choralar ko'rilgan:

- ✓ joylarda metodik ishlarni tashkil qilish;
- ✓ mebel, o'quv qo'llanmalari, o'yingohlarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;

✓ ta'lim masalalariga jamoatchilik va aholining e'tiborini qaratish (matbuotda nashr qilish, hujjatlarni tuzish) va sh.k.

Urush yillari O'zbekistonda 200.000 bola ko'chirib keltirilgan va natijada bolalar bog'chalari tarmog'ining kengayishi, ularda ish kunini uzaytirish zaruriyati paydo bo'lgan. Urush yillari maktabgacha internatlar ham tashkil qilingan. Ulardagi tarbiyaning o'ziga xosligi shundan iboratki, ularda o'z oilasi, yaqinlaridan ajragan bolalar tarbiyalangan. Bu hol pedagoglarda har bir bola uchun yanada mas'uliyatli va e'tiborli bo'lishni taqazo etgan.

Urushdan keyingi davrda oziq-ovqat muammolari tufayli kuchsizlangan bolalar uchun sog'lomlashtirish chora-tadbirlari kuchaytirildi. Bu maqsadda respublikaning bir qator shaharlarida sanatoriya tipidagi bog'chalar tashkil qilindi. Qishloq hududida ta'lim ning rivojlanishiga katta ahamiyat berildi. Bu qishloq ho'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqishda ayollar mehnatidan foydalanish zaruriyati bilan bog'liq edi. 1959 yildan ta'limning yagona tuzilishini tashkil qilish maqsadida ikki turdagi ta'lim muassasalari bitta bolalar bog'chaga birlashtirildi. Bu esa bolalarni tarbiyalash jarayonining faollashuviga olib keldi.

O'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar Toshkent va Marg'ilon pedagogika bilim yurtlari tomonidan tayyorlangan. 1957-58 yillar ular 517 ta mutaxassis chiqarishgan. Metodik va tarbiya ishlarini yaxshilash maqsadida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg'ona, Chirchiq shaharlarida metod xonalari ochilgan. 1961 yil Qori-Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida O'zbekistondagi ta'lim muammolari borasida tadqiqot olib boruvchi, bolalar bog'chalari va metodika xonalariga yordam ko'rsatuvchi markaz ochildi.

Toshkentda 1966 yil 26 aprelda bo'lib o'tgan zilzila natijasida 225 ta ta'lim muassasalari barbod bo'ldi. Biroq qisqa vaqt mobaynida boshqa respublika quruvchilari yordami bilan bu muassasalar qayta tiklandi.

XX asming 60-80-yillarida ommaviy ta'lim quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan:

✓ xo'jaliklararo ta'lim muassasalarining ish tajribasini o'rganish uchun respublika miqyosida anjumanlar o'tkazish;

- ✓ kolxozlar orasida “Eng yaxshi ta’lim muassasasi” sovrinlari uchun musobaqalar o‘tkazish;
- ✓ yuqumli kasalliklardan aziyat chekuvchi bolalar uchun maxsus muassasalar tashkil etish;
- ✓ bolalar sog‘ligini saqlash bo‘yicha ta’lim muassasalarini tashkil qilish;
- ✓ Bolalar bog‘chalari (MTT) va boshqa tarbiya muassasalari uchun mutaxassislar tayyorlash;
- ✓ respublikaning pedagogik va musiqa o‘quv yurtlarini keng turdagi mutaxassislar tayyorlab berishga o‘tkazish;
- ✓ maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish;
- ✓ bolalarning estetik tarbiyasiga katta ahamiyat berish, o‘zbek milliy san’ati asarlaridan foydalanish va boshqalar.

O‘zbekistonning mustaqil davlat maqomini qo‘lga kiritishi bilan jamiyatning ijtimoiy muammolari yanada ko‘paydi va keskinlashdi. Birinchidan, siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlarning almashishi, ikkinchidan, bu davrda ijtimoiy muammolarni yaxshi tushunmaslik oqibatida ro‘y berdi. Biroq, demokratiya va oshkorlik tamoyillari, xorij davlatlari tajribasi yordamida davlat muhtojlarga real ijtimoiy pedagogik yordam bermoqda, ijtimoiy pedagogik fanini rivojlantirish uchun chora-tadbirlar ko‘rmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik holatini yaxshilashga alohida e’tibor berilmoqda. Shu o‘rinda aytish joizki, Xalq ta’limi vazirligining 2016 yil yakuniy ma’lumotlariga ko‘ra, respublikada 4916 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lib, ularda 689 ming nafardan ortiq bolalar tarbiyalanmoqda. Shundan 194 tasi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘lib, ularda 5715 nafar bolalar tarbiyalanoqda. Shu bilan bir qatorda, bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish ko‘rsatkichi hamon pastligicha qolmoqda.

Respublikada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olish ko‘rsatkichi 27 foizni tashkil etadi. Qamrov ko‘rsatkichi, asosan, viloyat va shahar markazlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari hisobiga

to'g'ri kelmoqda. 2016 yil ko'ra respublikada jami bog'cha yoshidagi (2-7 yosh) bolalar soni 2,5 mln.dan ortiq bo'lib, 689 ming nafarini (shulardan 40 foizi qishloq, 60 foizi shahar) maktabgacha ta'lim tashkilotlari qamrab olgan. Qariyb 73 foiz bolalar esa maktabgacha ta'lim tizimidan chetda qolmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvning engil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir.

Quyidagi jadvalda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining viloyatlar kesimida qamrov darajasini ko'rish mumkin:

Xalq ta'limi tizimidagi maktabgacha ta'lim muassasalari haqida ma'lumot³

№	Hududlar	VXTV tasarrufidagi bog'chalar soni	Qamrab olingan bolalar soni	Bog'cha yoshidagi bolalar soni	Qamrab olish foizi
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	306	41190	156200	26
2.	Andijon	454	57670	231196	25
3.	Buxoro	341	34054	145338	23
4.	Jizzax	169	23888	124832	19
5.	Qashqadaryo	327	54409	265780	20
6.	Navoiy	114	18356	71241	26
7.	Namangan	462	53490	182801	29
8.	Farg'ona	645	93463	246087	38
9.	Samarqand	552	74284	268152	28
10.	Sirdaryo	151	19696	72079	27
11.	Surxandaryo	289	28921	209279	14
12.	Toshkent viloyati	416	57500	241628	24
13.	Toshkent shahri	441	105432	172821	61
14.	Xorazm	249	27426	136638	20
	Jami:	4916	689779	2524072	27


³ Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-son, 2017, 2 bet

Albatta, mazkur masalaga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Ortga nazar tashlaydigan bo'lsak, mustaqillik davrida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda ta'limni tubdan isloh qilishning muhim bosqichlari amalga oshirilib, mohiyatan hech qaysi bir davlatda mavjud bo'lmagan uzluksiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Ya'ni, yosh avlodning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan to oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o'rganishi uchun shart- sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan mazkur sohadaagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga etishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Jumladan, davlat rahbarining qarori bilan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga mo'ljallangan dasturda keng ko'lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir.

Xususan, hujjatda bugungi kundagi hayotiy talab va ehtiyojlar, sohada echimini kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar hisobga olinganligi barchamizni quvontiradi. Ayniqsa, o'tgan besh yillikda 2200 ta maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash hamda ushbu maqsadlar uchun jami 2,2 trillion so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilayotgani ushbu qaror o'z ichiga nechog'lik keng ko'lamli vazifalarni qamraganligini ko'rsatadi.



Haqiqatdan ham, bugungi kunda qishloq joylarida maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini keskin oshirish zarurati ko'rinmoqda. Ayrim qishloq sharoitida yashaydigan yosh onalar uchun bolalar bog'chasi masalasi hayotiy ehtiyojga aylangan. Albatta, bu ehtiyoj bejiz emas. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, birinchidan, maktab yoshiga qadar bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, Konstitutsiyani o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi.

Qolaversa, hududlarda namunaviy loyihalar asosida barpo etilayotgan yangi uy-joy massivlarida yosh oilalar farzandlari uchun bolalar bog'chalari sonini ko'paytirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Shu bilan birga, qarorga ko'ra qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirish nazarda tutilayotgani kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar uchun engillik yaratadi.

Bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini ilg'or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi.

Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir. Chunki, biz o'z oldimizga farzandlarimizning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo'ygan ekanmiz, shubhasiz, pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarni zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishimiz zarur. Shu bilan birga,

maktabgacha ta'lim tashkilotlarini psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan ta'minlash ham bugungi kun talabidir.

Shuning barobarida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlashda qisqa muddatli tayyorlov guruhlarining roli muhim sanaladi. Ayni shu sababli kelgusida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Qolaversa, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish ham maqsadga muvofiq sanaladi.

Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgani bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash darajasini yuksaltiradi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonunida maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari.

Xalq ta'limi tizimi deb, muayyan mamlakatning ichki va tashqi kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi.

O'zbekiston xalq ta'limi tizimi Respublikamizni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlantirishning ustivor sohasi hisoblanadi. Shuningdek, u ta'lim sohasidagi Davlat siyosatini, umuminsoniy qadriyatlarni, xalqning tarixiy tajribasini, madaniy va fan

sohasidagi ko'p asrlik an'analarini, jamiyatning istiqboldagi rivojini hisobga olgan holda ish yuritadi.

Xalq ta'limi tizimi Respublikamizning aql-zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol, erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Mustaqil Respublikamiz Konstitutsiyasining 18 va 41-moddalarida ta'kidlaganidek, Respublikamizda yashovchi barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga ega. Shuningdek, bepul umumiy ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlangandir.

Mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillarida, ya'ni 1992 yil 2 iyulda Mustaqil O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi birinchi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun avvalo, ta'limda ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga xizmat qildi. Aniqrog'i, eski tuzumdan yangisiga o'tishda ko'prik vazifasini o'tadi. Shu bilan birga ta'lim tizimiga qator yangiliklar kirib keldi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlariga test tizimi joriy qilinishi, kasb-hunar bilim berishga e'tiborni kuchaytirilishi kabilar shular jumlasidandir.

Yangi davr talablariga javob beradigan, xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish zaruriyati paydo bo'ldi va natijada 1997 yil 29 avgustda O'zbekistonning yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ilgari qabul qilingan qonunlardan farqli o'laroq, ta'lim ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustivor deb e'lon qilindi.

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu esa ta'lim sohasini tubdan takomillashtirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari har bir sohada keng joriy etilib, jamiyat hayotida transformatsiya jarayonlari jadallashmoqda. Ta'lim sohasida yangi fanlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalari yaratilayapti. SHu ma'noda, tobora globallashib borayotgan dunyoda sifatli kadrlar tayyorlash masalasi har bir davlatning kelajagini belgilab beruvchi asosiy omil ekanligi yanada oydinlashib bormoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini izchil rivojlantirish borasida aniq, izchil va keng ko'lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinayotganini ta'kidlash lozim. Bu sohaga oid o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi.

2020 yilning sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilinib, ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib berdi. Qonunga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. SHuningdek, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 8-moddasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya» deb nomlangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turi ekanligi, maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutishi hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanishi ta'kidlangan.

Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Qonunga asosan mamlakatimizda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berildi:

har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;

bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish;

bolalarning, shu jumladan alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish; maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, o'z tasarrufida maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lgan boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish maqsadida Maktabgacha ta'lim vazirligining faroliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga

oshiradi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishini ta'minlaydi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

o'z vakolatlari doirasida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi hamda ularni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatiga uslubiy jihatdan rahbarlikni amalga oshiradi;

maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganadi, umumlashtiradi va ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etadi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv-uslubiy, didaktik materiallar, badiiy adabiyotlar, rivojlantiradigan o'yinlar va o'yinchoqlar bilan ta'minlanishini, shuningdek ularning moddiy-texnika bazasi jihozlanishini hamda mustahkamlanishini tashkil etadi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasiga doir talablarni belgilaydi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni hamda ularning malakasini oshirishni ta'minlaydi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi statistika ma'lumotlarining hisobi yuritilishini hamda tahlil qilinishini ta'minlaydi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-

uslubiy faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;

bolaning qonuniy vakillariga uslubiy, maslahat yordami va boshqa yordam ko'rsatadi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimiga investitsiyalar hamda grantlarni jalb etish choralari ko'radi, chet el investitsiyalari ishtirokidagi amaldagi loyihalarni qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi.

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi va uning turlari alohida ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari; ta'lim berishning muqobil shakllari; maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari va ta'lim tashkilotlari; maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlar – maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari esa quyidagi turlar bo'yicha tashkil etiladi:

umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti;

ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti;

inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti;

qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy rivojlantirish yo'nalishidagi guruhlarida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning alohida ta'lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog'lom muhitga uyg'unlashtirish orqali ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi.

Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan

bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o'qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Quyidagilar maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadlari hisoblanadi:
bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlash;
bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash;
umumta'lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta'lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti vazifalari quyidagilardan iborat:

bolalarga, shu jumladan, o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta'lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;

bolalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratilib, u bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otish, tizimli o'qitishga tayyorlash imkoniyatlari va shart-sharoitlariga ega bo'ldi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shartsharoitlardan unumli foydalanish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va etuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ijtimoiy maktabgacha ta'lim jamiyatda qanday vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi?
2. Maktabgacha ta'limning ta'lim tizimidagi tutgan o'rini izohlang.
3. O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi tarixiga oid ma'lumotlarni tahlil qiling.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning qaysi moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiya haqida so'z yuritilgan?
5. «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qachon qabul qilingan?
6. Qaysi muassasa va tashkilotlar maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimiga kiradi?
7. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlarini tavsiflang.

2-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Reja:

1. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish tamoyillari va asosiy yo'nalishlari.
2. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar.

Tayanch so'z va iboralar: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun; "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"; maktabgacha ta'limni boshqarish; tamoyillar; maktabgacha ta'lim vazirligi; konsepsiya; ustuvor yo'nalishlar;

Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish tamoyillari va asosiy yo'nalishlari.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi,

fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Mustaqillik yillarida ta'lim tizimini isloh qilish borasida olib borilgan chora-tadbirlar natijasida Respublikamiz jahon miqyosida turli sohalar bo'yicha munosib o'rinlarni egalladi. Ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimida misli ko'rilmagan o'zgarishlar, yutuqlar qo'lga kiritildi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning quyidagi sosiy prinsiplari (tamoyillari)ga amal qilinmoqda:

har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;

har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi;
bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;
maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi;
ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;
ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;

maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligi⁴.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi e'lon qilingandan keyingi yillarda ijtimoiy hayotda, jumladan xalq ta'limi tizimida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar tarmog'i kengayib, o'qituvchilar va ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlash jarayoni takomillashtirildi.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг "Мақтабгача таълим ва тарбия тўғрисида"ги ЎРҚ-595-сонли Қонуни. 2019 йил 16 декабрь. 4-модда.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 2 iyuldagi qaroriga asosan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirdi. Mazkur Qonunda respublikada ta'limning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e'tirof etilgan, shuningdek, bu sohalarda davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizmi va boshqaruv tartibi, ta'lim-tarbiya xodimlarining haq-huquqlari, vazifalari, mas'uliyatlari, maqsadlari belgilab berilgan.

1997 yilga kelib, respublikamizda ta'lim tizimini tubdan yangilash va rivojlantirish zaruriyati yuzaga keldi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iborat bo'lib, bunday taraqqiyotga erishishning asosiy omillardan biri – ta'lim tizimini jahon standartlari darajasida takomillashtirish iborat edi.

Shu maqsadda 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'la bilish nahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirildi.

Dasturda kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish chun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash nazarda tutildi.

Milliy dasturda maktabgacha ta'lim va tarbiya, ahvoli qoniqarsizligicha qolayotganligi, bog'cha yoshidagi bolalarning 25 foizigina maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olinganligi hamda maktabgacha bolalar muassasalaridan va oiladan maktabga kelgan bolalarning tayyorgarlik darajasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligi kamchiliklar va muammolar sifatida ko'rsatib berildi. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalar ko'rsatib o'tildi:

- malakali tarbiyachi vapedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash vajoriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiyjihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha muassasalarning harxil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha tarbiya vasog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash varivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 16 avgust kuni Oliy va o'rta maxsus ta'lim, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirliklari rahbarlari bilan o'tkazilgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy 29 tizim yaratish masalasiga to'xtalib o'tdi. Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy

qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biri ekanini ta'kidladi.

Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir. Majlisda davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, mazkur muassasalarga bolalarni 100 foiz qamrab olishga qaratilgan alohida dastur ishlab chiqish, boshlang'ich ta'lim muassasalariga qator imtiyozlar berish, shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi malaka oshirish institutlarida ta'lim mazmunini sifat jihatdan tubdan o'zgartirish, ularni eng ilg'or oliy ta'lim muassasalari tarkibiga o'tkazish orqali umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga eng kuchli va tajribali professoro'qituvchilar ta'lim berishiga erishish borasida muhim vazifalar belgilab berildi.

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim tashkilotidir. Shu bois 2017 yildan boshlab mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday chora-tadbirlarni amalga oshirishning o'ziga xos zaruriyatlari sohada echimini kutayotgan qator kamchiliklar va muammolarning mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Jumladan, joylardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar etishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti.

Aytish kerakki, bu o'ta muhim va dolzarb vazifalarni tez va sifatli bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 9 sentyabr kuni "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qaror qabul qilindi.

Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi.

Ushbu komissiya maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan.

Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

2018 yil 1 yanvardan boshlab, Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etilishi ham sohada o'ziga xos yangilik, deyish mumkin. Buning uchun investorlarga er uchashtalari, bo'sh turgan binolar foydalanish uchun ajaratiladi. Ularga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar beriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l haritasi" tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan. Bir so'z bilan aytganda

Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va etuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoniga muvofiq maktabgacha ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihati belgilab berildi.

Xususan, farmonda qayd etilganidek, mamlakatimizda so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamaygan bo'lib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil qiladi, xolos.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasi ham zamonaviy talablarga deyarli javob bermaydi. Qolaversa, hududlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'proq o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar faoliyat yuritayotgani bois maktabga tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar etarlicha o'tilmayotgani, ko'plab bog'chalar binolari talabga javob bermasligi, ayniqsa, bolalar qamrovi tumanlar kesimida olinganda, 18 - 20 foizni tashkil etishi hech kimga sir emas.

Mazkur hujjatda sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalardan keng foydalanish, ularga shart-sharoitlar yaratish, bolalar qamrovini bosqichmabosqich kengaytirish, yosh avlodda kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, ularning sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini tashkil qilish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish kabi juda dolzarb masalalar qamrab olingan.

Farmon ijrosini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha

ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida 2017 yil 30 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qarori qabul qilindi.

Qarorni bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizom"⁵ tasdiqlandi. Nizom asosida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalarini, huquqlari va javobgarligini, faoliyatini tashkil etish hamda hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va javobgarligi tartibga solinadi. SHuningdek, vazirlik maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javob beradigan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi

Nizomga muvofiq quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- 1) maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 2) maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- 3) bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash;
- 4) zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish;
- 5) maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash;

⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 21 ноябрдаги "Ўзбекистон республикаси мактабгача таълим вазирлиги туғрисидаги низомни ҳамда мактабгача таълим муассасалари раҳбар ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти уставини тасдиқлаш ҳақида"ги 929-сон 1-ИЛОВА.

6) zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirish masalalarini yuqori professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

7) maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga tajribali, yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni jalb qilish;

8) maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun munosib shart-sharoitlar, shu jumladan, to'laqonli va ratsional, muvozanatli, sog'lom va to'g'ri ovqatlanishni ta'minlashga, asoslangan tibbiy ko'rsatmalar bilan belgilanadigan hajmlarda va intensivlikda ko'ngilochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar elementlari bo'lgan serharakat o'yinlar va mashqlar uyushtirishga yo'naltirilgan shart-sharoitlar yaratish;

9) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.

Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etish va yaxshilash masalalarida davlat boshqaruvini amalga oshiradi;

yagona davlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga, shu jumladan, maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga doir takliflarni ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

Vazirlik tizimiga kiradigan maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirish istiqbollarini prognozlashtiradi, davlat dasturlarini va hududiy dasturlarni ishlab chiqadi;

maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari sifatli bajarilishini ta'minlash borasida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, maktabgacha ta'lim tizimi mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablari bajarilishi ustidan idoraviy nazoratni tashkil etadi;

maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga metodik rahbarlik qiladi;

tarbiyalanuvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hamda ularning o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ilmiy-texnik taraqqiyotdan, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, o'quv dasturlari, darsliklar uzluksiz takomillashtirilishini tashkil etadi;

shu jumladan, axborot texnologiyalarini va moliyaviy nazoratning e'tirof etilgan xalqaro standartlarini joriy etish yo'li bilan idoraviy mansub ta'lim muassasalarida byudjet qonunchiligi buzilishi profilaktikasi va uning oldini olishga qaratilgan moliyaviy nazoratni amalga oshiradi;

rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini belgilaydi, maktabgacha ta'limning holatini qiyosiy tahlil qiladi;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i faoliyat ko'rsatishining ta'lim bilan bog'liq va ijtimoiy samaradorligini tahlil qiladi, uni maqbullashtirishga doir takliflarni ishlab chiqadi;

jurnallar, blankalar, o'quv-metodik komplekslar, byulletenlar nashr etilishini va Vazirlik tizimi faoliyatiga taalluqli bo'lgan o'quv qo'llanmalari e'lon qilinishini, shuningdek, Vazirlikning veb-sayti ishini tashkil etadi;

2) maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish sohasida:

maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish masalalariga umumiy rahbarlik qiladi;

idoraviy mansub ta'lim muassasalarida binolar va inshootlardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtiradi;

ta'mirlash-tiklash, qurilish ishlarini, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarini kuz-qish fasliga tayyorlash bo'yicha ishlarni, maktabgacha ta'lim muassasalarini binolari va inshootlarining joriy ish holatini saqlashni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'lim muassasalarining ehtiyojlarini aniqlaydi va har yili ularni jihozlash (qayta jihozlash) dasturlarini ishlab chiqadi;

manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturlariga kiritilgan maktabgacha ta'lim ob'ektlarida har yili olib boriladigan qurilish-ta'mirlash ishlarining tizimli monitoringini olib boradi;

maktabgacha ta'lim muassasalarini tarbiyalanuvchilarining ma'naviy-axloqiy va intellektual saviyasini oshirish maqsadida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni oshirish va maktabgacha ta'lim sohasidagi muammolarni aniqlash bo'yicha jamoatchilik fikri o'rganilishini tashkil etadi;

maktabgacha ta'lim tizimida xalqaro aloqalarni kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga ko'maklashadi, maktabgacha ta'lim masalalari bo'yicha xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar va hamkorlik o'rnatadi;

3) bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash sohasida:

fuqarolarning maktabgacha ta'limdan foydalanishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi;

maktabgacha ta'lim muassasalarini bazasida bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha har xil muqobil modellarni ishlab chiqadi;

maktabgacha ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining dolzarb va istiqbolli ehtiyojlari tahlil qilinishini tashkil etadi;

maktabgacha ta'limning amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlari va umumta'lim maktablarining 1-sinfi dasturi uzviyligini amalga oshirish masalalarida idoraviy mansub muassasalarga rahbarlik qiladi;

raqobatlashuvchi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

maktabgacha ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi amaldagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash masalalarida ko'maklashadi,

konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni, shu jumladan, xalqaro tadbirlarni tashkil etish orqali maktabgacha ta'lim sohasida mamlakatimiz yutuqlarini keng targ'ib qiladi;

bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga jalb etish ko'lamlarini kengaytirish maqsadida aholi orasida axborot targ'ibotini amalga oshiradi, shu jumladan, ruhiy-pedagogik ma'rifat bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha moslashuvchan, muqobil modellarni rivojlantirish maqsadida hududiy boshqaruv organlarida, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida prognozlashtirish bo'yicha axborot-tahlil ishlari o'tkazilishini ta'minlaydi;

davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish masalalarida manfaatdor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha fuqarolarga va tadbirkorlik sub'ektlariga metodik yordam beradi;

4) zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish sohasida:

maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va joriy etishni rag'batlantiradi va muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'lim sifatini baholash natijalarini tahlil qiladi;

milliy mustaqillik g'oyasiga, boy milliy madaniy-tarixiy merosga, milliy urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy barkamol yosh avlod tarbiyasining samarali tashkiliy va pedagogik shakllari hamda usullarini ishlab chiqadi;

o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, samarali shakllar hamda usullardan foydalanib, shu jumladan, tarbiyalanuvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishda ular bilan yakka tartibdagi ishlarni ta'minlashga ko'maklashadi;

ilg'or pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kamol toptirish borasidagi zamonaviy xalqaro tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etadi;

maktabgacha ta'lim sohasida mutaxassislarning xalqaro tajribasini o'rganish maqsadida o'quv safarlarini tashkil etadi;

5) maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash sohasida:

o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni pedagogika amaliyotiga joriy etish ustidan nazorat qiladi;

ilg'or pedagogika texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-metodik komplekslarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantiruvchi o'yinlar va o'yinchoqlar bilan ta'minlaydi;

maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi badiiy adabiyotlar bilan ta'minlashni tashkil etadi;

bolalarni yot g'oyalardan himoya qilish, ularning ma'naviy dunyosini oshirish, milliy va jahon adabiyotini targ'ib qilish maqsadida bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ko'maklashadi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi;

maktabgacha ta'lim tizimining jurnallarida Vazirlikning metodik tavsiyalari va buyruqlarini nashr etish orqali ilmiy-metodik axborotni yoyishga ko'maklashadi;

qat'iy hisobot beriladigan hujjatlar namunalarini ishlab chiqadi va ularning ko'paytirilishini tashkil etadi;

bolalar badiiy adabiyotlarini, o'quv-metodik qo'llanmalarni, didaktik o'yinlar va o'yinchoqlarni yaratish bo'yicha nashriyotlar, tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

6) zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirish masalalarini yuqori professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida:

maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi monitoringini olib boradi;

maktabgacha ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;

pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga maktabgacha ta'lim sohasida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga ko'maklashadi;

maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni professional tayyorlash amalga oshiriladigan kasblar va mutaxassisliklar ro'yxatini belgilaydi;

davlat maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazadi;

7) maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali, yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish sohasida:

maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlaydi; har yili oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish borasida maktabgacha ta'lim sohasida takliflarni shakllantiradi;

o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqishga, pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayoniga istiqbolli joriy etishga ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarini, pedagogik jamoatchilikni jalb etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

maktabgacha ta'lim sohasida mutaxassislarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish bo'yicha kasb mahorati tanlovlari o'tkazadi, tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi;

ta'lim, ilmiy-tadqiqot, xorijiy va xalqaro tashkilotlar ishtirokida uzoq muddatli dasturlar, loyihalar, rejalarni ishlab chiqadi, ularni bajarish bo'yicha asosiy talablarni belgilaydi;

8) maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish sohasida:

jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish sohasida maktabgacha yoshdagi bolalarni kamol toptirishda ruhiy-pedagogik va tashkiliy sharoitlarni ta'minlaydi;

maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-kommunikativ, bilishni rivojlantirish, nutq, o'qish va yozishga, chet tilining dastlabki asoslariga tayyorlash, badiiy-estetik va musiqiy tarbiya sohasida to'laqonli kamol toptirishni ta'minlaydi;

bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish dasturlari va tadbirlarini ishlab chiqadi, bolalarning psixofizik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni turli to'garaklar bilan qamrab olish bo'yicha tizimli faoliyatni tashkil etadi;

davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining to'laqonli, oqilona, muvozanatlashgan, sog'lom ovqatlanishini ta'minlaydi;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini har xil yo'nalishlardagi to'garaklarda shug'ullanishga jalb etish strategiyasini ishlab chiqadi;

9) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish sohasida:

maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyatini muvofiqlashtiradi;

bolalarning hayoti va salomatligini himoya qilish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarga rahbarlik qiladi va ularni muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'lim muassasalari tibbiyot xodimlarining malakasi muntazam oshirilishiga ko'maklashadi.

YUqorida qayd etilgan me'yoriy hujjatlar uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sanalmish maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashda dasturilamalga aylanadi

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli

istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Konsepsiyada maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar sanab o'tilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining etarli emasligi;

qishloq joylarda maktabgacha ta'limning past darajada rivojlanganligi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik holati lozim darajada emasligi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi;

maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ular malakasining pastligi;

ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida etarlicha ma'lumotga ega emasligi;

zamonaviy o'quv-metodik materiallar va ko'rgazmali qurollarning etishmasligi;

alohida ehtiyojli bolalar uchun mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarining texnik jihozlanishi va uslubiy ta'minoti darajasining pastligi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va tibbiyot xodimlarining malakasi zamon talablariga to'liq javob bermasligi.

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;

maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sog'lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash.

Maktabgacha sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi uni samarali boshqaruv tizimi va rahbar kadrlar faoliyatiga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan "Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash; maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish" maktabgacha ta'limda menejment sohasining predmeti, maqsadi va asosiy vazifalarini o'quv fani doirasida o'rganishni taqozo etmoqda.

Konsepsiyada ta'kidlangidek, so'nggi yillarda maktabgacha ta'limni boshqarish tizimida institutsional islohotlar amalga oshirildi:

Vazirlik va uning joylardagi hududiy bo'linmalari tashkil etildi;

zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish maqsadida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Kuzatuv kengashlari tashkil etildi;

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi, uning asosiy vazifalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik holatini yaxshilash, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini hamda Vazirlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni moliyalashtirishdan iborat;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rag'batlantirish maqsadida ularga qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish huquqi berilgan.

Konsepsiyada bu ustuvor yo'nalish, ya'ni maktabgacha ta'limni boshqarish va moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish taqozo etilayotgani, ular qatorida:

1) maktabgacha ta'lim tizimida davlat talablarining monitoringi va ularga rioya etilishining samarali mexanizmlarini yaratish;

2) Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning hududiy bo'linmalari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarga axborot berishning zamonaviy shakllarini joriy etish, jamiyat va biznes bilan o'zaro hamkorlikda ortiqcha ma'muriy ovoragarchiliklarga barham berish;

3) Vazirlikning boshqaruv jarayoniga ishni rejalashtirish va tashkil qilishning zamonaviy innovatsion usullarini, sifat menejmenti tizimlarini, aniq natijalarga erishishga qaratilgan maqsadli indikatorlarni, xodimlarni tanlab olish, motivatsiya qilish, rivojlantirish va baholash usullarini joriy etish;

4) jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni, jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yo'lga qo'yishning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish;

5) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari, shakllari va ixtisoslashtirilganligini hisobga olgan holda, butun respublika bo'yicha maktabgacha ta'limni jon boshiga normativ moliyalashtirishni izchil joriy etish;

6) maktabgacha ta'lim sohasida byudjetdan moliyalashtirishni boshqarishdagi yangi yondashuv sifatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari xizmatlariga davlat buyurtmasini joriy etish;

7) davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ishlashdan maqsadlarini hamda tovarlar va xizmatlarni tabiiy ko'rinishda iste'mol qilishning oqilona me'yorlarini hisobga olgan holda ularni moliyalashtirishning yangi normativlarini ishlab chiqish hisobiga maktabgacha ta'lim xizmatlaridan keng aholi qatlamlari foydalanishini ta'minlash;

8) moliyaviy nazorat, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan byudjet qonunchiligi buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

9) maktabgacha ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish, ular ishtirokidagi amaldagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash vazifalar sifatida ko'rsatib o'tildi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, ta'lim menejmentining zamonaviy mexanizmlaridan foydalanishni taqozo etadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda qanday tamoyillari ko'zda tutildi?
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun amalga oshirish lozim bo'lgan qanday vazifalar ko'rsatib o'tilgan?
3. Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish masalasi qaysi qarorda ko'rsatilgan edi?
4. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da qanday muammolar va kamchiliklar sanab o'tilgan?
5. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

3-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA MOLIYAVIY TA'MINLASH.

REJA:

1. Maktabgacha ta'limni rejalashtirish va moliyaviy ta'minlash.
2. Rejalashtirishning asosiy bosqichlari va turlari.

Tayanch soʻz va iboralar: rejalashtirish; moliyaviy ta'minlash; rejalashtirish; tashkil etish; farmoyish berish; muvofiqlashtirish; nazorat qilish; smeta; harajatlarni smetasi.

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos boʻlgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishning to'g'ri tashkil etilishi juda muhim.

Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta'sir etish» tushunchasining o'rniga «o'zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo'llanilmoqda.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo'sh, «menejment» va «menejer» atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta'lim muassasasida davlat-jamoat boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

«Menejment» va «menejer» atamaları hozirgi talqinda korxon va muassasa egalari o'z mulklari va xodimlarni o'zlari boshqarganlaridan ko'ra tanlangan yo'nalish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so'ng paydo bo'ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muavvan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish ijaravonidir.

Boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri Anri Fayol XX asming boshlarida boshqaruvning asosiy funksiyalari sifatida:

- rejalashtirish;
- tashkil etish;
- farmoyish berish;
- muvofiqlashtirish;
- nazorat funksiyalarini ajratib ko'rsatgan.

Anri Fayol boshqarishni kelajakni ko'ruvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, tashkilotni idora qiluvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi.

Mazkur fikrga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tashkil etish ham boshqaruv funksiyasi sifatida, ham boshqaruv vositasi sifatida ta'riflanayotganligini ko'ramiz, shuningdek, menejment nazariyasida rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish va nazorat funksiyalarini ajratilishi va ularni birinchi darajali deb hisoblash qabul qilinganligi ham yuqorida keltirgan fikrimizni tasdiqlaydi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda pedagoglar tomonidan bajariladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo'nalishiga ko'ra boshqaruvning rejalashtirish va tashkil etish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

- pedagogik jarayonlarni rejalashtirish;
- sub'ektlar uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar taqsimlash;
- sub'ektlar faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va ob'ektiv baholash asosida rag'batlantirish.

Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo'llaniladi:

- 1) muddatli (perspektiv);
- 2) yiliik;
- 3) yakuniy.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaviy ishni rejalashtirish pedagoglar, tarbiyachi-metodist, direktor faoliyatining muhim turlaridan biridir. Rejalashtirish - ta'lim-tarbiyaviy ishning zarur sharoit, foydalanadigan vosita, ishning usul va metodlarini ko'rsatib, ta'lim-tarbiyaviy ish dasturini amalga oshirish tartibi. izchilligini oldindan aniqlashdir.

Maktabgacha pedagogika maktabgacha ta'lim tashkiloti ishini rejalashtirish mumkinligini va zarurligini ta'kidlab, bunda u inson shaxsining shakllanishida ijtimoiy omillar, muhit va tarbiyaning muhim ahamiyatga egaligi haqida asosiy qoidalarga tayanadi. Rivojlanishning asosiy omili bo'lgan tarbiya jarayonida bilim, aqliy va amaliy malakalar hamda harakat usullarini bola tomonidan egallanishi amalga oshiriladi. Tarbiyaning mazmunini uning maqsadi belgilaydi. Rejalashtirishning maqsadi - «Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya

dasturi»ning bajarilishini ta'minlashdir.

Pedagogik jarayonni yagona bir butun sifatida tashkil etish vazifasi rejalashtirishda yetakchi hisoblanadi.

Rejalashtirish pedagogik jarayonni yaxlit tashkil etishga: bolalar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifasini aniqlashga, bolalarni yoshga ko'ra pedagogik ta'sir mazmunini va usullarini tanlashga, bolalar hayoti, faoliyat turlari, rahbarlik metodlari va shu kabilarni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yo'llangan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish murakkab bo'lib tarbiyachidan bolalarning ruhiy fiziologik taraqqiyot darajasi to'g'risidagi bilimlarni, ta'lim-tarbiya dasturini, ta'lim va tarbiyaning metod va usullarini bilishni taqozo etadi. Reja - tarbiyachiga yil bo'yi amalga oshiradigan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tekisda taqsimlab, ma'lum izchillik bilan amalga oshirishga yordam beradi.

Reja bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlar iga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish metod va usullarni yaxshilab o'ylab olish, kerakli material va jihozlarni tayyorlash imkonini yaratadi. Tarbiyachi rejalashtirgan hamma ishlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi lozim. Shu bilan birga reja qotib qolgan narsa bo'lmay, vaziyatdan kelib chiqib, unga o'zgarishlar kiritish mumkin. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir-birini to'ldiradigan bir necha xil reja tuziladi:



Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik rejasi, istiqbol rejasi va tarbiyachining kalendar rejasi. Yillik reja asosan maktabgacha ta'lim tashkilot direktori, metodist tarbiyachilar tomonidan tuzilib, bolalar tashkilotida amalga oshiriladigan barcha

ishlarni o'z ichiga oladi. Istiqbol rejası 1-3 o'ygga mo'ljallangan bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad bolalar bilan olib boriladigan ta'lim- tarbiya ishlarini tartibga solish va uning ma'lum maqsadga qaratilgan va samarali bo'lishini ta'minlashdir. Unda «Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya dasturi»ning hamma bo'limlari o'z aksini topadi.

Istiqbol rejasida dasturning hamma bo'limlari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ta'lim-tarbiya ishlari tizimi bolalar faoliyatining hamma turlarida aniq mavzular bo'yicha belgilab chiqiladi.

Kalendar reja 10-12 kunga tuziladi kun davomida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya mazmunini aks ettiradi. Uni tuzishda dastur talablari, bolalarning rivojlanish va tarbiyalanish darajalari, maktabgacha ta'lim tashkilotining ish sharoiti hisobga olinadi.

Kalendar rejaga bolalarning aniq bilim va tasavvurlarni egallash jarayoni va ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar to'g'risida umumlashgan bilimlarni shakllantirish, bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni o'stirish, axloqiy ongini shakllantirish, axloqiy xulq, odat va malakalarni egallashi va boshqalar kiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiya dasturini yaxshi bilish kalendar rejani muvaffaqiyatli tuzishning asosiy garovidir.

Pedagog va psixolog olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalari bolalarning malaka va ko'nikmalarni egallashi ma'lum yosh bosqichida yuzaga kelishini ko'rsatdi.

Tarbiyachi xuddi mana shu davmi qo'ldan boy bermay, bolani har tomonlama rivojlantirishga erishmogi zarur. Tarbiyachi o'zi ishlayotgan guruh, shuningdek, o'zidan oldingi va keyingi guruhlar dasturi talablari va mazmunini yaxshi bilishi kerak. Masalan, dasturning kichkina guruh bolalarini tevarak-atrof bilan tanishtirish bo'limida bolalarni hayvonlar, o'simliklar va shunga o'xshashlar to'g'risidagi eng oddiy bilim va tushunchalar bilan tanishtirish vazifasi belgilangan.

O'rta guruhda dastur bo'yicha bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va narsa-buyumlarga, voqea-hodisalarga nisbatan qiziqishini o'stirish va shu asosda eng oddiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish, eng muhimi esa, kuzatuvchanlikni, narsa va

buyumlar, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni topa bilishga o'rgatish bosh vazifa hisoblanadi. Katta va tayyorlov guruhi bolalarini narsa-buyumlar, voqea-hodisalar to'g'risidagi haqiqiy tasavvur va tushunchalarini, ularning tabiiy sabablar bilan bog'liq ekanligini shakllantirish dasturning muhim vazifasidir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dasturni yaxshi bilishning o'zi yetarli emas, shu bilan birga, har bir bolaning' shaxsini rivojlantirish yo'llarini yaxshi bilish, bolaning bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olish qobiliyati har xilligini ham e'tiborga olish kerak.

Tarbiyachining ishini muvaffaqiyatli rejalashtirishningyana bir zarurati - uning metodik qo'llanma, pedagoglar kengashi, metodik birlashma, kurslarda va shunga o'xshashlardan olgan tavsiyalardan keng foydalanishidir.

Kalendar rejani guruhda ishlovchi har ikkala tarbiyachi birgalashib bamaslahat tuzishlari lozim. Tarbiyachilar vaqti- vaqti bilan bolalarning ishlarini tahlil qilib borishlari lozim. Kalendar reja bir-ikki haftaga tuziladi va tarbiyachining majburiy hujjati hisoblanadi.

Dasturga muvofiq hamma ta'lim-tarbiya ishlari bolalar faoliyatining barcha turlari: o'yin, mehnat, maishiy faoliyat va mashg'ulot orqali amalga oshiriladi. Kalendar rejaning mazmuni bolalar faoliyatining hamma turlarida aks ettiriladi. Kalendar rejani tarbiyachi kun tartibiga binoan tuzib chiqadi. Bolalarning o'yini ham, mehnat mashg'uloti ham, maishiy faoliyati ham tarbiyachining har kungi kalendar rejasidan o'tin olishi lozim.

Kalendar rejaning mazmuni va shakli bolalarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi qay darajada borayotganligiga qarab baholanadi.

Ertalabki soatlarni rejalashtirish. Ertalabki soatlarda quyidagilar rejalashtiriladi:

1. Bolalarning og'zaki nutqini tuzatish va rivojlantirish:

a) kitoblar, o'yinchoqlar, bolaning dam olish kunini qanday o'tkazgani, uning oila a'zolari - ota-onasi, opa-singlisi, aka- ukasi va shunga o'xshashlar to'g'risida jamoa tarzida va yakka tartibda suhbatlar o'tkazish;

b) albomlar, jurnallar, yangi kitoblar, rassomlarning yangi asarlarini ko'rish;

v) she'rlarni takrorlash;

g) to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantiruvchi didaktik o'yinlar;

d) tovushlarni to'g'rilash bo'yicha yakka tartibda shug'ullanish.

2.- Bolalarni kattalik, rang, vaqt, fazoviy masofa bilan tanishtirish bo'yicha didaktik o'yinlarni rejalashtirish (kichik va o'rta guruhlarda).

3. Bolalar xohlagan faoliyat rejalashtiriladi. Bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun plastilin, bo'yoqlar, qalamlar, bo'yashlari uchun rasmiy kitobchalar va o'zlarining chizgan rasmlari beriladi.

4. Bolalar tomosha qilishlari uchun xalq o'yinchoqlari, kiyimlar, kashtalar, idish-tovoqlar, narsa-buyumlar, milliy kiyimdagi qo'g'irchoqlar beriladi.

5. Bolalarni madaniy-gigiyenik malakalarga o'rgatish bo'yicha yakka tartibdagi ishlar rejalashtiriladi, masalan, kichkina guruhda dastro'molchadan foydalanishga o'rgatish bo'yicha didaktik o'yin o'tkaziladi.

6. Koptokni dumalatish, gardishni aylantirish, tirmashib chiqish, sirpanib yurish kabi asosiy harakatlarni rivojlantiruvchi ishlar rejalashtiriladi.

7. Ashula va raqsning ayrim qismlarini takrorlash rejalashtiriladi.

8. Bolalarning o'yin faoliyatlari rejalashtiriladi:

a) qurilish o'yinlari rol, syujet bilan bog'liq qurilish o'yinlari rejalashtiriladi;

b) syujetli-rolli o'yinlar, turmushni aks ettiruvchi va boshqa shunga o'xshash o'yinlar rejalashtiriladi;

v) stol usti bosma didaktik o'yinlari, so'zli buyumlar bilan o'ynaladigan didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, xorovod o'yinlar, xalq didaktik o'yinlari rejalashtiriladi. Bolalarning sezgisini, idrokini, tovushlarni idrok etishini, rang, vaqt, didni, nutqni o'stiruvchi ishlar rejalashtiriladi. Dramalashtirish va sport o'yinlari ham rejalashtiriladi.

9. Mehnatning turli xillari rejalashtiriladi:

a) tabiatdagi mehnat ko'chat o'tkazish, suv sepish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish va shu kabilar;

b) xo'jalik maishiy mehnat idishlarni yuvish, xonani yig'ishtirish, kitoblar

ni yopishtirish-yelimplash, o'simliklar bargini artish);

v) qo'l mehnati (tabiiy materiallar, daraxtlar mevasi, somonchalar, lattalar, yog'och va kartondan har xil buyumlar yasash) har bir yosh guruhida mehnatning qaysi turi o'tkazilishi dasturda ko'rsatilgan. Ertalab 2-3 xil faoliyat rejalashtiriladi. Ertalabki soatlarni rejalashtirishda shu kungi o'tkaziladigan mashg'ulotlar e'tiborga olinadi. Mashg'ulotda biror narsa o'qib berish rejalashtirilgan bo'lsa, ertalabki soatda rasm ko'rish, onasi to'g'risida so'zlab berish, o'qish rejalashtirilmaydi, shu kuni ertalabki soatga mehnat, kattalik, shakl bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat rejalashtiriladi. Tarbiyachi har xil mashg'ulotlarni rejalashtiradi; bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlar ularning olgan bilimlarini, orttirgan tajribalarini mustahkamlovchi va tartibga soluvchi mashg'ulotlar, kompleks mashg'ulotlar va hisobot-nazorat (tekshiruvchi) mashg'ulotlari bo'ladi.

Tarbiyachi o'zining kalendar rejasiga mashg'ulotning nomi va dastur mazmunini yozib qo'yadi. Dastur mazmuniga mashg'ulotning ta'lim-tarbiyaviy vazifalari va bolalar egallab olishlari, aniqlash va mustahkamlash kerak bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar hajmi ham yoziladi.

Mashg'ulotni rejalashtirish bolalar tomonidan ma'lum hajmdagi bilimlarni egallash va kengaytirish imkoniyatini yaratibgina qolmay, shu bilan birga ularning bilimlarini aniqlash, mustahkamlash, mustaqil faoliyatlarida qo'llash imkonini beradi. Bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarning hajmi mashg'ulotdan-mashg'ulotga kengaytirib, murakkablashtirib boriladi. Masalan, tarbiyachi birinchi mashg'ulotdabolalarniuyhayvonlaribilantaniishtiradi, bolalar ularni kuzatishadi, nomini aytishga o'rganadi.

Keyingi mashg'ulotda esa bu bilimlar mustahkamlanib, hayvonlarni kuzatish jarayonida yangi bilimlar hosil bo'ladi. Bolalar bu hayvonlarning foydali belgilarini, xatti-harakatini kuzatishsa, kelgusi mashg'ulotda bolalar uy hayvonini odamlar qanday parvarish qilishi va bu parvarishga hayvonlar o'z «minnatdorchiligini» qanday bildirishi to'g'risida gap boradi.

Dastur materialini o'rganish mashg'ulotdan-mashg'ulotga mana shu izchillik bilan amalga oshirib boriladi. Bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli

o'zlashtirishlari aksariyat hollarda tarbiyachining tayyorlagan metod va usullariga, shart-sharoitga bog'liq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning yosh xususiyati asosan ko'rgazmali metoddan kuzatish namoyish qilish metodi hikoya, suhbat, tushuntirish, amaliy metod mashq o'yindan foydalanishni takrorlaydi.

Har bir metod umumiy vazifani amalga oshirishga qaratilgan yagona yo'l bo'lib, usullar yig'indisidan tashkil topadi. Hamma usullarni shartli ravishda uchta guruhga bo'lish mumkin: ko'rgazmali (ko'rsatish), og'zaki (savol, solishtirish, she'r aytish, topishmoqdan foydalanish), amaliy (topshiriq, o'yin, vaziyat usullari va boshqalar).

Bevosita faollashtiruvchi metodlardan tashqari bivosita metodlardan ham foydalaniladi (eslatish, maslahat, tanbeh berish, tuzatish). Ko'p hollar da metod va usullardan kompleks tarzda foydalaniladi. Mashg'ulot vaqtida beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni bolalar yaxshi o'zlashtirib olishlari ularning hissiy holatini ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Tarbiyachi o'zining kalendar rejasida mashg'ulotda foydalaniladigan usulnigina yozib qolmasdan, shu bilan birga uning mazmunini ham ochib yozishi kerak.

Bolalarga beriladigan savollarni ham qanday izchillikda berilsa, shunday yozib qo'yish zarur. Agar tarbiyachi mashg'ulotda topishmoq yoki she'rdan parcha keltirmoqchi bo'lsa, uning mazmunini yozib qo'ygan ma'qul. Solishtirishga o'rgatishda qaysi buyumlardan, ularning qaysi belgisidan, qanday savollardan foydalanish lozimligi ham yoziladi.

Tarbiyachining mashg'ulotni rejalashtirishdagi ba'zi bir metod va usullarini ko'rib chiqamiz.

Tarbiyachi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rayotganda, albatta, yosh bolaning tafakkuri ko'rgazmali-obrazli bo'lishini e'tiborga oladi va asosan mashg'ulotda ko'rgazmali metodlarni rejalashtiradi. Kuzatish metodi tarbiyachi rahbarligida kuzatilayotgan obyektning hissiy idrok qilishini ta'minlaydi. Narsa va buyumlarni namoyish etish ham shunday ahamiyat kasb etadi.

Ko'p mashg'ulotlarda, ayniqsa, nutqni o'stirish mashg'ulotida tarbiyachining hikoyasidan foydalaniladi. Bu bolalarga tanish bo'lgan badiiy asardan, tevarak-atrofdagi hayotdan olingan voqea-hodisalarni tarbiyachi his-hayajon bilan jonli,

obrazli qilib bayon etishidir.

Suhbat metodi ham rejalashtiriladi. Suhbat bolalarga avval egallagan bilimlari bilan yangisini bog'lash imkonini yaratadi, shuningdek, yangi bilimlarni o'zlashtirib olishlarini yengillashtiradi. Tarbiyachi mashg'ulotlarda foydalanadigan so'zli metodda uning qiyinligini savollar tashkil etadi. Savollar- ni bolalarning bilish jarayonlari: sezgi, idrok, tafakkurini faollashtiradigan qilib tuzish kerak. Savollar bolalardan aqliy zo'r berishga, sabab-natijalarni aniqlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar yaratish ham bolaning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, bilimlarni egallab olishini yengillashtiradi, ularning fahm-farosatli, mustaqil fikrlaydigan bo'lishiga yordam beradi.

Mashg'ulotlarda solishtirish usulidan foydalanish insonning eng qimmatbaho aqliy xazinasini bo'lib, u buyumlarni yaxshiroq o'rganish va tushunishga yordam beradi.

Kichik guruhlarda solishtiriladigan buyumlar bir-ikkita dan ko'p bo'lmaydi. Tarbiyachi solishtirishni qanday izchillikda olib borishni o'zining kalendar rejasida yozib qo'yadi.

O'rta guruhda solishtirishga mo'ljallangan buyumlardagi belgilar soni ko'payadi va bolalardan buyumlarni kuzatib, ulardagi belgilarni ma'lum izchillikda bayon qilish talab etiladi.

Katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalardan faqat ular ko'rib turgan buyumlarning belgilarini sanash bilan chegaralanib qolmay, ularni solishtirishda tasavvurlaridan foydalanish ham talab etiladi.

Solishtirishning bu murakkab shakli bolalarning yoshiga mos bo'lib, ularning aqliy rivojlanishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi mashg'ulotlarda o'yin usulidan keng foydalanadi. O'yin usuli mashg'ulotning qiziqarliroq, jozibaliroqligini ta'minlaydi, mashg'ulot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bola osonlik bilan yengadi.

Mashg'ulot rejasida bolalarning xulq-atvori, qiziqishi, rivojlanish darajasiga qarab yakka tartibdagi ishlar ham rejalashtiriladi. Umumiy rivojlanishi biroz orqada qolayotgan, diqqati tarqoq, o'ziga ishonchi yo'q yoki o'zi to'g'risida yuqori fikrli bolalarga ko'proq e'tibor berish kerak.

Shunday qilib, kalendar rejaga mashg'ulotning dastur mazmuni, metodik usul unga kerakli ko'rgazma va tarqatma materiallar, bolalar bilan individual ishlash rejalashtiriladi.

Saymi rejalashtirish.

1. Tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish rejalashtiriladi. Masalan: harakatlanayotgan transportni, bayramga bezatilgan ko'chani, farroshning ishini va shunga o'xshashlarni kuzatish; barg yozayotgan, gullab turgan o'simliklarni, yog'ayotgan qor va hokazolarni kuzatish rejalashtiriladi. Bular haftasiga 5-6 marta kuzatiladi. Ob- havoni kuzatishni oldindan rejalashtirib bo'lmaydi. Bu kalendar rejaga quyidagicha yoziladi: yaqin orada (hafta davomida) qor yog'ishini kuzatish. Bu tadbir o'tkaziladigan mashg'ulot bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

2. Qoidali o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi ko'rsatilgan holda rejalashtiriladi. Kichik guruhda bitta yangi o'yin yoki tanish o'yinni rejalashtirish mumkin katta guruhda ham bolalarga tanish bo'lgan 2 o'yinni sayrning boshida va oxirida rejalashtirgan ma'qul.

3. Bolalarning maydonchadagi, polizdagi mehnati rejalashtiriladi:

a) tabiatdagi mehnat (daraxt o'tkazish, suv quyish, chopiq qilish, o'simlik urug'ini terish, hayvonlarni parvarish qilish va hokazolar);

b) maishiy-xo'jalik mehnati [barglarniyig'ish, qomi tozalash, ayvonchani supurish, qafasni tozalash, yo'lkalarga qum sepish va shunga o'xshashlar).

4. Bolalar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ishlar: jismoniy tarbiyadan asosiy harakatlarni mashq qildirish, san'at, ona tilini o'rganish va boshqalar.

Asosiy harakatlarni mashq qildirish bo'yicha tadbirlar yil fasllariga qarab tanlanadi, masalan, qishda yugurish, sakrash, yurish kabi ishlar rejalashtiriladi; emaklab, sirpanib yurish, gimnastika narvonchasidagi muvozanatni saqlashga o'rgatuvchi mashqlar rejalashtirilmaydi.

5. Sport o'yinlari (voleybol, stol tennisi, badminton va shunga o'xshashlar), sport ermak o'yinlari (chang'i, konki, chana, velosiped va boshqalar).

6. Maqsadli sayrlar maydoncha bo'ylab va maydonchadan tashqariga o'tkaziladi. Avval ekskursiyaga borib kelingan joyga maqsadli sayr uyushtiriladi. (Masalan,

bahorda mana shu o'tloqqa kelgan edik, shu vaqtgacha ko'p narsalar o'zgaribdi)

7. Qurilish o'yinlari va ularga kerakli materiallar, qurollar sayrda bolalarning syujetli-rolli o'yinlari yuzaga kelish va rivojlanishi, o'yin harakatlariga bolalarni o'rgatish usullari ham rejalashtiriladi. Tarbiyachi kalendar rejasi o'yin uchun olib chiqiladigan o'yinchoqlarni, ularning ayrimlarini ham ko'rsatadi. Sayrga chiqishdan oldin tarbiyachi bugun sayr vaqtida nima bilan shug'ullanishlari, qanday mehnat faoliyatini bajarishlari yoki qanday o'yin materiallarini olib chiqishlari kerakligi to'g'risida bolalar bilan gaplashib oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, rejalashtirish ishlari respublika xalq xo'jaligi rejasi asosida amalga oshiriladi. MTT shu asosda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasini ishlab chiqadi. Unda MTT yo'nalishi bo'yicha faoliyat natijalarini aks ettiruvchi va bolalarning o'rtacha yillik sonini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan nazorat raqamlari, ko'rsatkichlari, byudjet va tarmoq moliya me'yorlari orqali tashkilotni saqlab turish va rivojlantirishga ajratilgan mablag'lardan foydalanishda:

- mablag' bilan ta'minlashning byudjet va tarmoq me'yorlari;
- ish haqi jamg'armasi daromadlarini taqsimlash me'yorlari;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish jamg'armasi me'yori;
- valyuta ajratmalari jamg'armasi me'yorlar;
- MTT reja, moliya, mehnat intizomiga qat'iy rioya rioya qilishga majburdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilot iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasini ishlab chiqishda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar: qonunlar, qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlarga asoslanib ish yuritadi. MTT o'z huquq va vakolatlari doirasidan tashqariga chiqadigan boshqa masalalarni, xususan, er va suvdan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish ishlarini amalga oshirish, mehnat resurslaridan foydalanish, xalq deputatlari mahalliy kengashlari bilan kelishgan holda hal etishlari lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish rejasi hamda byudjet yoki tarmoq moliyaviy me'yorlari Xalq ta'limi, Sog'liqni saqlash, Moliya,

Iqtisodiyot vazirliklari, boshqa respublika tashkilot va idoralari hamda ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy jihatdan asoslangan metodik tavsiyalari asosida ishlab chiqiladi.

Rejalashtirishda istiqbolli va joriy turlar farqlanadi.

Istiqbolli reja – xalq ta'limi vazirligi, viloyat boshqarmalari, tuman va shahar moliya-iqtisod bo'limlari tomonidan uzoq muddatga (5-10 yilga) mo'ljallab tuziladigan rejalar tushuniladi.

Joriy rejalashtirish – har yili amalga oshiriladigan moliyaviy-xo'jalik ishlari rejasidir. Ta'lim tizimi yuqori boshqaruv organlari qonunchilikda belgilangan huquq va vakolatlari doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tegishli ko'rsatmalar beradi, tashkilot o'z faoliyatida

qonunchilikka qanchalik rioya qilayotgani, ijtimoiy mulkni qay darajada tasarruf etayotgani ishlab chiqarish va moliyaviy xo'jalik faoliyatini nazorat etadi, zarur hollarda boshqa manfaatdor tashkilotlarni jalb qilib, bir yilda bir marta kompleks tekshiruvni amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining harajat smetalari ularning ijtimoiy-tarbiyaviy va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'larning qanday maqsadlarga sarflanishi va choraklar bo'yicha taqsimlanishini belgilab beradigan asosiy hujjat hisoblanadi. Ana shu smetaga asoslanib, byudjetda maktabgacha ta'lim tashkilotining moliyaviy ehtiyojlari uchun mablag' ko'zda tutiladi va qonunchilikda belgilangan tartibda tashkilot hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

Smeta - har qanday faoliyatni amalga oshirish uchun kelgusi harajatlarni hisoblash (reja). Har qanday korxonada, muassasa faoliyatini, har qanday ishni (loyihalash, qurish, tugatish, ta'mirlash va boshqalarni) bajarish uchun moliyalashtirish uchun hisob-kitoblar mavjud.

Smeta - bu muayyan ishlar va harajatlarni ishlab chiqarish harajatlarini taxmin qilish imkonini beradigan hujjat. Hisob-kitoblar deyarli har qanday faoliyat sohasida mavjud bo'lib, u erda mablag'larning kelajakdagi chegaralarini oldindan baholash zarur va bu faqat pul ko'rinishida kerak emas. Hisob-kitoblar ko'pincha resurslarni fizik jihatdan oddiy hisoblash hisoblanadi: metrlar, bo'laklar, to'plamlar va boshqalar.

Bashoratli yondashuvda ish tartibi (ishlab chiqarish tarkibi) hisobga olinmaydi, va katta va murakkab ishlab chiqarish jadvallari bo'yicha hisob-kitoblar loyiha narxini baholashda juda katta noaniqlik bilan ajralib turadi (katta og'ish), dastlab loyihalar sifatiga xavf tug'diradi: loyihaning mazmuni, loyihaning qiymati va loyihaning o'z vaqtida bajarilishi (qarang: loyihani boshqarish). Loyiha narxini, shuningdek ishlab chiqarish jadvalini hisobga olgan holda ishlab chiqarish resurslari narxini aniqlash usuli kalkulyatsiya deb ataladi.

Harajatlar smetasi - to'liq harajatlar smetasi harajatlarning iqtisodiy elementlari tomonidan tuzilgan ma'lum bir kalendar davri (yil, chorak) uchun mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo'yicha korxonalar. Harajatlar smetasi odatdagi elementlar bilan tuziladi: xom ashyo va asosiy materiallar, qaytariladigan chiqindilar (hisobdan chiqarilgan); tashqaridan yordamchi materiallar, yoqilg'i va energiya; asosiy va qo'shimcha ish haqi; ijtimoiy sug'urta badallari, boshqa harajatlar. Harajatlar smetasi alohida iqtisodiy elementlar va murakkab harajatlar smetalari yoki alohida biznes bo'linmalarining smetalarini to'g'ridan-to'g'ri yig'ish yo'li bilan hisoblanadi; o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarning ikkilamchi hisobini istisno qiladi. Harajatlar smetasida tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarini o'zgartirish, kapital qurilish, kapital ta'mirlash va boshqalar harajatlari hisobga olinadi. Harajatlar smetasi korxonaning pul mablag'lariga bo'lgan umumiy ehtiyojini, moddiy harajatlar miqdorini aniqlashga, korxonaning rejalashtirilgan davrdagi daromadlari va harajatlari balansida hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon beradi. Harajatlarni smetasi va mahsulot tannarxini hisoblash bir-biri bilan chambarchas bog'liq, bir xil harajatlarni o'z ichiga oladi, lekin ularni turli mezonlarga muvofiq hisobga oladi.

Smeta – maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha harajatlari va ularni qoplash manbalari, byudjet ajratmalari va ota-onalar mablag'larini aks ettiradigan moliyaviy-me'yoriy hujjatdir. Smeta harajatlarini rejalashtirish quyidagi moddalar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Ish haqi.
2. Ish haqiga nisbatan ajratmalar.

3. Ma'muriy va xo'jalik harajatlari.
4. Xizmat safarlari harajatlari.
5. Adabiyotlar, ko'rgazmali vositalar va o'yinchoqlar sotib olish.
6. Ovqatlantirish harajatlari.
7. Asbob-uskuna va jihozlar sotib olish.
8. Bino va inshootlarni kapital ta'mirlash harajatlari.
9. Boshqa harajatlar.

Smeta byudjetida qayd etilgan harajat moddalari Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan hujjat asosida tuziladi. Smetada tashkilotning kelasi yil uchun hisoblab chiqilgan jami hamda har bir modda bo'yicha harajatlar miqdori joriy yilga tasdiqlangan harajatlar summasi smeta qachon tuzilayotgani va o'tgan davrdagi haqiqiy harajatlar miqdori e'tiborga olingan holda kiritilgan o'zgartishlar bilan taqqoslab keltiriladi.

Smetaga hisob-kitoblar bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkiloti egallab turgan bino haqida umumiy ma'lumotlar (uning hajmi, maydoni, isitish tizimi, elektr, gaz, vodoprovod, kanalizatsiya tarmog'ining mavjudligi), shuningdek, tashkilotning ko'lamiga oid ko'rsatkichlar (guruhlar hamda bolalar soni va h.k) ham aks ettiriladi. Bundan tashqari, smetaga maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, tarbiyachilar, enagalar, hamshiralalar va boshqa xodimlarning ikki nusxada tuzilgan tarifkatsiya ro'yxati ilova qilinishi shart.

Smeta loyihasi tegishli ilovalar bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilangan muddatda yuqori tashkilotlarga ikki nusxada, zarur hollarda esa uch nusxada taqdim etiladi.

Yuqori tashkilot maktabgacha ta'lim tashkilotining smetasini qabul qilib olgach, eng avvalo, smetaning to'g'ri tuzilganini aniqlab, uning to'liq to'ldirilgani, alohida moddalar bo'yicha harajat summalari aniq hisob-kitob qilingani, binoning hajmi va maydoni to'g'ri ko'rsatilgani, shuningdek, xodimlarning tarifkatsiya ro'yxati ilova qilinganini tekshiradi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. MTTda rejalashtirishning asosiy maqsadi nima?

2. MTTda rejalashtirishning qanday turlari farqlanadi?
3. Istiqbol reja nima va u qanday tuziladi?
4. Joriy (kalendar) rejada nimalar aks ettiriladi?
5. Ertalabki soatlarni rejalashtirishda nimalar e'tiborga olinadi?
6. Mashg'ulotni rejalashtirishning pedagogik asoslari nimalardan iborat?
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, rejalashtirish ishlari qaysi reja asosida asosida amalga oshiriladi?
8. Smeta nima?
9. MTT smetasiga nimalar kiritiladi?
10. Istiqbol va joriy rejalashtirishning farqlari nimada?

4-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA ULARNI TASHKIL ETISH.

REJA:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti – maktabgacha yoshdagi bolalarga ijtimoiy tarbiya beradigan muassasa.
2. Turli tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkiliy tizimini belgilab beruvchi Davlat instruktiv hujjatlari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolarini loyihalashtirish.
4. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish.

Tayanch so'z va iboralar: maktabgacha ta'lim tashkiloti; davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti; nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti; qisqa muddatli guruhlar; litsenziya; ta'lim xizmatlari.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti – maktabgacha yoshdagi bolalarga ijtimoiy tarbiya beradigan muassasa. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 30 sentyabrdagi PQ-3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, to'laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o'sishida turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni, shuningdek rehabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarni

o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida 2019 yil 13 mayda Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 391-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda:

Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizom (1-ilovaga muvofiq);

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Bolalarni ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yo'llash bo'yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya to'g'risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti sifatida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti — maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti

davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot

nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs

Maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi quyidagicha belgilangan. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o'z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslar - xususiy mulk huquqi sub'ektlari va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolari va inshootlarini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishmasdan xususiylashtirish, o'zgaga berish va qayta ixtisoslashtirish mumkin emas. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti:

maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi asosida o'z ta'lim dasturini ishlab chiqishga;

bolaning qonuniy vakillari bilan tuzilgan shartnoma asosida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturida nazarda tutilganidan tashqari qo'shimcha pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatishga;

bolaning qonuniy vakillari bilan ta'lim va tarbiya borasida hamkorlikni amalga oshirishga haqli.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti:

davlat maktabgacha ta'lim va tarbiya standarti talablariga mos keladigan maktabgacha ta'lim darajasini ta'minlashi;

bolalarning rivojlanishi, ta'lim va tarbiya olishi uchun xavfsiz shart-sharoitlar yaratishi;

bolaga ta'lim va tarbiya berish masalalari yuzasidan uning qonuniy vakillariga maslahat yordamini berishi;

bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga tahdidlar, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi faktlari to'g'risida vakolatli organlarni xabardor qilishi shart.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo'lgan davmi, yozgi sog'lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo'lgan davmi o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar ularda bolalarning bo'lishi davomiyligiga qarab:

bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlar (kuniga 3-4 soat);

to'liq kunli guruhlar (kuniga 9, 10,5 va 12 soat);

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlar bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining:

bolalar 3-4 soat bo'ladigan guruhlarida — kunduzgi uyqu tashkil etilmaydi va bir martalik ovqatlantirish tashkil etilishi mumkin;

bolalar 9 — 10,5 soat bo'ladigan guruhlarida — uch martalik ovqatlantirish tashkil etilishi va kunduzgi uyqu uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak;

bolalar 12 soat bo'ladigan guruhlarida — to'rt martalik ovqatlantirish tashkil etilishi va kunduzgi uyqu uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarida kunduzgi va tungi uyqu hamda besh martalik ovqatlantirish tashkil etilishi uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.

Uch yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalar uzluksiz uxlamaydigan muddatning tavsiya etiladigan maksimal davomiyligi 5,5 — 6 soatni tashkil etadi.

Uch yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalar uchun sutkalik uyquning tavsiya etiladigan umumiy davomiyligi muddati 12 — 12,5 soatni tashkil etadi, shundan 2 — 2,5 soatni kunduzgi uyqu uchun ajratish tavsiya qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejimi va bolalarning unda bo'lishi davomiyligi uning ustavida belgilanadi.

Guruh maktabgacha ta'lim tashkilotining tarkibiy birligidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar yoshga doir toifalar yoki yoshga doir bo'lmagan toifalar bo'yicha to'ldirilishi mumkin.

Guruhlar yoshga doir toifalar bo'yicha to'ldirilganda quyidagi yosh toifalari belgilanadi:

ilk rivojlanish guruhi (bir yoshdan uch yoshgacha);

kichik guruh (uch yoshdan to'rt yoshgacha);

o'rta guruh (to'rt yoshdan besh yoshgacha);

katta guruh (besh yoshdan olti yoshgacha);

maktabga tayyorlov guruhi (olti yoshdan etti yoshgacha).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish va bolalarni bir guruhdan boshqasiga o'tkazish har yili o'quv yili boshlanguniga qadar amalga oshiriladi.

Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar tegishli ravishda quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

uch yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalar guruhlarida — ko'pi bilan o'ttiz nafar bola;

bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlarda — ko'pi bilan o'ttiz nafar bola;

turli yoshdagilar guruhlarida — ko'pi bilan yigirma besh nafar bola;

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarda — ko'pi bilan o'n nafar bola.

Agar davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan erda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishni xohlovchi maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalar soni yigirma nafardan kam bo'lsa va bu joyda boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda kam sonli bolalardan iborat guruhlarini tashkil etishga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishuvga ko'ra guruhlarini ularni to'ldirishning eng ko'p miqdori oshirilgan holda tashkil etishga yo'l qo'yiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari quyidagilardan iborat:

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bola;

bolaning qonuniy vakillari;

pedagog xodimlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlari shartnoma bilan tartibga solinadi.

Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar, shuningdek qasddan jinoyatlar sodir etganligi uchun ilgari hukm qilingan shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Ilgari o'zining aybli harakatlari sababli mehnat shartnomasi tugatilgan shaxslar, shuningdek qo'llanilgan jazo chorasidan, sudlanganligi holati tugatilganligidan yoki olib tashlanganligidan hamda o'ziga nisbatan amnistiya yoki afv etish akti qo'llanilganligidan qat'i nazar, qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun ilgari hukm qilingan shaxslar, jinoyat ishlari aybdorligi to'g'risidagi masala hal etilmagan holda tugatilgan jinoyatlar sodir etgan shaxslar maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi organlari va tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turishni, ularni parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'limning mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim davlat ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturida belgilab beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejaları va jadvali bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o'yin hisoblanadi.

Har bir yosh guruhidagi mashg'ulotlar, o'yinlarning har kungi soni, davom etadigan davri va izchilligi maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida belgilab beriladi.

Turli tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkiliy tizimini belgilab beruvchi Davlat instruktiv hujjatlari.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o'z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi.

Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislaridir:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;

mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Boshqa davlat organlari va tashkilotlar ham qonun hujjatlariga muvofiq davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar ham tashkil etilishi mumkin. Qisqa muddatli guruhlar faoliyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari ustavi bilan tartibga solinadi.

Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan bolalarning to'laqonli kamol topishini ta'minlash, ularni tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish uchun mo'ljallangan.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi. Qisqa muddatli guruhlar maqsadlari bolalarning maktabgacha ta'limga to'liq jalb etilishini va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalar maktabgacha ta'lim olishda teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlashdan iborat.

Qisqa muddatli guruhlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini saqlash va mustahkamlash;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

bolaning yosh va o'ziga xos imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab har tomonlama kamol topishini ta'minlash;

bolani shakllantirishda, tarbiyalashda va o'qitishda oilaga har tomonlama yordam berish;

bolalarning bilim orttirishini, ijtimoiy-shaxsiy, badiiy-estetik va jismoniy kamol topishini ta'minlash.

Qisqa muddatli guruhlarining ishlash tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotining ustavida va bolaning qonuniy vakili bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatishi mumkin:

rivojlantirish guruhi;

bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi;

inklyuziv guruh;

kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh.

Rivojlantirish guruhi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ularni har tomonlama kamol toptirish, tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish maqsadida tashkil etiladi. Rivojlantirish guruhi kamida 20 nafar va ko'pi bilan 30 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi 5-6 yoshdagi bolalar uchun (umumta'lim muassasalariga qabul qilishdan bir yil avval) maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida yordam berish maqsadida, shuningdek, bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash va teng imkoniyatlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi ko'pi bilan 30 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi ko'pincha maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida, shuningdek, bo'sh turgan xonalar bo'lsa — umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, «Barkamol avlod» bolalar markazlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari negizida tashkil etiladi;

Inklyuziv guruh 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'ziga xos ehtiyojlari bor bolani jamiyatga moslashtirishni ta'minlash, bolaning qonuniy vakillariga maslahat-metodik ko'maklashish, o'ziga xos ehtiyoji bor bolalarning bunday zaiflikka ega bo'lmagan bolalar bilan birga o'qishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar uchun bolalarni tarbiyalash, ta'lim berish, parvarishlash va ularga qarab turish masalalarida qonuniy vakillarga yordam berish maqsadda tashkil etiladi. Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh ko'pi bilan 15 nafar bola bilan to'ldiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son qaroriga asosan "Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida Nizom" tasdiqlangan. Nizom ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot maqsadlari quyidagilardan iborat:

bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;

bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korrektsiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, shuningdek, ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion ishlarni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksiya-pedagogik yordam berilishini ta'minlash;

bolalarda Vatanga muhabbat, oilaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, milliy qadriyatlar va urf-odatlariga hurmat, o'ziga va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

tibbiy abilitatsiya va reabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korreksiya qilish;

bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;

bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;

o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti yoki qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotning muassislari bo'lishi mumkin.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarining eng kam soni 6 tani tashkil etadi.

Qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarining eng kam soni tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etishi kerak:

a) kamida 4 ta inklyuziv guruh;

b) quyidagi ixtisosliklardan biri bo'yicha rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun kamida 4 ta guruh:

eshitishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;

ko'rishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;

psixik rivojlanishi kechikkan bolalar uchun;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan 5 yoshga bo'lgan bolalar kontingenti mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni har yili yig'ib boradi va bu ma'lumotni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga belgilangan tartibda taqdim etadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar quyidagi huquqlarga ega:

tasdiqlangan moslashtirilgan ta'lim dasturi asosida mustaqil ravishda o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;

bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;

maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolarini loyihalashtirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining binolari loyihalash tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan xonalaar tarkibi va ular maydonining o'lchovini belgilovchi qurilish me'yorlari va qoidalari asosida namunaviy loyihalar bo'yicha qurilishi talab etiladi. Namunaviy binolar yosh guruhlarining soniga ko'ra loyihalashtiriladi. So'nggi yillarda asosan 120, 140, 160, 280, 320 va 560 o'rinli, qishloq joylaridag aholi siyrak joylashgan hududlarda 50-60 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolari asosan g'isht, panel, bloklardan ikki qavat qilib quriladi va ular markaziy isitish, vodoprovod, elektr bilan ta'minlanadi.

Ko'cha shovqinini bartaraf etish maqsadida, odatda, maktabgacha ta'lim tashkiloti binosi qizil chiziqdan eng kami 25 m uzoq masofada bo'lgan uchastkaga joylashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy binosi – guruh xonalari- o'z o'lchamiga ko'ra bolalarning harakat va toza havoga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi kerak. Agar bolaga 4 m² maydon to'g'ri kelib, xonaning balandligi 3,2 m bo'lsa, har bir bolaga to'g'ri keladigan havo kubaturasi 8m² ni tashkil qiladi, bu asosiy sanitariya me'yorlariga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining barcha o'yin maydonchalari umumiy aylanma yo'l bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Sport maydonchasi katta yoshdagi guruhlar joylashgan joydan uzoq bo'lmagan joyda joylashtirilishi kerak. U eng oddiy qobiqlar bilan jihozlangan: piramida yoki narvonli minora, log, bom, gorizontalar bar va boshqalar. Unga yaqin joyda basseyn yoki dush bo'lishi kerak.

Meva bog'i va qushlar uchun o'yin maydonchalari saytning orqa tomonida, oshxona va kir yuvish xonasining yonida joylashgan. Bolalar, ularning ota-onalari va xizmatchilari foydalanadigan saytga kirish joylaridan qat'i nazar, uy hovlisidan alohida chiqish amalga oshirilishi kerak.

Iqtisodiy zonada ikkita axlat yig'uvchi uchun platforma bo'lishi kerak. Perimetr bo'ylab sayt yashil maydonlar chizig'i bilan o'ralgan bo'lishi kerak.

Barcha holatlarda siz bolalarning yoshiga mos keladigan **o'lchovni** kuzatishingiz kerak, jihozlar va dizayn buyumlarini bo'yashda, bolalar psixologiyasini, toza, yorqin, quvnoq, quvnoq ranglar va soyalarga bo'lgan muhabbatni hisobga olish, xavfsiz teksturadan foydalanish kerak.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ham tashkil etilishi mumkin. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o'z faoliyatini ustav hamda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi litsenziya asosida amalga oshiradi.

Yuridik va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklida ta'lim xizmatlari ko'rsatadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan paytdan e'tiboran maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga haqli.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'pi bilan yigirma besh nafar maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning ta'lim va tarbiya olishiga yo'l qo'yiladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi litsenziya yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tganidan keyin beriladi.

Litsenziya berish, litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda Davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlarini to'ldirish tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini saqlashga, ularning tuzilishiga va ulardagi ish rejimini tashkil etishga doir sanitariya-gigiena talablari hisobga olingan holda ularning muassisi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov muassis tomonidan belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha belgilanadi, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot yuridik shaxslar hisoblanadi, ajratilgan mol-mulkka, mustaqil balansga ega, o'z majburiyatlari bo'yicha o'z ixtiyoridagi mol-mulk bilan javob beradi, o'z nomi yozilgan muhrga va shtampga ega bo'lishi mumkin.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot litsenziya olgan vaqtdan boshlab qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'lim faoliyatini amalga oshiradi.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan litsenziyani olgan vaqtdan boshlab amalga oshiradi.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo'shma tipdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlarda rehabilitatsiya tadbirlari tashkilot shtatidagi

tibbiyot xodimlari, shuningdek, boshqa tibbiyot xodimlari tomonidan shartnoma asosida o'tkaziladi.

Nazorat savollari:

1. Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizom qachon tassa'diqlangan?
2. Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni izohlang.
3. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish tartibi qanday?
4. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat?
5. Kimlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin?
6. Qisqa muddatli guruhlar faoliyati qanday tartibda yo'lga qo'yiladi?

5-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARI

REJA:

1. Direktor – maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari. tashkilotchi, ma'muriyatchi, yuqori malakali pedagog va unga qo'yilgan talablar.
2. Direktor ishining mazmuni:
 - a) direktorning ma'muriy-xo'jalik ishlariga rahbarligi;
 - b) tashkiliy- pedagogik ishlarga rahbarligi;
 - v) ta'lim-tarbiyaviy va metodik ishlarga rahbarligi.
3. Ota-onalar jamoatchiligi bilan ish uslublari.
4. «Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari»ning bajarilishiga direktorning rahbarlik nazorati.
5. Direktorning ota-onalar va jamoatchilik oldidagi hisobdorligi.
6. Direktor ishini rejalashtirish.
7. Direktorning huquqlari va vazifalari.

Tayanch tushunchalar: direktor; direktorning huquqlari; vazifalari; malaka talablari; malaka tavsiflari; "Kuzatuv kengashi"; rahbarning axloqiy xislatlari;

faoliyatining mazmuni; tarbiyaviy va metodik ish; ma'muriy-xo'jalik masalalari; ma'muriy-xo'jalik masalalari; ta'lim-tarbiya jarayonlari; nazorat qilish; pedagogik hujjatlar.

Maktabgacha ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, eng avvalo, yuksak malakali rahbar kadrlar faoliyati bilan belgilanadi. Shu boisdan pedagogik jamoani boshqarish, ta'limning yuqori ko'rsatkichlariga erishib borishda ta'lim muassasalari rahbarlaridan "boshqaruv" malakalariga ega bo'lib borishni talab qiladi.

Boshqaruv faoliyati – ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'ektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv ob'ekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z o'mida boshqaruv natijalariga va boshqaruv sub'ektiga ta'sir ko'rsatadi.

Mualliflar R.X.Djuraev va S.T.Turg'unovlar tomonidan ta'kidlanganidek, boshqaruv insonlarning barcha faoliyatlariga tegishli bo'lgan jarayon bo'lib, hayotiy ehtiyojlarni qondirishda, ko'zlangan maqsadlarga erishishda ma'lum bir faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi⁶.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi taraqqiyot jarayonida ta'lim tizimini boshqarishda faoliyat ko'rsatayotgan rahbar xodimlarning kasbiy-metodik tayyorgarligini har tomonlama rivojlantirish dolzarb masala sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi deganda, uning ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarligi, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy etukligi tushuniladi.

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bir-birin to'ldiradi, o'zaro

⁶ P.X. Джурев ва С.Т. Тургунов. Таълим менежменти. Т.: "VORIS-NASHRIYOT", 2006 йил. 23-б.

uzviy ravishda shakllanib, rivojlanadi, rahbarning mazkur tarkibiy qismlari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik faoliyatda qo'llaniladi⁷.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti - murakkab tarmoq bo'lib, direktorining undagi roli, faoliyati ko'p qirralidir. Direktor - maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkilotchi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan.

Direktor davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbaridir. Direktor davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiradi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining huquq va majburiyatlari normativ-huquqiy hujjatlar, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ustavi, shuningdek mehnat shartnomasi bilan belgilanadi⁸.

U maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur lozim-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi, direktor o'z ishida davlatimiz va Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, tamoyillilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik - bu direktorga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining malak tavsiflariga asosan direktor quyidagi lavozii vazifalarini bajarishi shart:

Maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish;

⁷ Пулатов Ш. Таълим муассасаларини илмий-методик бошқариш технологияси. Ўқув қўлланма. Т.: «ТАФАККУР», 2012, - 8 б.

⁸ Ўзбекистон Республикасининг «Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида»ги ЎРҚ-595-сонли Қонуни. 2019 й. 16 декабрь. -51-модда.

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda uning hududiy boshqaruv organlari, bo'ysunuviga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyatlar, tuman (shahar) hokimlarining qarorlari va boshqa hujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini to'liq bajarilishini ta'minlash;

- tashkilotning Nizom (Ustav)ga muvofiq faoliyatini tashkil etish;
- tashkilot joylashgan hududda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, tashkilotning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish;
- tashkilotni yuqori kompetentlik, mahoratli va malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash;
- bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish;
- maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ-hujjatlarni amaliyotga to'laqonli tatbiq etish;
- tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limining Kengashi, ishlab chiqarish yig'ilishlarida, mahalliy davlat hokimiyat organlari yig'ilishlarida ishtirok etish hamda ularga tashkilot faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha hujjatlarni tayyorlash va tizimni rivojlantirish yuzasidan takliflar kiritish;
- tashkilot faoliyatini rejalashtirish, yillik va istiqbol ish rejalarini ishlab chiqish;
- tashkilotning ish rejalari, o'quv-mavzu rejalari, yillik taqvim o'quv dasturlarini tasdiqlash;
- tashkilot pedagog va mutaxassislarining ish rejalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, ularni to'laqonli va sifatli ijro etilishi ustidan nazorat olib borish;
- tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istiqbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha

buyruqlar qabul qilish, ularni tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limining ish rejasi bilan muvofiqlashtirish;

- vakolati doirasida xodimlarni ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish va mehnat munosabatlari yuzasidan tegishli buyruqlarni chiqarish;

- hududda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida mahalla fuqarolar yig'inlari, huquqni muhofaza qiluvchi va jamoat tashkilotlari hamda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'rnatilgan tartibda o'zaro hamkorliklarni yo'lga qo'yish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovini oshirish, ayniqsa 6 yoshli bolalarni to'liq qamrab olish orqali boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash choralari ko'rish;

- ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarini joriy etish; tashkilotning tarbiyalanuvchilari, pedagoglari va ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'risidagi axborotlarni o'z vaqtida muntazam ravishda axborot tizimi (EMIS)ga kiritib borish;

- tashkilotga bolalarni qabul qilish, qabul qilingan bolalar yoshi va kontingentidan kelib chiqib, har yilning avgust oyida buyruq asosida yosh guruhlarni shakllantirish;

- tashkilotda dam olish kunlari va ish kuni yakunlangandan keyin bolani parvarishlash, unga qarab turish, uni o'qitish bo'yicha qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish ishlarini tashkil etish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalarini kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratish;

- tashkilot pedagogik kengashi va umumiy ishlab chiqarish yig'ilishlariga raislik qilish;

- tashkilot "Kuzatuv kengashi"ning dastlabki yig'ilishini tashkil etish;

- "Kuzatuv kengashi"ga tashkilot faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-ho'jalik holati, daromadlar va harajatlar, byudjet va byudjetdan tashqari hamda homiylik mablag'laridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

hisobot berib borish;

- tashkilotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag' hisobini qilish va yillik harajatlarni smetasini tuzilishida tuman (shahar) bo'limiga taklif kiritish;

- tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarning to'laqonli bajarilishida pedagog va xodimlarning mas'uliyati va javobgarligini oshirish;

- tashkilotda ochiq mashg'ulotlar, seminarlar, ko'rik-tanlov, musobaqalar o'tkazishga rahbarlik qilish;

- tashkilotda huquqbuzarlik, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, giyohvandlik va boshqa zararli odatlardan saqlanish, uning oldini olish choralarini ko'rish bo'yicha ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

- tashkilot xodimlari o'rtasidagi vazifalar taqsimotini belgilash, zaruriyatga qarab tegishli o'zgartirishlar kiritish, ish taqsimoti asosida xodimlarning huquq va majburiyatlarini belgilash;

- tashkilot faoliyatiga tegishli barcha axborotlarni tahlil qilish, hisobotlar tayyorlash va ijro intizomini doimiy nazorat qilish;

- ish yuritish va hujjatlar aylanish tizimi asosida tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan berilgan hujjatlar va topshiriqlarning o'z vaqtida ijro etilishini, hujjatlar aylanishi, tahlil va nazorat qilishning yagona tizimini amalga oshirilishini ta'minlash;

- tashkilotda pedagog va mutaxassislarining o'z xizmat vazifalarining sifatli bajarishlarida tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatish, xodimlarga zarur ish sharoitlarini yaratish choralarini ko'rish hamda mehnat intizomini ta'minlash;

- tashkilotda pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar attestatsiyasini hamda ular tomonidan mehnat intizomiga rioya qilinishini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 7-iyundagi 470-son va "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va

maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarorlari asosida nazorat qilish;

- tashkilot xodimlari orasidagi eng faollarini rag'batlantirish, lozim vazifalarini bajarmaganligi uchun ularga nisbatan o'z vakolatli doirasida intizomiy jazo choralarini qo'llash masalalarini ko'rib chiqish, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish;

- tashkilotdagi ilg'or tajribali pedagog kadrlar nomzodini Davlat va tarmoq mukofotlari bilan taqdirlashida tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limiga taklif kiritish;

- tashkilot faoliyatining moliyaviy-xo'jalik masalalarini hal qilish, budjet va budjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi, undan samarali foydalanishini amalga oshirish, tashkilotni rivojlantirish uchun byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag' topish va moddiy resurslar bilan ta'minlash choralarini ko'rish, tashkilotning investitsion jozibadorligini ta'minlash, shuningdek, ta'limiy maqsadlarga erishish uchun moliyaviy, moddiy resurslarning samarali taqsimotini va xodimlarning safarbarligini ta'minlash hamda qabul qilingan qarorlarning oqibatlari, moliyaviy-xo'jalik natijalariga shaxsan javob berish;

- tashkilotning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan o'quv-didaktik, ko'rgazmali materiallar, sport jihozlari, o'yin, o'yinchoqlar va musiqa asboblari bilan jihozlashga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limiga takliflarkiritish;

- tashkilotda sog'lom va xavfsiz ratsional ovqatlantirish ishlarini tashkil etish hamdasanitariya qoidalariga mos ravishda ovqatlantirishni tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat sanitariya vrachining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar" sanqvan № 0016-21-son qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 26 iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 30) asosidatashkilotda sog'lom va xavfsiz ratsional ovqatlantirish ishlarini tashkil etish hamda sanitariya qoidalariga mos

ravishda ovqatlantirishni tashkil etish;

- tashkilot brakeraj komissiyasi faoliyatini nazorat qilish;
- tashkilot faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq murojaatlar bo'yicha fuqarolarni qabul qilish, tashkilotga kelib tushgan xat, ariza va shikoyatlar hamda murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish va ijrosini to'liq ta'minlash;
- tashkilotda sifatli tibbiy xizmatni tashkil etish va hududiy sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda ishlash;

- maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish,

tashkilot faoliyatini rivojlantirish yuzasidan ota-onalar fikrini o'rganish;

- tashkilotda kasbiy odob-ahloq qoidalari, ichki mehnat tartibi qoidalari hamda jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni ta'minlash, sog'lom raqobatli muhitni yaratish;

- yagona milliy mehnat tizimi (my.mehnat.uz) saytida pedagog va mutaxassis xodimlarning ma'lumotlar bazasini yangilab borish;

- har oy yakuni bo'yicha bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni (mehnat.uz) saytiga joylab borish;
- pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, malaka va kompetensiyalarga ega xodimlarni tanlash, kadrlar zaxirasini shakllantirish, pedagog xodimlar attestatsiyasini tashkil qilish, mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilinishini ta'minlash;
- korxonalar va tashkilotlar bilan xo'jalik shartnomalari tuzishda tashkilot nomidan faoliyat yuritish, uning manfaatlarini himoya qilish, ishonchnomalar berish, Kuzatuv va pedagogik kengash hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda tashkilotni rivojlantirish bo'yicha strategik rejaralarini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish, tashkilotning vazifa va maqsadlarini shakllantirish ishlarini tashkil etish;
- tashkilotda sog'lom ma'naviy-ruhiy, xavfsiz va rag'batlantiruvchi muhitni yaratish, tashkilot Kuzatuv kengashi faoliyatida obyektiv, oshkorlik va

shaffoflikni ta'minlash uchun sharoit yaratib borish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari quyidagilarni bilishi lozim:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ta'limga oid qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining ta'limga oid qarorlari va farmoyishlari, Maktabgacha ta'lim vazirining buyruqlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari qarorlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" 2019 yil 16 dekabrda O'RQ- 595-son va "Ta'lim to'g'risida"gi 2020 yil 23 sentabrda O'RQ-637-son qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ta'limga oid qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22- dekabrda 802-son qarori va ta'limga oid boshqa qarorlari va farmoyishlari, Maktabgacha ta'lim vazirining buyruqlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari qarorlarini;
- ta'lim-tarbiya reja va o'quv dasturlarining mazmunini;
- maktabgacha ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlariga qo'yiladigan malaka talablarini;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olishi hamda ularni joriy etish usullarini;
- maktabgacha ta'lim pedagogikasi, psixologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasini;
- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda va variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etish va uzluksiz takomillashtirib borish yo'llarini;
- attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, attestatsiya o'tkazish tartibiga mezonlarini;

– attestatsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarorlari asosida attestatsiya o‘tkazish tartibi va mezonlarini;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy. reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 28-martdagi 244-son va “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 5-martdagi 122-son qarorlari talablari asosida bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning belgilangan tartibini amalga oshirish;

– kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalarini.

Malaka talablari:

– kamida bakalavr darajasidagi maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi oliy pedagogik ma‘lumot (nomutaxassis va nopedagog oliy ma‘lumotli kadrlar maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi kasbiy qayta tayyorlash kursini tamomlagan bo‘lishi lozim);

– xorijiy tillardan birining boshlang‘ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi kerak;

– uch yildan kam bo‘lmagan pedagogik ish staji;

– ta’lim sohasida ishlagan, zamonaviy bilim va ma‘naviy-ahloqiy fazilatlariga ega mustaqil fikrlaydigan hamda menejerlik qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi.

– Ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo‘lgan, hududiy maktabgacha ta’lim bo‘linmalarida ikki yildan ortiq faoliyat ko‘rsatgan, Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar, Toshkent shahridagi Puchon hamda «A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti» Federal davlat byudjeti oliy ta’lim muassasasi filiali

bitiruvchilari, yoki nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 1000 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini (bakalavriat, magistratura) tamomlagan yoki ularda ilmiy daraja (PhD va unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja) olgan yosh mutaxassislardan pedagogik ish staji talabetilmaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunining 44-moddasiga muvofiq Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirishga quyidagi cheklolvar belgilab berilgan.

Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar, shuningdek qasddan jinoyatlar sodir etganligi uchun ilgari hukm qilingan shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Ilgari o'zining aybli harakatlari sababli mehnat shartnomasi tugatilgan shaxslar, shuningdek qo'llanilgan jazo chorasidan, sudlanganligi holati tugatilganligidan yoki olib tashlanganligidan hamda o'ziga nisbatan amnistiya yoki afv etish akti qo'llanilganligidan qat'i nazar, qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun ilgari hukm qilingan shaxslar, jinoyat ishlari aybdorligi to'g'risidagi masala hal etilmagan holda tugatilgan jinoyatlar sodir etgan shaxslar maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi organlari va tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.

Nazorat savollari:

1. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori bilan shartnoma qancha muddatga tuziladi?
2. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari qaysi tashkilot tomonidan belgilanadi?
3. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori lavozimining malaka tavsiflarida nimalar ko'rsatilgan?
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotida Kuzatuv kengashi faoliyati qanday yo'lga qo'yiladi?
6. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari boshqaruv va pedagogik faoliyatiga tegishli qanday bilimlarni o'zlashtirishi shart va zarur?
7. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari qanday axloqiy sifatlarga ega bo'lishi kerak?
8. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining moliyaviy-xo'jalik ishlarini boshqarishga doir vazifalari nimalardan iborat?
9. Direktorning ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga rahbarligi mazmuni nimalardan iborat?
10. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining jamoatchilik bilan hamkorligi qaysi masallarni o'z ichiga oladi?

6-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI USLUBCHISINING METODIK ISHLARGA RAHBARLIGI

REJA:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining metodik ishlarga rahbarligi.
2. Maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablarini sifatli va mazmunli bajarilishini ta'minlash.
3. Tarbiyachi-pedagoglarga metodik xizmat ko'rsatishni yaxshilash.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli bo'lishiga erishish.
5. Ilg'or tajribalarni ommalashtirish.

Tayanch tushunchalar: tarbiyachi-uslubchi; liderlik; metodik kabinet; metodik ishlar: lavozim vazifalari; malaka tavsifi; metodik rahbarlik; liderlik.

Metodist (uslubchi) maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorning yordamchisidir. U direktor bilan uzviy aloqada va uning rahbarligi ostida ishlaydi.

Ular tarbiyalanuvchilarning hayoti va sog'lig'iga, barcha yosh guruhlaridagi bolalarning va alohida har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun teng darajada javobgardirlar. Uslubchining faoliyati ko'p qirralidir. Bu faoliyatning asosiy tomoni metodik ishni uyushtirish va unga rahbarlik qilishdir.⁹

Uslubchi:

- maktabgacha ta'lim tashkiloti dagi ta'lim-tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;
- "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini bajarilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi, ta'lim-tarbiyaviy ishning to'g'ri uyushtirilishi uchun javobgar;
- ilg'or pedagogik tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, pedagogik Kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotidagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi;
- bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi;
- ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish, turli yosh guruhlari tarbiyachilari, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ishida ketma-ketlilikni ta'minlash bo'yicha ishni uyushtiradi.

Katta tarbiyachi oliy pedagogik ma'lumotga (maktabgacha ta'lim yo'nalishi) yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan kamida 3 yil pedagogik ish stajiga ega bo'lgan eng yaxshi tajribali tarbiyachilardan tayinlanadi. Katta tarbiyachi faqat nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi zarur. Bunday ko'nikmasiz butun ish qat'iy ilmiy asosga qurilgan.

Bola psixologiyasini chuqur bilishni nazarda tutadigan zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti da ishlab bo'lmaydi. U fanning turli sohaları, madaniyat, san'at, etikadan xabardor bo'lishi kerak.

Tajribali katta tarbiyachining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi; g'oyalarni umulashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini hisobga olishga qarab farqlanadi. U pedagoglar bilan maslahatlashadi, jamoatchilik fikri, hamkasblarining tanqidiy mulohazalari va takliflariga xushyorlik bilan quloq soladi, ularning tajriba va bilimlaridan

foydalanadi, tarbiyachi ishidagi muvaffaqiyatni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlaydi, uning yutuqlarini ommalashtiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti jamoani boshqarishda o'zi shaxsiy namuna bo'lishi lozim, ya'ni u barcha ishlarni oldida, boshida bo'lib yetakchilik qiladi. Umuman olganda ko'p adabiyotda «lider» so'zini «yetakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ko'p uchraydi. O'ylashimizcha, «yetakchi» atamasi «lider»ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. «Yetakchi» so'zi guruhga munosabat sifatida, uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchiva maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi.

Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri - shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug'iladi. Biron - bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir.

Muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida aynan shu ikki ibora - «peshqadam» va «yetakchi» so'zlari majmuasi lider mohiyatini to'la ifodalashi mumkin.

Nazarimizda, «yetakchi» so'zi shaxsning guruhni yetaklashga, boshchilik qilishga bo'lgan ishtiyoqi mavjudligidan kelib chiqadi. «Peshqadam» iborasi esa ma'lum fazilatlarga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtiyoriga ko'ra o'zi ishongan odam borayotgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu xolat «lider» iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur. Liderning bu xususiyati uning hissiy jozibadorligida, o'zgalarni o'ziga jalb etish fazilatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, «lider» so'zini faqat «yetakchi» atamasi bilan almashtirish liderlik holatining psixologik talqinini tor doiraga kiritib qo'yadi. Ushbu mulohazadan kelib chiqqan holda qo'llanmamiz matnida «lider» so'zidan foydalanishni ma'qul (lob hisoblaymiz. Bundan tashqari, «lider» so'zidagi izohiy ma'noni anglab olish o'zbek

- tashkilotning yillik va istiqbol ish rejaları loyihalarını ishlab chiqish va tashkilot rahbariyatiga kiritish;
- tashkilot pedagog xodimlarining ish rejaları, o'quv-mavzu rejaları hamda mashg'ulotlarga tayyorgarlik holatlarini ko'rish;
- tashkilotda tarbiyalanuvchilarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini kuzatish, baholashga doir ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish va natijasiga ko'ra aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash;
- ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, bolalarni maktabgacha ta'limga tayyorlashdagi dolzarb masalalarni pedagogik kengashning muhokamasiga kiritish va unda pedagogik kengash a'zolarining faol ishtirokini ta'minlash, kiritilgan masalalarni chuqur o'rganish, natijalari bo'yicha sifatli, tahliliy, tanqidiy ma'lumotlar tayyorlash, qabul qilingan qaror va buyruqlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini tashkil etish hamda ta'minlash;
- tashkilotning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarini tegishliligi bo'yicha sifatli va samarali o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, pedagogik jamoaga ta'limdagi yangiliklarni yetkazish bo'yicha nazariy, amaliy seminar mashg'ulotlarini tashkil etish;
- tashkilotdagi guruh xonalarini bolalar yoshiga mos ravishda jihozlash yuzasidan tegishlimaslahatlar berish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- axborot va pedagogik texnologiyalarni, jumladan masofaviy o'qitish usullarini tashkil etish ishlarini qo'llash va takomillashtirishni ta'minlash;
- tashkilot pedagog xodimlari o'rtasida sog'lom raqobatli muhitni yaratish maqsadida ko'rik-tanlovlar, tadbirlar, sport musobaqalari, o'quv va amaliy seminarlar tashkil etish va o'tkazish;
- tarbiyalanuvchilar va ota-onalarni qiziqishini orttirish uchun turli sport musobaqalari, bayram ertaliklari, ochiq mashg'ulotlar, ko'rik-tanlovlar

o'tkazilishini tashkil etish;

– tashkilot xodimlariga vakolati doirasida topshiriqlar berish va ularning bajarilishini nazorat qilish, xodimlarning kasbiy mahorati va metodik salohiyatini oshirish ishlarini tashkil etish;

– tashkilot pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar attestatsiyasini hamda ular tomonidan mehnat intizomiga rioya qilinishini nazorat qilish, o'z vakolati doirasida eng faollarini rag'batlantirish, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda takliflar kiritish;

– tashkilotni o'quv-didaktik, metodik va ko'rgazmali materiallar, o'yin, o'yinchoqlar va musiqa asboblari bilan jihozlashga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va rahbariyatga taklif kiritish;

– tashkilotda ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomasi, sanitariya qoidalari va gigiyena normalariga, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash.

– pedagog xodimlarga metodik yordam berish, pedagogik faoliyatni tahlil qilish.

– pedagog xodimlarning tasdiqlangan ish rejalarida belgilangan vazifalar bajarilishini nazorat qilish.

– tashkilotda to'garaklar faoliyatini yuritishni ta'minlash.

– tashkilotning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini muvofiqlashtirish va yo'naltirish.

– direktor yo'qligida uning lavozim vazifasini bajarish.

– tashkilotda huquqbuzarlik, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, giyohvandlik va boshqa zararli odatlardan saqlanish, uning oldini olish choralarini ko'rish bo'yicha ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining metodisti quyidagilarni bilishi lozim:

– maktabgacha ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyatini;

– maktabgacha ta'limning davlat ta'lim talablari, ta'lim-tarbiya reja va o'quv

dasturlarining mazmunini;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son va “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 22- dekabrda 802-son qarorlari talablari asosida maktabgacha ta’limning davlat ta’lim talablari, ta’lim-tarbiya reja va o‘quv dasturlarining mazmunini;

- zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalana olishni;
- maktabgacha ta’lim pedagogikasi, psixologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasini;
- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etish va uzluksiz takomillashtirib borish yo‘llarini;
- jamoa shartnomasida belgilangan talablarga qat’iy rioya etish hamda jamoada sog‘lom raqobatli ma’naviy-muhitni shakllantirish, ahillik va inoqlikni mustahkamlash orqali faoliyat yuritishni;
- O‘zbekiston Respublikasining sanitariya-gigiyena talablariga, mehnat qonunchiligi asoslariga, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida katta tarbiyachi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.
2. Pedagogik hujjatlarni yuritish.
3. Yosh tarbiyachilarga metodik yordam ko‘rsatish.
4. Ta’lim-tarbiya ishini uyushtirish va uni nazorat qilish.
5. Bolalar hayotini tashkil qilish va ularni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llanilishini ta’minlash.
6. O‘quv faoliyatini kuzatish va tahlil qilish.

7. Pedagogik Kengash, seminar va konsultatsiyalarni tashkil etish.
8. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirish.
9. Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yish.
10. Metodik kabinetni jihozlash va uning faoliyatini yo'lga qo'yish.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 30 avgustdagi 155-sonli "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi bo'yrug'ining 1-ilovasining "04 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti" qismida maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining ish hujjatlari ro'yxati berilgan.

04-01. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-MH-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 3 iyul 2018 yilda 3032-son bilan ro'yxatdan o'tgan) "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari".

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.

04-02 Metodistning shaxsiy ish rejasi (Ish jumali) ga quyidagi bo'limlar kiritilgan:

1. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan qaydnomalar.
2. Pedagoglarning metodik ishlardagi ishtiroki haqida ma'lumot.
3. Maslahat soatlarini rejalashtirish qaydnomalari.
4. Ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish qaydnomalari.
5. Metodistning oylik ish rejasi.
6. Keyingi o'quv yili rejasi uchun g'oya va takliflar banki.

Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish

Bu bo'limda tashkilotda faoliyat yuritayotgan barcha pedagog xodimlarning ish salohiyatlarini aniqlash maqsadida attestatsiyadan o'tish vaqtlari, attestatsiya uchun taqdim etiladigan ishlar mazmuni bilan tanishish, belgilab olish hamda attestatsiya natijalari haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Pedagoglarning metodik ishlardagi ishtiroki haqida ma'lumot

Bu jadvalda pedagog xodimlarning faoliyatlarini yanada yaxshilash, samaradorligini ta'minlash, yangiliklarga intilish va innovatsiyalarni ish faoliyatlariga tatbiq etish maqsadida olib boriladigan ishlar rejalashtiriladi, tahlili yuritiladi hamda shunga munosib tarzda xodimlarni rag'batlantirish choralari belgilab olinadi. Masalan: xodimning o'quv yili davomida tashkil etgan ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlari hamda pedagogik kengashdagi chiqishlari, amaliy va nazariy seminarlar, konferensiyalardagi ishtiroklari rejalashtiriladi.

Maslahatlarni qayd etish daftari

Maslahatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun oyda 2 marta o'tkaziladi va quyidagi tartibda yuritiladi.

Namuna

T.r	O'tkazilgan vaqti	Maslahat mavzusi	Maslahatning qisqacha mazmuni va amalga oshirish bo'yicha vazifalar	Maslahat oluvchi shaxsning familiyasi, ismi, sharifi va imzosi
1				
2				
3				

Ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni kuzatish

Ushbu bo'limda muassasada bolalarning kun davomidagi barcha faoliyat turlari (ertalabki qabul, ertalabki soat, markazlardagi talimiy va mustaqil jarayonlar, sayrlar, ovqatlantirish, uyqu va kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladigan faoliyatlar)ni kuzatish tahlili olib boriladi. Bunda, kuzatuv oldindan belgilangan aniq maqsad asosida olib boriladi hamda metodist tomonidan beriladigan xulosa va tavsiyalar tarbiyachiga tanishtirilib, tarbiyachining tanishganligi haqidagi imzosi bilan yakunlanadi.

Namuna

Metodist tomonidan 20__ yil _____ oyi
uchun ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik jarayonlarni
kuzatish daftari

Sana	Yosh guruhi	Pedagogning familiyasi,	Kuzatuv maqsadi	Rivojlantiruvchi muhitni	Xulosa va
------	-------------	-------------------------	-----------------	--------------------------	-----------

		ismi		yaratilganligi	tavsiyalar

Tajribali uslubchining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi; g'oyalarni umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini hisobga olishga qarab farqlanadi. U pedagoglar bilan maslahatlashadi, jamoatchilik fikri, hamkasblarning tanqidiy mulohazalari va takliflariga xushyorlik bilan quloq soladi, ularning tajribasi va bilimlaridan foydalanadi, tarbiyachi ishidagi muvaffaqiyatni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlaydi, uning yutuqlarini ommalashtiradi.

Maqto'v va ma'qullash pedagoglarning o'z tajribalari, fikr va hissiyotlarini hamkasblari bilan o'rtoqlashish ishtiyoqini tug'diradi. Uslubchi talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lishi kerak. Rahbarning o'ziga bo'ysunuvchilar bilan muloqotining emotsional-irodaviy tomonini ifodalovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislati – talabchanlikni hosil qiladi.

Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrixohlik, odamlarga hurmat bilan olib borish zarur. Talabchanlik – bu qattiqqo'llik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbehlar, xayfsanlarning foydasidan ko'ra zarari ko'proq va bu odatda rahbarning kuchlilikidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi.

Uslubchining muhim sifatlaridan biri tadbirkorlikni har xil tipdagi kishilarga ularning bilimlari, madaniyati, tarbiyalanganlik darajalarini, temperament va xarakterlarini hisobga olib yondasha bilishidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining qandayligini uning tarbiyachilari jamoasi ko'rsatib turadi. Jamoani shakllantiradigan, uni jipslashtiradigan, ishga layoqatli kuchga aylantiradigan Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori va uslubchisidir.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Uslubchining lavozim vazifalari qaysi me'yoriy hujjatda ko'rsatilgan?
3. Uslubchining malaka talablarida nimalar aks ettirilgan?
4. Uslubchi qanday hujjatlarni yuritishi zarur?
5. Metodik birlashma faoliyati qanday tashkil etiladi?
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonlarni to'g'ri rejalashtirishda uslubchining o'rni qanday?
7. Uslubchining «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi bo'yicha tarbiyachilar bilan olib boradigan ishlari nimalardan iborat?
8. Pedagogik Kengashni rejalashtirish va tashkil etishda uslubchining roli qanday?
9. Uslubchiga qo'yilgan kasbiy talablarni izohlang.

7-MAVZU: PEDAGOGIK KENGASH SHAKLLARI

REJA:

1. Pedagogik kengash va uning vazifalari.
2. Pedagogik kengashning majburiyatlari va haq-huquqlari.
3. Pedagogik kengash mas'uliyati.
4. Pedagogik kengashni o'tkazish shakllari.

Tayanch so'z va iboralar: pedagogik kengash; kengashning maqsadi; vazifalari; kengash a'zolari; kengash ish tartibi; kengash ish rejasi; kengashni o'tkazish qoidalari; rasmiylashtirish; bayonnoma; hisobot. pedagogik kengash raisi; ish rejasi; ijodiy muhit; pedagogik jarayonni kuzatish; qaror qabul qilish; pedagogik kengashga tayyorlanish; maxsus stendlar; reglament; bayonnoma.

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunida pedagogik kengash, kuzatuv kengashi va davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishni amalga oshirishi ko'zda tutilgan.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi pedagog xodimlardan iborat bo'lgan, uning pedagogik faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishga doir vakolatlarni amalga oshiradigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining kollegial boshqaruv organidir¹⁰.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik kengashning asosiy maqsadi: maktabgacha ta'lim tizimidagi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, farmoyishlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi hukumat qaror va farmoyishlarini Maktabgacha ta'lim vazirligi Hay'at qarorlari, buyruqlarini ijrosini ta'minlash; ularni davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga tadbiiq etishga qaratilgan «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi asosida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun yaratilgan o'quv-metodik majmualardan oqilona foydalanish; «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini amaliyotga tadbiiq etishda faollik markazlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tarbiyachilarning kompetensiyaviy yondashuvini takomillashtirish; innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish; davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlash; tashkilot faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish; pedagoglarning kasb mahorati va ijodkorligini rivojlantirish; milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiradigan va bolalalikdan kitob o'qishga qiziqishni singdiradigan o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlardan keng foydalanish; ilg'or xorijiy tajribalar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish bo'yicha ish tajribalarini, milliy an'ana va urf-odatlarni tarbiyalanuvchilarga etkazish shakllarini ommalashtirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan Davlat talablari» asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga, pedagogik jamoa, ota-onalar va homiylarni

¹⁰ Ўзбекистон Республикасининг «Мақтабгача таълим ва тарбия тўғрисида»ги ЎРҚ-595-сонли Қонуни. 2019 йил 16 декабр. -49-модда.

birlashtirib, tashkilot faoliyati bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan kollegial organ hisoblanadi.

Pedagogik kengash o'z faoliyatini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30-sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 3305-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30-sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-3955-sonli qarori, Maktabgacha ta'lim vazirligining qaror va buyruqlari, tashkilot Ustavi hamda "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik Kengashi to'g'risida"gi Namunaviy Nizom¹¹ga amal qiladi.

Pedagogik kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ↓ davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;
- ↓ davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodilarning ish tartibini tasdiqlaydi;
- ↓ davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;
- ↓ davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning qonuniy vakillari bilan o'zaro munosabatlari tartibini belgilaydi;
- ↓ davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayonida ilm-fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarni muhokama qiladi;
- ↓ Davlat mukofotlari uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining xodimlari nomzodini tavsiya etadi;
- ↓ davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining va pedagog xodimlarining hisobotlarini eshitadi;

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021 yil 12 iyulda «Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi 128-sonli buyrug'iga 1-ilova.

- ✚ ta'lim tashkiloti pedagogik jamoa faoliyatini yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari»ning bajarilishini ta'minlaydi;
- ✚ ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga doir qarorlar qabul qiladi;
- ✚ pedagog xodimlarning nufuzi va metodik salohiyatini oshirish, ularning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha maqsadli ishlarni tashkil etadi;
- ✚ pedagogik jamoani ma'lum yo'nalishdagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa beradi;
- ✚ ilg'or pedagoglarning ish tajribalarini o'rganish, ommalashtirish, yosh pedagoglarga metodik yordam ko'rsatish ishlarini amalga oshirish yo'llarini belgilaydi;
- ✚ «Ustoz-shogird» an'analari, uzluksiz malaka oshirish borasida amalga oshirilgan ishlarining bajarilishini nazorat qiladi, hisobotlarni tinglaydi va tahlil qiladi;
- ✚ tarbiyalanuvchilarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantiradi, bola shaxsini rivojlantirishda ta'lim jarayoniga ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etadi;
- ✚ tarbiyalanuvchilarni milliy urf-odat va an'analimizga zid bo'lgan tashqi hoyaviy hurujlardan himoya qilish choralarini ko'radi;
- ✚ maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim-tarbiyaviy jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etadi;
- ✚ bolalarni boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash bo'yicha hamkorlik ishlarini takomillashtiradi;
- ✚ ilg'or xorijiy tajribalar va milliy qadriyatlari uyg'unlashtirilgan pedagogik jarayonlarni rag'batlantiradi;

↙ davlat davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining variativ va ishchi dasturlarini tasdiqlaydi;

↘ davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, pedagogik kengash o'z huquqlari va majburiyatlariga ham ega.

Pedagogik kengashning:

Huquqlari

- pedagogik kengash davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini yo'naltirishning istiqbolli rejasini belgilaydi;
- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarining bajarilish yo'llarini belgilab beradi va ijrosini ta'minlaydi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda turli shakl va metodlarni ishlab chiqadi;
- o'z vakolati doirasida ishlab chiqilgan hujjatlarni muhokama qiladi va tegishli qarorlar qabul qiladi;
- davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti Ustaviga muvofiq pedagog xodimlarni jazolash bo'yicha masalalarni hal qiladi;
- yil davomida amalga oshirilgan ishlar, hamda tashkilotning yillik ish rejasining bajarilishi yuzasidan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining hisobotini eshitadi.

Majburiyatlari

- pedagogik kengash qarorini bajarish davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining har bir xodimi uchun majburiydir;
- pedagogik kengashning qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin;
- pedagogik kengashdan o'z faoliyati jarayonidan siyosif maqsadlarda yoki qonun hujjatlariga zid bo'lgan harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqilnadi;
- pedagogik kengash Nizomida belgilangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun javo beradi.

Direktor maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengash raisi hisoblanadi va Kengash faoliyatini boshqaradi. Pedagogik kengash kotibi jamoa tomonidan birinchi pedagogik kengashda bir yil muddatga saylanadi.

Pedagogik kengash yig'ilishlari o'quv yilining boshida boshlanadi va har chorakda bir marta o'tkaziladi. Zaruriyat bo'lganda navbatdan tashqari pedagogik kengash o'tkazilishi mumkin. Kengash yig'ilishida kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashishlari zarur.

Kengashda qaror qabul qilish tartibiga ko'ra, ochiq ovoz berish yo'li bilan qatnashchilarning uchdan ikki qismi yoqlab ovoz bersa qaror qabul qilinadi, agar ovozlari teng bo'lib qolsa, kengash raisi (direktor)ning qarori hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Pedagogik kengash tarkibi 5 kishidan kam bo'lmagan (toq sonda) holatda tashkil etiladi, ya'ni kengash raisi, kotibi va 3 nafar a'zodan iborat bo'ladi. Kengash tarkibiga shifokor, hamshira, ota-onalar (kuzatuv kengashi) qo'mitasi raisi, mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari ham kirishi mumkin, biroq ular kuzatuvchi sifatida ishtirok etadilar, shuning uchun ular ovoz berish vakolatiga ega bo'lmaydilar.

Navbatdagi kengashning o'tkazish vaqti, joyi va kun tartibi bir oy oldin e'lon qilinadi va kengashning e'lonlar taxtasiga joylashtiriladi.

Kengash kun tartibidagi muhokama etiladigan masalalarga doir materiallar doimiy hamda vaqtinchalik tashkil topgan guruhlar yoki tashkilot ma'muriyati tayinlagan pedagoglar tomonidan tayyorlanadi.

Kengashda tashkilotning ish rejasi, malaka oshirish rejasining bajarilishi, nazorat turlari bo'yicha o'rganish xulosalari, xodimlarning hisobotlari va tarbiyachilarning rivojlanish xaritalari yuzasidan hisobotlari, tashkilotning sanitar-gigienik ahvoli va tarbiyalanuvchilarning sog'lig'i va tashkilot faoliyatining boshqa masalalari ko'rib chiqiladi.

Kengash pedagoglarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish. YOsh pedagoglarga yordam uyushtirish ishlarini amalga oshirish yo'llarini belgilaydi. Kengashda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, tarbiya jarayonining shakli va metodlarini amalga oshirish yo'llari muhokama qilinadi, tarbiyalashning ilg'or usullarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish, oliy ta'lim muassasalari, jamoat va nodavlat tashkilotlarini, maktab, mahalla, oila bilan hamkorlik qilish bo'yicha yo'nalishlarni belgilaydi.

Kengashda kun tartibidagi masalalarni ko'rishdan oldin avvalgi kengashda qabul qilingan qarorlarning ijrosi haqidagi masala eshitaladi, uning ijrosi ta'minlangan har bir masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar nazoratdan olinadi. Kengash kun tartibida ko'rilayotgan har bir masala aniq ifodalangan bo'lishi, masalalar o'quv

yilining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda kiritilishi lozim. Kengashda ko'riladigan masalalar soni uchtadan oshmasligi zarur. Kengash qarori ijrosini nazorat qilish davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari zimmasiga yuklatiladi.

Pedagogik kengashda ko'rilgan masalalar bayonnomada o'z aksini topishi lozim. Kengash bayonnomasi yoziladigan daftarning kirish qismida kengash o'tkaziladigan sana, bayonnoma tartib raqami, qatnashadigan pedagoglar soni, kengash raisi va kotibining ismi, sharifi yoziladi, agar kengash a'zolari orasida qatnashmayotganlar bo'lsa, uning sababi ko'rsatilgan holda familiyalar tartib bo'yicha yoziladi.

Bayonnomalar daftarida Pedagogik kengash kun tartibiga kiritilgan masala muhokamasi, kengash a'zo'lari kiritgan taklif va mulohazalar hamda kun tartibidagi har bir masala yuzasidan qabul qilingan alohida qarorlar qayd etib boriladi. Kun tartibida «Turli masalalar» yoki «Boshqa masalalar»ning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bayonnomalarda aniqlangan va yo'l qo'yilgan xatoliklar izohlanadi va kengash raisining imzosi bilan tasdiqlanadi. Kengash kotibi bayonnomalarni aniq, tushunali va ravon xusnixat asosida yozishi, daftarning har bir sahifasi raqamlanishi va tikilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Bayonnomalar daftari tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'lim mudiri tomonidan, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti muassisi tomonidan imzolanadi va tasdiqlanadi. Har bir yozilgan pedagogik kengash bayonnomasi Pedagogik kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanadi va muhrlanadi. Pedagogik kengash bayonnomasi har o'quv yili boshida yangidan raqamlanishi zarur.

Pedagogik kengash hujjatlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish yuritish hujjatlari bilan birga doimiy saqlanadi. Pedagogik kengash hujjatlari quyidagilar iborat:

- bayonnoma;

- pedagogik kengash kun tartibida muhokama qilingan masalalarga oid hujjatlar (tahliliy ma'lumotnoma, qaror loyihasi va boshqalar).

Pedagogik kengash – bu metodik ishning doimiy faoliyat ko'rsatadigan jamoatchilik shaklidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi pedagogik kengashlar malaka oshirishning o'ziga xos maktabi hisoblanadi, tarbiyachilarning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishda asosiy rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengashlarda:

1. Pedagogik kengash Vazirlar Mahkamasi, Maktabgacha ta'lim vazirligining maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, instruksiya, nizom, yo'riqnoma va boshqa hujjatlari muhokama qilinadi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasini; bolalar sog'ligini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhlari bo'yicha "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi talablarining sifatli bajarilish jarayonini; tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning dolzarb masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayyorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotdagi ta'lim-tarbiya ishlarining ahvoli, dasturning bajarilishi, bolalar sog'lig'ining ahvoli, ularning maktabda o'qishga tayyorgarliklari tahlil qilinadi, yalpi (frontal) va tematik tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, Davlat talablari va "Ilk qadam" o'quv dasturlarining bajarilishi haqidagi tarbiyachilarning hisobotlari muhokama qilinadi.

Barcha tarbiyachilar faoliyatining hamma turlari bo'yicha bir yillik, yarim yillik, hisobotlarini birvarakayiga emas, balki bir necha tarbiyachining qisqa muddatli (masalan, bir chorak) va birorta bo'limni (tasviriy faoliyat, nutq o'stirish, tabiat bilan tanishtirish...) o'z ichiga oluvchi hisobotni tayyorlagan ma'qul.

Chunki bu tarbiyachilarga bo'limlarning turi bzyicha bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish yuzasidan dasturning bajarilishini chuqurroq tahlil qilish, bolalar bilan ishlashning turli metod va usullarini baholash, ishdagi nuqson va kamchiliklarning sabablarini aniqlash va tarbiya jarayonini yaxshilashning konkret tadbirlarini belgilash imkonini beradi.

4. Boshqa maktabgacha ta'lim tashkiloti larning (respublika, viloyat, tuman

hududidagi) pedagogik o'qishlardagi ilg'or ish tajribalari tahlil qilinadi, mazur muassasadagi ish sharoitlarini hisobga olib, ulami amalga tatbiq etish yo'llari belgilanadi.

5. Mustaqil o'qishlar bo'yicha hisobotlar tinglanadi. Shuningdek, tarbiychilar malaka oshirish kurslarida, metodik birlashmalar yig'ilishlarida qanday yangi va qiziqarli narsalarni bilib olganliklarini, bu ularga bolalar bilan bo'layotgan amaliy ishlarni takomillashtirishga qanday yordam berayotganligini gapirib beradilar.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan "Maktabgacha ta'lim muassasasining pedagogik kengashi to'g'risida"gi Nizomi qabul qilingan. Nizom quyidagi bo'limlardan iborat:

- I. Umumiy qoidalar.
- II. Pedagogik kengashning asosiy vazifalari.
- III. Pedagogik kengashning ish mazmuni.
- IV. Hujjatlashtirish va hisobot.

Umumiy qoidalarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kollegial organ hisoblangan pedagogik Kengashlar tashkil etilib, u pedagogik xodimlar, ota-onalar, homiylarni birlashtirib, maktabgacha ta'lim Davlat talablari asosida muvofiqlashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi;

pedagogik Kengash maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi asosiy masalalarni hal etuvchi doimiy faoliyat ko'rsatadigan organ hisoblanishi;

Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengashning asosiy vazifalari Nizomningda belgilab berilgan bo'lib, unda:

- tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni ta'minlashda pedagogik jamoaning birlashuvini kuchaytirish, Davlat talablarining bajarilishini ta'minlash, tarbiyalanuvchilarga bilim berish sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash;

- ta'lim jarayoniga bilim berishning ilg'or shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni va texnik-axborot qo'llanmalarni joriy qilish;

- tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan

ma'naviy-axloqiy hislarni singdirish, bola shaxsini shakllantirish, uning Vatanga bo'lgan muhabbatini o'stirish;

- uzluksiz ravishda pedagogik kadrlarning nufuzini, mas'uliyatini va
- kasbiy mahoratini, ilmiy-metodik salohiyatini oshirish va ularning tashabbuskorligini rivojlantirish bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan ishlarni tashkil etish;
- bolalarni samarali ta'lim-tarbiya olishida psixologik-pedagogik

yordamni ko'rsatish bo'yicha masalalarni ko'rib chiqish kabilar asosiy vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Pedagogik kengashning ish mazuniga doir masalalar bo'limida:

- Pedagogik kengash tarkibiga muassasa direktorsi, metodisti, pedagoglar, muassasa shifokori va tibbiy hamshira, kasaba uyushma raisi, ota-onalar qo'mitasi raisi, vasiylik kengashi raisi, mahalla fuqarolar yig'ini a'zolari kirishi mumkinligi;

- Pedagogik Kengashning raisi muassasa rahbari hisoblanishi;
- Pedagogik Kengash o'z tarkibidan bir o'quv yili muddatiga kotibani saylashi;

- Pedagogik Kengashda muassasaning ish rejasi, tarbiyachilarning metod birlashmalardagi ishlari, malaka oshirish rejasining bajarilishi, nazorat turlari bo'yicha tekshiruv xulosalari, xodimlarning hisobotlari, tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirishi, muassasaning sanitar-gigienik ahvoli va tarbiyalanuvchilarning sog'lig'i va muassasa faoliyatining boshqa masalalari ko'rib chiqilishi;

- Pedagogik Kengashda muassasada qo'shimcha ta'lim xizmatlarini joriy etish, ko'rik-tanlovlar tashkil etish, ota-onalar, mahalla, maktab bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish bo'yicha qarorlar qabul qilishi;

- Pedagogik Kengash xalq ta'limi bo'limi tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida faoliyatini tashkil etadi.

- Pedagogik Kengash yig'ilishi ikki oyda bir marta (o'quv yili davomida 6 marta) o'tkaziladi. Zarur bo'lgan holatlarda, navbatdan tashqari kengashlar o'tkazilishi mumkin.

- Pedagogik Kengash qarori ishtirokchilarining uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, pedagogik kengash raisining qarori hal qiluvchi hisoblanadi.

- Pedagogik Kengashning qarori va tavsiyalarini nazorat qilish muassasa rahbari zimmasiga yuklatiladi.

- Pedagogik Kengash a'zolari yig'ilishda muassasa ishini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega.

- Pedagogik Kengash qarorlarini bajarish uning barcha a'zolari uchun majburiydir. Kengashning kun tartibi va o'tkazish vaqti xodimlarga ikki hafta avval ma'lum qilinadi.

“Hujjatlashtirish va hisobot” deb atalgan bo'limda, unda pedagogik kengash qaroridan norozi bo'lgan kengash a'zosi ushbu qarorni tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi muhokamasiga qo'yishi mumkinligi; pedagogik Kengashning moddiy-texnika ta'minotini muassasa rahbari ta'minlashi; muassasaning pedagogik tarkibi 3 nafardan kam bo'lgan taqdirda, Pedagogik Kengash tashkil etilmasligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, pedagogik Kengashni rasmiylashtirish uchun bayonnomalar kitobi yuritiladi, uni kotiba va rais imzolaydi. Bayonnomalar kitobi davlat MTTlari uchun tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan, nodavlat ta'lim muassasalari uchun ta'sischi tomonidan tikilgan, raqamlangan va muhurlangan bo'lishi shart. Bayonnomalar o'quv yili boshida yangidan raqamlanadi.

Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega:

- Pedagogik Kengash maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini rivojlantirish yo'nalishining istiqbol rejasini belgilaydi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bajarish yo'llarini belgilab beradi va ijrosini ta'minlaydi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda turli shakl va metodlarni ishlab chiqadi;

- o'z vakolati doirasida ishlab chiqilgan hujjatlarni muhokama qiladi va tegishli qaror qabul qiladi;
- pedagoglarning malaka oshirishdan keyingi amalga oshiradigan vazifalari yuzasidan ishlab chiqilgan istiqbol ish rejalarini tasdiqlaydi va ularning ijrosi ta'minlanishini nazorat qiladi;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti nizomiga muvofiq, pedagog xodimlarni rag'batlantirish va jazolash bo'yicha masalalarni hal qiladi.

Pedagogik kengash – jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarini kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengashga quyidagi masalalar:

- bolalar bilan olib boriladigan ishlar samaradorligini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash;
- muassasa amaliyotiga pedagogika fanining yutuqlar va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish;
- tarbiyachilarning pedagoglik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish masalalarini kiritadi.

Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi mavzular doirasining keng bo'lishiga e'tibor qaratishi, dolzarb mavzularni ta'minlay olishi zarur. Faqat shundagina pedagogik kengashda ishchanlik muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi samarali kechadi.

Pedagogik kengash tarkibiga: tarbiyachi-metodist, tarbiyachilar, musiqa rahbari, maktabgacha ta'lim tashkiloti ga xizmat ko'rsatuvchi vrach, katta hamshira, kasaba uyushmasi qo'mitasining raisi, ota-onalar qo'mitasining raisi kiradi.

Pedagogik kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktab o'qituvchilari, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Pedagogik kengashning samaradorligi ko'p jihatdan uning qanday tayyorlanganligiga bog'liq. Pedagogik kengashga tayyorlanish jamoada ijodiy muhit

yaratish, qo'yilgan masalaning har tomonlama muhokama qilinishini ta'minlashga yo'llangan bo'lishi kerak.

Keyingi bo'ladigan pedkengashning mavzusini nazarda tutib, direktor va tarbiyachi-metodist pedagogik jarayonni kuzatish ishlarini olib borishadi. Kuzatishlar natijasining analizi (tahlili) rahbarga jamoa ishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, muhokama etilayotgan masalalarda to'g'ri yo'l topish, qo'yilgan masalani muhokama qilishga barcha qatnashchilarni jalb qilish va to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

Masalan, direktor katta guruhda bo'lar ekan, navbatchilarning yaxshi malakalariga, bolalarning mehnat topshiriqlarini bajarishdagi mustaqilliklariga e'tibor beradi. Xuddi mana shu guruh tarbiyachisiga bunday natijalarga erishishga qanday muvaffaq bo'lganligini pedagogik kengashda gapirib berishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Boshqa tarbiyachining bolalari juda shovqin-suron bilan uzoq kiyinishadi, o'z narsalarini e'tiborsizlik bilan taxlashadi.

Direktor unga o'z ishini tahlil qilishni hamda holatni qanday yaxshilamoqchi ekanligini pedkengashda gapirib berishni taklif etadi. Tarbiyachilarni chiqishlarning tayyor matn bilan kelishga majbur qilmaslik kerak, albatta: pedkengashda u yoki bu mavzuning muhokama qilinishi ham hamkasblarning ish yuzasidan o'tkazgan jonli suhbatlari bo'lishi kerak.

Pedagogik kengashga tayyorlanishda tarbiyachilar bilan tez-tez suhbatlashish foydalidir. Ularning biridan "Masala pedagogik kengashga qanday qo'yilganiga e'tibor berdingizmi?" deb so'rash kifoyadir. Boshqasi bilan esa uning bolalar bilan ishlash saviyasi tahlil qilinadi. Ishni endi boshlagan yosh pedagoglarga esa u yoki bu masala tajribali pedagogda qanday hal etilayotganligini ko'rishni tavsiya etish foydalidir. Direktor va metodist mohir pedagoglarga o'z tajribalarini umumlashtirishlarida yordam beradi.

Metodika kabinetida "Pedagogik kengashga tayyorlanami", "Pedagogik kengash arafasida", "Bizning pedagogik kengashda" kabi maxsus stendlarni oldindan jihozlan juda muhimdir. Stendda bo'lajak pedagogik kengashning muddati, kun tartibi, so'zga chiquvchilar haqida ma'lumot ko'rsatiladi.

Tarbiyachilar mazkur masalaga tegishli instruktiv-direktiv hujjatlarni, kerakli adabiyotlarni, mazkur masala bo'yicha "Maktabgacha ta'lim" jurnalidagi maqolalar ro'yxatini, metodik tavsiyalarni ana shu joydan topadilar. Maxsus e'lon pedagogik kengashga tayyorlanish munosabati bilan o'tkaziladigan konsultatsiyalar, o'zaro mashg'ulotlarga kirishlar, ochiq ko'riklarga bag'ishlanadi. Xuddi mana shu stendda oldingi pedagogik kengashning qarori osib qo'yiladi, uning qanday bajarilayotganligi haqida axborot beriladi. Bularning barchasi ishchanlik muhitini yaratadi: pedagoglar pedagogik kengashga faqat tashkiliy emas, balki psixologik jihatdan ham tayyorlanadilar. Natijada kengashning ahamiyati va nufuzi ortib boradi.

Puxta, yaxshi tayyorgarlik pedagogik kengashning muvaffaqiyati ta'minlandi degan gap emas, hali. Pedagogik kengashning borishi, asosiy ma'ruzaning sifati, chiqishlarning maqsadga yo'llanganligi, barcha qatnashchilarning faolligi juda muhimdir.

Har bir xodim suhbatda ishtirokchilarning hammasi qatnashayotganligini bilishi kerak. Agarda oldindan belgilangan kishigina gapiradigan bo'lsa, unda qo'yilgan muammoni har tomonlama jamoa bo'lib muhokama qilishdek pedagogik kengashning asosiy maqsadiga erishib bo'lmaydi. Bu zrinda ko'p narsa pedagogik kengash raisi – maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariga, uning muhokama olib bora bilishiga bog'liqdir.

Har bir pedagogik kengash oldin qabul qilingan qaror qanday bajarilayotganligi haqidagi axborotdan boshlanadi. Qisqa, maqsadga yo'llangan kirish nutqi jamoa diqqatini muhokama qilinayotgan masalaning muhimligiga qaratish hamda muhokamaning asosiy yo'nalishini ko'rsatib berishi kerak.

Pedagogik kengash jarayonida direktor so'zlovchilarni diqqat bilan tinglaydi va munozarani jonli, ishchan, prinsipial, keskin qilish maqsadida ustalik bilan ularning fikrini kerakli oqimga yo'llab turadi. Shu boisdan ham xayrixohlik, prinsipiiallik, tanqidni to'g'ri qabul qila bilsh muhitini yaratishda rahbar aynan etakchi rol o'ynaydi.

Kengash raisining yakuniy so'zi pedagogik kengash faoliyatiga baho berishdan iborat bo'ladi, u qo'yilgan masalalarni hal etish yo'nalishlarini ko'rsatadi, so'zlangan

nutqlarni umumlashtiradi. U albatta, ayrim guruhlardagi va umuman MTTdagi bolalarni tarbiyalash sifatining tahlilini o'z ichiga oladi.

Pedagogik kengashlari o'tkazishda aniq reglamentga rioya qilish, mavzudan chetga chiqishlarga yo'l qo'ymaslik kerak.

Pedagogik kengash har qancha yaxshi tayyorlangan va o'tkazilgan bo'lmasin, agarda, aniq, ravshan, qarorlar qabul qilinmasa, u hech qanday natija bermaydi. Qarorlarda ko'rsatilgan konkret tadbirlar belgilanishi hamda ularning bajarilish muddatlari va ular uchun mas'ul bo'lgan shaxslar ko'rsatilishi kerak.

Dastlab qarorlarning oldindan tayyorlangan loyihasi tavsiya etiladi. Uni tuzishda direktor, metodist, ma'ruzachi va kasaba uyushmasi a'zosi qatnashadi. SHundan so'ng loyiha muhokama qilinadi. Qo'shimchalar, o'zgarishlar kiritilgach, qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Pedagogik kengash qarorlariga qanday tadbirlar kiritilishi mumkin? Bular xodimlarda qiyinchilik tug'dirayotgan masalalar (muayyan mavzu ko'rsatiladi) bo'yicha konsultatsiyalar; ochiq ko'riklar; tanlovlar; o'zaro mashg'ulotga kirishlar; seminarlar o'tkazish, ko'rgazmalar tashkil etish; ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish; tematik tekshirishlar; metodik adabiyotlarni o'rganish va muhokama qilish; "Maktabgacha ta'lim" jurnalidan maqolalar obzorini tayyorlash; qo'llanmalarga ega bo'lish va tizimga solish; didaktik o'yinlar, turli atributlarni tayyorlash va shu kabilardir.

Asosiy masalalar muhokama qilib bo'lingach, rejaga kiritilmagan turli masalalarga ham o'tish mumkin. Agar zaruriyat bo'lsa ular yuzasidan ham qarorlar qabul qilinadi.

Pedagogik kengash qarorlarini bajarish pedagogik jamoaning barcha a'zolari uchun majburiydir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengash faoliyatiga oid quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim:

Maktabgacha ta'lim (tuman yoki shahar) bo'limining (bo'ysunuviga ko'ra yuqori turuvchi tashkilotning) buyrug'i bilan tasdiqlangan MTTning pedagogik kengashi to'g'risidagi nizom;

pedagogik kengashning tasdiqlangan ish rejasi;
pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalarini qayd etish daftari;
pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari;
pedagogik kengash yig'ilishida muhokama qilingan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar.

Pedagogik kengash hujjatlarining saqlanishiga pedagogik kengash raisi va kotibi javobgar hisoblanadi.

Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalarini qayd etish daftari doimiy, tayyorlangan tahliliy materiallar va hujjatlar esa uch yil mobaynida saqlanadi hamda tegishli arxivga topshiriladi.

Yig'ilish bayonnomalarida barcha notiqning chiqishlari hamda tanqidiy fikrlar aks ettirilishi zarur. Asosiy ma'ruzalar bayonnomaga qo'shib qo'yiladi. Yil davomida ularni alohida papkada to'plash va bayonnomalar daftari bilan birga saqlash mumkin. Bayonnomalar daftari noyetlanadi, tikiladi va muhr bosiladi. Bayonnomani yozish uchun kotib (bir yil muddatga) saylanadi.

Yaxshi tashkil etilgan pedagogik kengashlar tarbiyachilar uchun chinakam pedagogik mahorat maktabiga aylanishi mumkin va shunday bo'lishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengash faoliyatiga oid qanday hujjatlar bo'lishi lozim?
2. Pedagogik kengashga tayyorgarlik ko'rishda direktor va uslubchi hamkorligi nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Pedagogik kengashga tayyorlanishda direktor nimalarga e'tibor qaratishi zarur?
4. Kun tartibidagi asosiy masalalar muhokamasiga tayyorgarlik ko'rish shartlari nimalardan iborat?
5. Kengash qarorlari qanday tartibda qabul qilinadi va bajarilishi nazoratga olinadi?
6. Pedagogik Kengash tarkibi qanday belgilanadi?

7. Pedagogik Kengashning maqsad va vazifalarini izohlang.
8. “Maktabgacha ta’lim muassasasining pedagogik kengashi to‘g‘risida”gi Nizom va uning bo‘limlari mazmuni nimalardan iborat?
9. Maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik Kengash qanday huquqlarga ega?

8-MAVZU: NAZORAT QILISHNING USUL VA USLUBLARI

REJA:

1. Nazorat qilishning usul va uslublari.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarning pedagogik faoliyatlarini kuzatish mezonlari.

Tayanch so‘z va iboralar: maktabgacha ta’lim vazirligi; boshqaruv tizimi; nazorat qilish; nazorat qilish tizimi; nazorat qilish maqsadi; vazifalari; nazorat qilish shakllari; turlari; yalpi tekshirish.

Nazorat qilish deganda – davlat nazorati, xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va rahbarlar faoliyatini tekshirish shakllari tushuniladi. Bu, avvalo, sohaga oid amaldagi qonun hujjatlari, jumladan, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun asoslarini, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining, “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom, “Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi”, “Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”, “Bolajon” dasturining bajarilishini, xalq ta’limi idoralari tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, maktabgacha ta’lim-tarbiya masalalari bilan bog‘lik bo‘lgan ariza va shikoyatlarni tekshirishni anglatadi.

Bundan tashqari nazorat – har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatidagi mavjud nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, ta'lim-tarbiya, pedagoglar va tarbiyachilar ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim vositadir

Maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlarining vazifalari va funksiyalari:

1) Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta'minlashda ishtirok etish;

2) kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish sohasida o'zaro hamkorlik qilish;

3) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim sohasidagi qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga rioya qilinishi monitoringini olib borish va nazorat qilish;

4) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-metodik faoliyatni muvofiqlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

5) maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni reabilitatsiya qilish va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash;

6) nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini rivojlantirish;

7) tuman (shahar) darajasidagi byudjetdan moliyalashtiriladigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishni, ularda buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etish.

17. Maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlari ularga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlari va ularning rahbariyatini tashkiliy va axborot-tahlil jihatidan ta'minlaydi;

2) idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari va Vazirlikning buyruqlari bajarilishini muntazam nazorat qiladi;

3) maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tumanlar (shaharlar) hokimliklariga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida qayta ishlanishini, ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etadi;

4) maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga rahbarlik qiladi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

5) nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

6) nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlaydi va bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakllarini rivojlantiradi;

Nazorat qilish deganda – davlat nazorati, xalq ta'limi bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va rahbarlari faoliyatini tekshirish shakllari ushuniлади. Bu, avvalo, sohaga oid amaldagi qonun hujjatlari, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asoslarini, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining, "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizom, "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi", "Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari", "Bolajon" dasturining bajarilishini, xalq ta'limi idoralari tomonidan MTTlari faoliyatini, shuningdek, maktabgacha ta'lim-tarbiya masalalari bilan bog'lik bo'lgan ariza va shikoyatlarni tekshirishni anglatadi.

Bundan tashqari nazorat – har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatidagi mavjud nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, ta'lim-tarbiya, pedagoglar va tarbiyachilar ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim vositadir

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 apreldagi 352-son "Maktabgacha hamda umumta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga 1-ilova sifatida "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish tartibi to'g'risida NIZOM" tasdiqlandi.

Ushbu Nizom davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

tekshirishga vakolatli organlar - maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat

berilgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari; tekshirish - maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan qonunlar hamda ular faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotgailigini tekshirishga vakolatli organlarning bir marta nazorat qilishi;

rejali tekshirish - tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki ularning tegishli hududiy bo'linmalari bilan kelishgan holda tasdiqlangan tekshirishlar reja-jadvaliga asosan o'tkaziladigan tekshirish;

rejan tashqari tekshirish - tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki ularning tegishli hududiy bo'linmalari bilan kelishilgan holda tasdiqlangan tekshirishlar reja-jadvalida belgilanmagan holda o'tkaziladigan tekshirish;

nazorat tartibida tekshirish - maktabgacha ga'lim tashkilotlarining ilgari tekshirishda ko'rsatilgan qonun buzilishlarini bartaraf etishi ustidan tekshirishga vakolatli organlar tomonidan amalga oshiradigan tekshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirishning maqsadi maktabgacha ta'lim bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining roli va mas'uliyatini kuchaytirish, maktabgacha ga'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sifatli ta'lim-tarbiya berilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ijro intizomini mustahkamlash, pedagoglar va boshqa xodimlarning kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvga chek qo'yish, nazorat kiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan ta'lim-tarbiya sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Quyidagilar maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirishning vazifalari hisoblanadi:

maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini, pedagoglarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirishga ko'maklashish;

qonun hujjatlari buzilishi holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi o'z vaqtida va sifatli

ta'minlanishini tashkil etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda to'laqonli tekshirishlar samaradorligini oshirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatidagi ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayoni ustidan samarali davlat nazoratini o'rnatish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash;

davlat organlari va tashkilotlarining maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bilan bog'lik vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilash va tartibga solish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirishga vakolatli davlat organlari quyidagilardan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida:

tarbiyalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash masalalari bo'yicha tekshirish - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari tomonidan;

yong'in xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga amal qilinishini o'rganish, yong'inlarning oldini olish hamda ularni o'chirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va ilmiy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari bo'yicha tekshirish - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yong'in xavfsizligi xizmati va uning hududiy bo'linmalari tomonidan;

aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga hamda sanitariya koidalari, normalari va gigiena normativlariga amal qilinishini o'rganish, sanitariya-gigiena tadbirlarini va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish, pedagog xodimlar va tarbiyalanuvchilarning sanitariya madaniyati darajasini oshirish, davlat sanitariya nazoratini amalga oshirish masalalari bo'yicha tekshirish - O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati respublika markazi va hududiy davlat sanitariya-

epidemiologiya nazorati markazlari tomonidan;

mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya kilinishini o'rganish, xodimning hayoti va sog'ligi ustuvorligini ta'minlash, mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshirish, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari bo'yicha tekshirish - O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda uning hududiy bandlikka ko'maklashish va aholini ish bilan ta'minlash markazlari tomonidan;

aholini va hududlarni favkulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini o'rganish, favkulodda vaziyatlarning oldini olish, favkulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararini kamaytirish yuzasidan choralarini amalga oshirish, favkulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo'lishni tashkil etish, favkulodda vaziyatlardan muqofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish masalalari bo'yicha tekshirish - O'zbekiston Respublikasi Favkulodda vaziyatlar vazirligi va uning tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan;

er, er osti boyliklari, suv, daraxtlar va o'simlik dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat ekologik nazoratini o'rnatish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish borasida yagona siyosatni amalga oshirish, chiqindilar bilan bog'lik ishlarni amalga oshirish, pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning ekologik madaniyatini oshirish masalalari bo'yicha tekshirish - O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tekshirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

rejali tekshirish;

rejadan tashqari tekshirish;

nazorat tartibida tekshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rejali tekshirishlarni o'tkazish tekshirishga vakolatli organlar bilan tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari tomonidan kushma tasdiqlanadigan tekshirishlarning yillik reja-jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

Tekshirishga vakolatli organlar yoki ularning hududiy bo'linmalari tomonidan tekshirish rejalashtirilayotgan yildan oldingi yilning 1 dekabrigacha bo'lgan muddatda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yillik tekshirishlarning reja-jadvali loyihasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxati, ularning manzili, to'lik nomi, rejali tekshirish davriyligini aniq ko'rsatgan holda tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalariga ko'rib chiqish va kelishish uchun taqdim etiladi.

Keyingi yil uchun tekshirishlarning yillik reja-jadvali tegishliligi bo'yicha tekshirishga vakolatli organlarning markaziy apparati bilan tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralarning markaziy apparati hamda tekshirishga vakolatli organlarning hududiy bo'linmalari bilan tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralarning hududiy bo'linmalari tomonidan har yili 15 dekabrga qadar tasdiqlanadi. Tasdiqlangan yillik reja-jadvallarning nusxalari tegishliligi bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga har yili 25 dekabrga qadar etkazib beriladi.

Agar tekshirishlarning yillik reja-jadvali tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari tomonidan belgilangan muddatlarda asossiz ravishda tasdiqlashdan bosh tortilsa, tekshirishga vakolatli organlar hamda ularning hududiy bo'linmalari yillik tekshirishlarning reja-jadvali loyihasiga muvofiq tekshiruvni amalga oshirishga hakli.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish davriyligi uchun belgilangan muddatda bir martadan ortiqrejali tekshirish o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yangi tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida dastlabki ikki yil

mobaynida rejali tekshirishlar o'tkazilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno.

Tasdiqlangan tekshirishlar reja-jadvaliga tekshirishga vakolatli organlar bilan tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari tomonidan kelishilgan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Tekshirishlar reja-jadvali loyihasi:

tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralarga - tekshirishga vakolatli organlarning markaziy apparati tomonidan;

tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralarning hududiy bo'linmalariga - tekshirishga vakolatli organlarning hududiy bo'linmalari tomonidan takdim etiladi.

Belgilangan muddatdan keyin taqdim etilgan takliflar tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Quyidagi hollarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari yillik tekshirishlar reja-jadvaliga kiritilmaydi:

maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tekshirish uchun belgilangan muddatlar inobatga olinmagan bo'lsa;

maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tekshirishlarning yillik reja-jadvalini shakllantirishning koidalari buzilgan bo'lsa;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tugatilgan yoki tugatish jarayonida bo'lsa;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining reja-jadvalga kiritilishi qonun hujjatlariga zid bo'lsa.

Tasdiqlangan yillik tekshirishlar reja - jadvali tekshirishga vakolatli organlar, tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalarining Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi.

Rejadan tashqari tekshirishlar tekshirishga vakolatli organlar tomonidan:

maktabgacha ta'lim tashkiloti tugatilayotganida;

tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari tizimidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tekshirishni so'rab tekshirishga vakolatli organga murojaat etgan taqdirda;

maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga oid qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining topshiriqlari hamda davlat dasturlarida belgilangan vazifalarning o'z muddatida va sifatli ijro etilishini tezkor o'rganish talab etilganda;

inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishining, favkulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish, pedagog xodimlar va tarbiyalanuvchilar hayoti va sog'ligi uchun xavfli omillarning paydo bulishi, sanitariya-epidemiologik vaziyat murakkablashishi, shuningdek, boshqa mamlakatlardan yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishi ehtimoli mavjud bo'lganda;

bo'sh ish o'rinlari mavjudligi va ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi qatlamlari uchun maxsus ish o'rinlari zag'ira qilinganligi, majburiy mehnatning oldini olish, mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi, shu jumladan, baxtsiz hodisalarni tekshirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini o'rganish maqsadida;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligiga va ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar mavjudligi aniqlanganda yoki maktabgacha ta'lim tashkilotlarining erishgan yutuqlari oldin erishilgan yutuqlaridan past bo'lgan taqdirda;

tekshirishga vakolatli organning mansabdor shaxsi ma'muriy vazifalarni amalga oshirayotganida maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan qonun hujjatlari talablari buzilganligi aniqlanganda;

ommaviy axborot vositalari yoki Internet jahon axborot tarmogidagi manbalarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga doir koidabuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinganda;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkiliy-boshqaruv, o'quv-metodik, ma'naviy va moliyaviy jihatdan jiddiy nuqsonlar mavjudligi to'g'risida ishonchli

ma'lumot bo'lganda amalga oshiriladi.

Tekshirishga vakolatli organlar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rejali va rejadan tashqari tekshirishlar muddati 10 kundan oshmasligi kerak.

Nazorat tartibidagi tekshirishlarni o'tkazish tekshirishga vakolatli organlar tomonidan fakat ularning o'zlari ilgari o'tkazgan tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomada (ma'lumotnomada) belgilangan holatlar bo'yicha va muddatlarda yoki tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirlik va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari murojaatiga asosan undan oldinroq muddatlarda, tekshirishga vakolatli organning buyrug'i asosida tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalarini kamida 10 kalendar kun oldin yozma ravishda xabardor qilgan holda 5 kalendar kundan oshmagan muddatda amalga oshiriladi.

Ilgari o'tkazilgan tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomada (ma'lumotnomada) muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, nazorat tartibida o'tkaziladigan tekshirishlar ilgari tekshirish o'tkazilgan sanadan boshlab olti oydan oshib ketishi mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan nazorat tartibida tekshirishlar o'tkazishga tusqinlik qilinishi mumkin emas.

Rejali tekshirishni o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

tekshirishlar reja - jadvalidan ko'chirma;

tekshirishga vakolatli organlarning tekshirish o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i;

tekshirish dasturi yoki savolnomasidan nusxa.

Rejadan tashqari tekshirishni o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

tekshirishga vakolatli organning tekshirish o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i;

tekshirish dasturi yoki savolnomasidan nusxa.

Tekshirishga vakolatli organlar tomonidan rejali tekshirish o'tkazilishidan kamida 10 kun oldin tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalariga tekshirish

o'tkazish to'g'risidagi buyruq, tekshirish dasturi yoki savolnomasi ilova kilingan asmiy xat yuboriladi.

Tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari tomonidan rejali tekshirish o'tkazish haqidagi rasmiy hujjat olingan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay o'z tizimidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yozma xat yoki ichki elektron hujjatlar aylanishi tizimi orqali xabar beriladi hamda tekshirish o'tkazish to'g'risidagi buyruq tekshirish dasturi yoki savolnoma yuboriladi.

Tekshirishga vakolatli organlar buyruq asosida tekshirishlarni amalga oshirishni o'zlarining hududiy bo'linmalariga topshirishga hakli. Tekshirishga ularning boshqa hududiy bo'linmalari xodimlari, mutaxassislar ekspertlar va auditorlik tashkilotlari ham jalb etilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan filiallari faoliyatini tekshirishlar ular tarkibiga kiradigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan tekshirishlar doirasida amalga oshiriladi. rejadan tashqari tekshirishlar bundan mustasno.

Tekshirishni amalga oshirishdan oldin tekshirishga vakolatli organ tomonidan tekshirish o'tkazish to'g'risida buyruq qabul kilinadi.

Tekshirishga vakolatli organni tekshirish o'tkazish to'g'risidagi buyrug'ida tekshiriladigan tashkiloti nomi, tekshirish maqsadi, tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr, tekshirish o'tkazish muddati va tekshirish o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjat nomi, raqami va sanasi ko'rsatiladi hamda tekshirish dasturi yoki savolnomasi ilova qilinadi.

Tekshirish jarayonida tekshirishga vakolatli organning vakolatlari va tekshirish dasturi yoki savolnomasida belgilangan masalalar doirasidan chetga chiqilmaydi.

Tekshirishga vakolatli organning masul xodimlari tekshirish boshlanishidan oldin maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini (rahbar bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bajaruvchi shaxsni) tekshirish maqsadi bilan tashvishladi, unga o'z xizmat guvohnomasi va tekshirish o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlarning (tekshirishlar

reja-jadvalidan ko'chirma, tekshirishga vakolatli organning tekshirish o'tkazist to'g'risidagi buyrug'i va tekshirish dasturi yoki savolnomasi) nusxalarini topshiradi. Tekshirish o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlar nusxasi tekshirilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotsiga tilxat olingan holda topshirilgan payt tekshirish boshlangan payt hisoblanadi.

Tekshirilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotsining mazkur hujjatlarni olishdan bosh tortganligi tekshirishni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.

Tekshirilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotsi ushbu hujjatlarni olishdan bosh tortgan taqdirda, tekshirishga vakolatli organning mansabdor shaxsi tomonidan uning uzi va tekshirilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotsi rahbari (rahbar bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bajaruvchi shaxs) imzolaydigan dalolatnoma tuziladi. Ushbu dalolatnomani maktabgacha ta'lim tashkilotsi rahbari (rahbar bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bajaruvchi shaxs) imzolashdan bosh tortganda, dalolatnomaga tekshirishga vakolatli organning mas'ul xodimi tomonidan tegishli yozuv kiritiladi. Bu holda dalolatnoma imzolangan payt tekshirish boshlangan payt hisoblanadi.

Tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga (ma'lumotnomaga) Tekshirishlarni ruyxatga olish daftarining tuldirilgan shakli (kogoz shakli tuldirilganda - elektron shakli tuldirilmaganligi sababi) yoki daftar takdim etilmaganda - uning takdim tilmaganligi to'g'risida tekshirishga vakolatli organning mas'ul xodimi tomonidan tegishli yozuv kiritiladi.

Tekshirishga vakolatli organning mas'ul xodimlari tekshirishlarni ro'yxatga olish daftarini to'ldirishdan bosh tortgan taqdirda, maktabgacha ta'lim tashkilotsida tekshirish o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tekshirishga vakolatli organ tomonidan ilgari tekshirilgan masalalar bo'yicha qayta tekshirish hamda bir yilda bir martadan ortiq nazorat tartibidagi tekshirishlar o'tkazilmaydi.

Tekshirishni belgilangan muddatda o'tkazish imkoni bo'lmagan hollarda, jumladan, tekshirishda ishtirok etishi lozim bo'lgan shaxs ishtirok eta olmagan, tekshirish o'tkazish uchun talab kilingan hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkilotsi

tomonidan taqdim etilmagan yoki zarur mutaxassislar mavjud bo'lmagan taqdirda, tekshirishga vakolatli organning buyrug'li asosida tekshirish to'xtatilib, belgilangan tartibda boshqa vaqtga ko'chirilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma (ma'lumotnoma) tuman (shahar) yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar miqyosida umumlashtirilishi mumkin.

Bir kun muddatda O'tkaziladigan tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma (ma'lumotnoma) tekshirish o'tkazilgan kunda, muddati bir kundan ortiq bo'lgan tekshirish bo'yicha esa tekshirish muddatining oxirgi kunidan kechiktirmasdan rasmiylashtirilishi shart.

Tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning (ma'lumotnomaning) nusxalari tekshirishga vakolatli organning tekshirish o'tkazayotgan mas'ul xodimlari va maktabgacha g'alim tashkiloti rahbari (rahbar bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bajaruvchi shaxs) yoki tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari vakili tomonidan imzolanadi.

Tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning (ma'lumotnomaning) bir nusxasi maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariga (rahbar bulmagan taqdirda uning vazifasini bajaruvchi shaxsga) yoki tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari vakiligiga uni olgan sanani ko'rsatgan holda imzo qo'ydirib topshiriladi va shu paytdan e'tiboran tekshirish tugagan hisoblanadi.

Tekshirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'tkazilgan tekshirish natijasi bo'yicha o'z e'tirozlarini dalolatnomada (ma'lumotnomada) yozma ravishda aks etirishi mumkin.

Tekshirilayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti vakili tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomani (ma'lumotnomani) olishdan va (yoki) uni imzolashdan bosh tortganda, tekshirishga vakolatli organning mas'ul xodimi bu haqda tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga (ma'lumotnomaga) tegishli yozuv kiritadi va shu paytdan e'tiboran tekshirish tugagan hisoblanadi.

Bunday holatda tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning (ma'lumotnomaning) nusxasi bir ish kuni davomida maktabgacha ta'lim tashkilotiga yoki tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalariga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma (ma'lumotnoma) tekshirishga vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda ruyxatga olib boriladi.

Tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomada (ma'lumotnomada) quyidagilar o'z aksini topadi:

tekshirish jarayonida aniqlangan kamchiliklar va umumiy xulosa;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari va ularning muddati;

tekshirish jarayonida aniqlangan qonun va qoida buzilishi holatlariga nisbatan qonunchilikda belgilangan ta'sir choralari.

Tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma (ma'lumotnoma) nusxasi tekshirishga vakolatli organlar tomonidan tegishliligi bo'yicha:

tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki ularning hududiy bo'linmalariga;

hududiy xokimliklarga yoki kompleks ijtimoiy-ikgisodiy rivojlantirish bo'yicha tegishli sektorlarga kiritilishi mumkin.

Ular o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomada (ma'lumotnomada) kursatilgan kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish choralarni ko'rishlari lozim.

Tekshirish jarayonida huquqbuzarlik holatlari aniqlangan taqdirda, bu haqidagi ma'lumotlar tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga (ma'lumotnomaga) kiritilib, uning bir nusxasi dalolatnoma (ma'lumotnoma) imzolangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay tekshirishga vakolatli organlar tomonidan majburiy tartibda tegishliligi bo'yicha huquqni muxofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

Tekshirish o'tkazish vaqtida maktabgacha ta'lim tashkilotlari advokat xizmatidan foydalanishi mumkin.

Tekshirishga vakolatli organlar asosli sabablarga ko'ra tekshirish o'tkazish imkoni bo'lmagan yoki zarurati qolmagan (tugatilganligi sababli moliya- xujalik faoliyati yuzasidan yakuniy tekshirish o'tkazilgan, jinoyat ishi yuzasidan tekshirilgan, boshqa tashkilotga qo'shilgan, faoliyat yuritmayotgan, tekshirish davrida tekshiriladigan ob'ekt mavjud bo'lmagan va hokazo) maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tekshirishlar reja-jadvalidan chiqarish to'g'risida tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki ularning hududiy bo'linmalariga taklif kiritib boradilar.

O'tkazilgan tekshirish natijalaridan norozi bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari nizoli masalalarga aniqlik kiritish uchun tekshirishga vakolatli organlarning yuqori tashkilotlariga, sudga yoki prokuratura organlariga murojaat qilish huquqiga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari nizoli masalalarga aniqlik kiritish uchun tekshirishga vakolatli organlarning yuqori tashkilotlariga murojaat etgan takdirda, tekshirishga vakolatli organlar tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari bilan qo'shimcha ravishda kelishmasdan, fakat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining murojaatlarida ko'rsatilgan nizoli masalalar yuzasidan aniqlik kiritadilar.

Tekshirishga vakolatli organlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish jarayonida quyidagi huquqlarga ega:

maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan tekshirishni samarali o'tkazish bilan bog'lik zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish;

tekshirish jarayoni bilan bog'lik zarur hujjatlardan nusxa olish;

vakolatlari doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki ularning tegishli hududiy bo'linmalariga hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tekshirish jarayonida aniqlangan huquqbuzarliklarga yul kuygan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalani kiritish;

tekshirish jarayoniga tegishli mutaxassislar, ekspertlar va auditorlik tashkilotlarini shartnoma asosida jalb etish;

ushbu Nizomning 31-banda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda, tekshirishlarning muddatini kuchirish to'g'risida taklif kiritish.

Tekshirishga vakolatli organlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Tekshirishga vakolatli organlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish jarayonida quyidagilarga majbur:

maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tekshirish o'tkazish huquqini beruvchi zarur hujjatlarni taqdim etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlariga halaqit bermaslik;

tekshirishlarni ro'yxatga olish daftarini belgilangan tartibda to'ldirish;

tekshirishlar natijalari to'g'risida dalolatnoma (ma'lumotnoma) rasmiylashtirish, uning bir nusxasini tekshirish tugagan kuni maktabgacha ta'lim tashkilotida qoldirish;

tekshirish jarayonida aniqlangan qoidabuzarlik holatlari haqida tegishligi bo'yicha huquqni muxofaza kiluvchi organlarga hamda yuqori turuvchi organlarga xabar berish.

Tekshirishga vakolatli organlarga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tekshirish jarayonida quyidagi huquqlarga ega:

faoliyati rejali tekshirilishi to'g'risidagi ma'lumotga ega bulish;

tekshirishga vakolatli organlarning mas'ul shaxslaridan ularning xizmat guvoxonmasi va tekshirishni o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlarni talab qilish;

tekshirishni o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlarga ega bulmagan shaxslarning tekshirish o'tkazishga yul qo'ymaslik;

tekshirishga vakolatli organlar mas'ul shaxslarining vakolatiga kirmaydigan masalalarga oid talablarini bajarmaslik va tekshirish predmetiga taalluqli bo'lmagan materiallarni taqdim etmaslik;

tekshirish tugagan kuni tekshirishga vakolatli organlarning mas'ul shaxslaridan tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning (ma'lumotnomaning) nusxasini berishni talab qilish;

tekshirishga asos bo'ladigan hujjatlarni takdim etmaganlik, tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma (ma'lumotnoma) mazmuni va tekshiruvchilar tomonidan tekshirishga aloqador bo'lmagan har qanday qo'shimcha ko'rsatmalar berish yuzasidan yuqori turuvchi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudga shikoyat qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tekshirish jarayonida quyidagilarga majbur:

tekshirish o'tkazish huquqini beruvchi zarur hujjatlarga ega bo'lgan tekshirishga vakolatli organlarni maktabgacha ta'lim tashkiloti hududiga kiritish;

tekshirishga vakolatli organlarning qonuniy talabiga binoan tekshirish o'tkazish bilan bog'lik zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni o'z vaktida taqdim etish;

tekshirish jarayoniga halakit bermaslik, tekshirishga vakolatli organlar tomonidan tekshirishni samarali o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratish;

tekshirish natijalari to'g'risidagi dalolatnomada (ma'lumotnomada) ko'rsatilgan qoidabuzarlik holatlarini o'z vaktida bartaraf etish choralarini ko'rish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

Tekshirishga vakolatli organlarning rahbarlari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tekshirish o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlarning ishonchliligi hamda tekshirishga vakolatli organlar mas'ul shaxslarining o'z vakolatlari doirasidan chiqmasligi uchun javobgar hisoblanadi.

Tekshirishga vakolatli organlar tomonidan tekshirishlar ushbu Nizom va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq o'tkazilganligi tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari tomonidan doimiy ravishda monitoring olib boriladi.

Tekshirishlar bo'yicha monitoring maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilgan rejali, rejadan tashqari va nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirishlarning alohida ravishda hisobini yuritish, tekshirishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida noqonuniy tekshirish o'tkazgan yoki tekshirish jarayonida uz vakolati doirasidan chikkan tekshirishga vakolatli organlarning xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va tekshirish tartibi qaysi mehyoriy hujjatda o'z aksini topgan?
2. Rejali tekshirish qanday amalga oshiriladi?
3. Rejadan tashqari tekshirish qanday amalga oshiriladi?
4. Nazorat tartibida tekshirish tartibi qanday?
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarni nazorat qilish uchun vakolatli organlarga qaysilar kiradi?

9-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BO'YICHA METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISH VAZIFALARI

REJA:

1. Uslubiy xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
2. Metodik xizmat maqsadi va vazifalari.
3. Metodik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari mazmuni.

Tayanch so'z va iboralar: metodik birlashma; metodik birlashmalarning vazifasi; metodik kabinet; metodika uyushmasi hujjatlari; yillik ish rejasi; yig'ilish bayonnomalari; hisobotlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi hamda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarini va mutaxassislarini qayta tayyorlaydi va ularning

malakasini oshiradi, yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etadi, maktabgacha ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalarida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatadi.

Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari hisoblanadi:

maktabgacha ta'lim tizimi rahbarlari va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy-pedagog kadrlarning ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish, ularni tayyorlash, maktabgacha ta'lim tizimini metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga, xususan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

maktabgacha ta'limning milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi o'quv-metodik, didaktik materiallari, badiiy adabiyotlari sifati va mazmunini yanada boyitish, o'yin va o'yinchoqlar sonini ko'paytirish;

maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha metodik ishlarni tashkil etish;

o'quv-tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha rahbarlar va mutaxassislar ko'nikmalarini mustahkamlash va maktabgacha ta'lim sifatini baholash;

xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar o'tkazish orqali maktabgacha ta'lim sohasida mamlakatimiz yutuqlarini xalqaro darajada keng yoritish, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan shunga o'xshash xalqaro maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

xorijiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'qituvchilarini jalb qilgan holda malaka oshirish va ilg'or tajribani almashish uchun qisqa muddatli seminarlar tashkil etish.

Institut unga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha metodik ishlarni tashkil etish sohasida:

o'qitishning zamonaviy shakllarini, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda maktabgacha ta'lim muassasalariga metodik yordam ko'rsatish;

o'quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirishga, bolalar va pedagoglar iste'dodlarini, qobiliyatlarini rivojlantirish va rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar (konferensiyalar, forumlar, musobaqalar, ko'rgazmali olimpiadalar, seminar-treninglar, tanlovlar) tashkil etish;

pedagoglarning o'z sohasini bilishini rivojlantirish va oshirishda o'qitishning interaktiv va zamonaviy usullarini, metodik materiallarni, metodik yordam ko'rsatishning samarali shakllarini ishlab chiqish, sinab ko'rish va o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish;

maktabgacha ta'lim muassasalarida xonalar, sport zallari va maydonlari, asbob-uskunalar va kompyuter texnikasini ekspluatatsiya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;

qayta tayyorlash va malaka oshirishning samarali shakllarini (aralash, masofaviy, yakka tartibda o'qitish, «ustoz-shogird» va boshqa shakllarini) joriy etishning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqish;

har xil metodik materiallar tayyorlash, pedagogik va ilmiy-metodik axborotni umumlashtirish va tarqatish, ilmiy-metodik jurnallar, gazetalar, metodik to'plamlar va qo'llanmalar nashr etish;

davlat ta'lim talablarini, o'quv rejaları va dasturlarni, darsliklar va o'quv-metodik materiallarni o'rganish hamda muhokama qilish, takliflar kiritish va Institutning ilmiy-metodik kengashida xulosalar qabul qilish¹².

Metodik birlashmalar - maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga oid eng dolzarb masalalar muhokama etiladigan va hal qilinadigan uslubiy tuzilmalardir.

¹² Maktabgacha ta'lim muassasalarini rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining USTABI. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrda 929-son qaroriga 2-ildova.

Metodik birlashmalarning asosiy vazifasi - pedagog va tarbiyachilarning ijodiy faolligini oshirish va yangilikka intilishlarini qo'llab-quvvatlash, o'z ishiga tanqidiy munosa- batda bo'llish va xolisona baho berish ko'nikmasini shakllantirish, zimmasidagi vazifalarga yuksak mas'uliyat hissini qaror toptirish, kasb mahorati va malakasini uzluksiz oshirib borishga yo'naltirishdan iborat.

Metodik birlashmalar butun o'quv yili davomida (sentyabrdan maygacha) faoliyat olib boradi. U turli toifadagi pedagog- tarbiyachilar, musiqa rahbarlari, direktorlar faoliyatini takomillashtirish, ularning kasb mahorati va malakasini oshirish maqsadida tashkil etiladi.

Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni ko'p bo'lgan yirik tumanlarda bunday birlashmalarni bo'lim (yoki bir necha bo'lim) shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Har bir bo'limda 18-20 maktabgacha ta'lim tashkilotlari kiradi.

Birlashmaning ishlash muddati, faoliyat doirasi va vakolatlari Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Odatda, uning yig'ilishlari 2 oyda bir marta o'tkaziladi.

Metodik birlashma tarkibini shakllantirishda pedagoglarning ish staji, kasb mahorati va malakasi e'tiborga olinadi. Masalan, direktorlar uchun tashkil etilgan metodik birlashma tarkibiga kiritiladigan pedagoglar (yirik tumanlar uchun] oliy ma'lumotli, besh yil va undan ziyod ish stajiga ega bo'lishi zarur:

O'rta va maxsus ma'lumotga ega va ish staji kam bo'lgan direktorlar va metodistlar uchun ham metodik birlashmalar shunday tartibda tashkil etiladi.

Tarbiyachilar uchun metodik birlashmalar tashkil etishda esa ularning joriy yilda qaysi yoshdagi bolalar guruhida ishlagani e'tiborga olinadi.

Metodik birlashmalarning ko'rgazmali qurollar va yangi uslubiy adabiyotlar ko'rgazmalarini tashkil etish borasidagi faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodik birlashma ishining samarasi uning faoliyati maktabgacha ta'lim bo'limi va metodika kabineti tomonidan qay darajada boshqarilayotganiga ham bog'liq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar metodika kabinetlari metodika birlashma rahbari va xodimlari malakalarini oshirish ishini

yo'lga qo'yadi, jumladan, bir yilda 2-3 marta uslubiy birlashmani tashkil etish va rejalashtirish, uni boshqarish, zamonaviy fan yutuqlari, ilg'or tajribalarni o'rganish va tatbiq etish kabi mavzularda seminarlar tashkil etadi.

Shahar, tuman maktabgacha ta'lim bo'limlari metodika kabinetini reja tuzish, ma'ruzalar tayyorlash, turli ko'rgazmalarni tashkil etishda birlashmalar rahbarlariga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim bo'yicha tayyorlangan barcha uslubiy ishlanma va qo'llanmalar, amaliy taklif-tavsiyalar, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga taqdim etiladi. Ular vazirlik tomonidan ko'rib chiqilib, tasdiqlangandan so'ng maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tarqatiladi.

Metodik kabinet o'z oldidagi vazifalarni hal etishda materialning mazmun-mohiyatiga, belgilangan talablarga javob berishi, o'tkazilayotgan tadbirlarda, xususan, seminarlarda yangi uslubiy ishlanmalar, adabiyotlar muhokamasiga alohida e'tibor berishi lozim.

Uslubiy-pedagogik yig'ilishlar asosan ilk yosh guruhlar tarbiyachilari uchun o'tkaziladi. Ularda, asosan, bolalarning jismoniy-fiziologik, ruhiy va aqiy rivojlanishi masalalari muhokama qilinadi. Bunday yig'ilishlar 1 yoshdan 2 yoshgacha guruhlarda har oyda, 2 yoshdan 3 yoshgacha guruhlarda har chorakda 1 marta o'tkaziladi. Yig'ilishlarda direktor, metodist va tarbiyachilardan, tashqari, shifokor, katta hamshira ham ishtirok etadi.

Metodik birlashma faoliyati metodist tomonidan nazorat etiladi.

Mamlakatimiz hududidagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini uslubiy ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi tizimida maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha metodika uyushmalari faoliyat yuritadi.

Metodika uyushmalarining maqsadi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining har bir yo'nalish bo'yicha turli yosh davrlariga tegishli ta'lim faoliyatini muvofiqtashtirish;
- zamonaviy ta'lim-tarbiya berishning innovatsion g'oya va yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish va keng targ'ib qilish, ilg'or tajriba va ijodiy tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etish;

ta'lim tashkilotlari pedagog va tarbiyachilarining kasb mahorati va malakasini oshirish maqsadida mahorat maktablari, amaliy mashg'ulotlar, yangi pedagogik, uslubiy adabiyotlar, ta'limga oid va didaktik o'yin vositalari ko'rgazmasi, seminar-treninglarni muntazam ravishda tashkil etish orqali uslubiy yordam ko'rsatishdan iborat.

Metodika uyushmalarining asosiy vazifalari:

Maktabgacha ta'lim boshqaruv organlari tomonidan maktabgacha ta'lim yo'nalishiga oid me'yoriy hujjatlar va metodik ishlarni o'rganadi hamda ta'lim tashkilotlarida ta'lim- tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib beradi.

1. Viloyat metodika markazlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tajribali pedagoglari tarkibidan yo'nalishlar (rahbar, metodist, tarbiyachi, logoped, defektolog, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) bo'yicha trenerlar guruhi tashkil etiladi. Trenerlarning har biri o'z yo'nalishi bo'yicha yangi ipetodik tavsiyalar va me'yoriy hujjatlar bilan metodik uyushma rahbarlari uchun ikki oyda bir marta mashg'ulotlarni tashkil etadi.

2. Tuman (shahar) miqyosidagi ilg'or pedagogik ish tajribalarini o'rganadi hamda ulardan eng samaralilarini metodika uyushmasi qarori bilan tuman (shahar) bo'yicha ommalashtiradi.

3. Tuman (shahar) miqyosida ommalashgan innovatsion ish uslublariga ega tashkilotlar ish tajribasini viloyat bo'yicha ommalashtirishga tavsiya etadi.

4. Ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish maqsadida, ta'lim- tarbiya faoliyatining zamon talabiga mosligini, qo'yilgan talablarning bajarilishi va ijodiy fikrlarning ta'lim jarayoniga to'g'ri yo'naltirilganini kuzatib boradi.

5. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlatalablari»ning yo'nalishlar bo'yicha jarilishi va tayanch dasturining ishlashini ta'minlashga rahbarlik qiladi.

6. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari»ning ijrosini o'rganish uchun zarur bo'lgan test topshiriqlari va boshqa nazorat materiallarini tayyorlash ishlarini amalga oshiradi.

7. Shahar va tumanda tegishli ta'lim yo'nalishining tatbiq etish ahvolini o'rganadi, tahlil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning Davlat talablari asosida egallagan malaka va ko'nikmalaridagi bo'shliqlarni aniqlaydi va ularni to'ldirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydi.

8. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga' qo'yilgan Davlat talablari» ijrosini ta'minlash, ta'lim sifat va samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan boyitish, yangi innovatsion g'oyalarni tatbiq etishga ko'maklashuvchi tavsiyalar ishlab chiqadi va ularni ta'lim tashkilotlariga yetkazadi.

9. Tuman (shahar) miqyosidagi ta'lim yo'nalishlarining metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydi.

10. "Ilk qadam" dasturi, metodik qo'llanma va boshqa yangi metodik nashrlar, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoniga doir ilmiy maqolalarni o'rganadi va muhokama qiladi.

11. Maktabgacha ta'lim boshqaruv organlari ko'rsatmasi bilan sohaga oid yaratilayotgan yangi dastur, qo'llanmalarni tahlil qiladi va asoslangan xulosalar taqdim etadi.

12. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maxsus sanitariya-gigiyena talablari asosida jihozlanishiga metodik yordam beradi.

13. Tuman (shahar) miqyosida tegishli yo'nalish bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilg'or ish tajribalarini o'rganishga yo'naltirilgan o'quv-metodik seminarlarni tashkil etadi.

14. Tuman (shahar) miqyosida tarbiyachilarning uzluksiz malaka va mahoratlarini oshirib borishlarini ta'minlaydi.

15. Tuman (shahar) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ilg'or pedagogik tajribalari, ijodkor tarbiyachilari haqida axborotlar bazasini tashkil etadi.

16. Ta'lim tashkilotlarida turli yo'nalishdagi to'garaklar faoliyati va noan'anaviy guruhlarning ishlarini o'rganadi, ularga tegishli yordam ko'rsatadi.

17. Tuman (shahar) miqyosida o'tkaziladigan ikkinchi bosqich ko'rik-tanlovlarni o'tkazishga yordam beradi.

18. Ta'lim tashkilotlarining yangi o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanishini nazorat qiladi.

Metodika uyushmasining ishini tashkil etish va unga rahbarlik qilish quyidagi amalga oshiriladi:

- Tuman (shahar) miqyosida maktabgacha ta'limning bir necha yo'nalishlari, shuningdek (maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari, metodist, tarbiyachi, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, logopedlar uchun) bittadan Metodika uyushmasi tashkil etiladi.
 - Metodika uyushmasiga har bir ta'lim tashkilotidan bir va bir necha pedagog xodim tashkilot rahbarining tavsiyasi va buyrug'i bilan a'zo qilib olinadi.
 - Metodika uyushmasiga tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuman (shahar)ning eng ijodkor va tajribali tarbiyachi mutaxassisi rais etib saylanadi va uyushma yig'ilishiga rahbarlik qiladi.
 - Metodik uyushma raisi va uning a'zolari uyushma faoliyatlarini jamoatchilik asosida yuritadilar.
 - Metodik uyushma faoliyatiga bog'liq barcha tashkiliy ishlar va hujjatlarni yuritish tuman (shahar) ta'lim tashkilotlarining o'quv-tarbiya jarayonini metodik ta'minlash kichik guruhining maktabgacha ta'lim yo'nalishi metodisti zimmasiga yuklatiladi.
 - Uyushma faoliyati tuman (shahar) ta'lim tashkilotlarining o'quv-tarbiya jarayonini metodik ta'minlash kichik guruhining huzuridagi Metodik kengash tomonidan muvofiqashtirib boriladi.
 - Metodika uyushmasi yig'ilishi har ikki oyda bir marta o'tkazilishi va yig'ilish ma'lum bir masalani muhokama qilishi yoki o'quv seminari tashkil qilishi mumkin.
 - Metodika uyushmasi yig'ilishlarida muhokama etilgan masalalar majlis bayonnomasida aks ettirilishi va qabul qilingan qaror yuzasidan tegishli ko'chirma taqdim etilishi zarur.
 - Yig'ilish bayonlari daftari, uyushma ish rejasi va hisoboti tuman (shahar) metodika kabinetida uch yil saqlanadi.
- Metodika uyushmasi quyidagi hujjatlar asosida faoliyat yuritadi:

yillik ish rejasi;

yig'ilish bayonnomalari;

hisobotlar;

metodika kengashiga taqdim etilgan va muhokamadan o'tgan ishlarning chop etilgan va elektron nusxasi.

Metodika kengashiga maktabgacha ta'lim boshqaruv organlaridan yo'llangan hujjatlar nusxasi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Uslubchi tomonidan yosh tarbiyachilarga qanday metodik yordam ko'rsatish ko'rsatilish shakllarini izohlang.
2. Uslubchining tarbiyachilar faoliyatini kuzatish va nazorat qilish tartibi qanday belgilanadi?
3. MTTda metodik kabineti qanday jihozlanadi?
4. Uslubchining shaxsiy ish rejasida nimalar qayd etiladi?
5. MTTda pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi qanday amalga oshiriladi?
6. MTTda malaka oshirish rejasini tuzish va bajarish tartibi qanday?
7. MTT o'tkaziladigan tadbirlar va bayram-ertaliklarini o'tkazishga uslubchi qanday rahbarlik qiladi?
8. Uslubchining maktab, mahalla va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda qanday ishlarni amalga oshirishi zarur?

10-MAVZU: «METODIST MAKTABI» XONASINING ISH MAZMUNI

REJA:

1. «Metodist maktabi» xonasi ish mazmuni.
2. «Metodist maktabi» xonasining ish faoliyatining mazmuni.
3. Ta'lim tizimiga doir hujjatlar, ko'rsatmalar.

Tayanch so'z va iboralar: metodik ishlar; «Metodist maktabi»; me'yoriy hujjatlar; ko'rsatmalar; didaktik materiallar; seminar; maslahatlar.

Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, u bashariyatni ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va yuksaklikka olib boruvchi komillik sari yo'ldir. Shu sababli ham insoniyat paydo bo'libdiki, tarbiya masalasi kishilar, oilalar, jamoalar, davlatlar oldida muhim muammo bo'lib kelmoqda va ular ko'p variantli yo'llar, vositalar bilan turlicha shakllarda, uslublarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 12 iyuldagi «maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi 128-sonli buyrug'ining 2-ilovasiga muvofiq «Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari uchun Uslubiy birlashmalar to'g'risida»gi namunaviy Nizom tasdiqlangan.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9-sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida»gi 802-sonli qarorida belgilangan standartlarni. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 – yil 11-apreldagi «Maktabgacha ta'lim vazirligi huzurida o'quv-metodik ishlarini muvofiqlashtirish Kengashini tashkil etish to'g'risida»gi buyrug'i ijrosini ta'minlash, shu bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, bolalami sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishi, ularda o'qishga intilish hissini uyg'otish, pedagog xodimlarning ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirish, fidoiy, ijodkor, ilg'or, tashabbuskor pedagoglarni aniqlash, o'zaro tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish, ta'lim-tarbiya berish jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etilishini samarali tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan yangi pedagog texnologiyalarni ommalashtirilishni tizimli shakllantirish hamda uslubiy birlashmalar faoliyatini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan.

Nizom barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari uchun tashkil etilgan uslubiy birlashmalar faoliyatini tartibga soladi. Nizom quyidagi tuzilishga ega:

- I. Umumiy qoidalar.
- II. Uslubiy birlashmalar asosiy vazifalari.
- III. Uslubiy birlashma ishini tashkil etish va unga rahbarlik qilish.
- IV. Uslubiy birlashmalar vakolatlari va majburiyatlari.
- V. Uslubiy birlashmalar faoliyatini qo'lab-quvvatlashda tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining vazifalari.
- VI. Uslubiy birlashmalar tomonidan yuritiladigan hujjatlar.
- VII. YAKUNLOVCHI qoidalar.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari uchun Uslubiy birlashmalar barcha tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari qoshida tashkil etiladi va barcha zaruriy sharoitlarni yaratib beradi. Uslubiy birlashmalarining maqsadi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining har bir yo'nalishi bo'yicha (maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagog va mutaxassisliklardan kelib chiqib) maktabgacha ta'lim yoshidagi turli yosh davrlarida tegishli ta'lim faoliyatini muvofiqlashtirib, zamonaviy ta'lim-tarbiya berishning innovatsion g'oya va yangi ilg'or pedagogik tajriba, ijodiy tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etish, texnologiyalarni o'rganish va keng targ'ib qilish, ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasb-mahoratini oshirishda muntazam «O'z ishing ustasi» va «Mahorat maktablari», joylarda amaliy mashg'ulot, yangi pedagogik adabiyot, ta'limiy va didaktik o'yin vositalari ko'rgazmasi, seminar-treninglarni tashkil etish orqali metodik yordam ko'rsatishdan iborat.

Uslubiy birlashmalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni, «11k va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari», «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti» va Maktabgacha ta'lim vazirligi boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlangan boshqa me'yoriy hujjatlar hamda «Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti

pedagog xodimlari uchun Uslubiy birlashmalar to'g'risida»gi namunaviy Nizom asosida tashkil etiladi.

Nizomda uslubiy birlashmalarning asosiy vazifalari ham ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra uslubiy birlashmalar :

- maktabgacha ta'lim siyosatini yurituvchi vakolatli organlari tomonidan maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish yo'nalishiga oid me'yoriy hujjatlar va metodik ishlarni o'rganadi hamda ularni ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish yo'llarini ko'rsatib beradi va ishlab chiqish;
- «Tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlari», «Ustoz va shogird» an'alarini, ta'lim-tarbiya jarayonida o'tkazilayotgan eksperimental metodik jarayonlarni, hududiy boshqarmalar huzurida tashkil etilgan «O'quv-metodik ishlarni muvofiqlashtirish Kengashlariga» yangi didaktik o'yin, uslubiy qo'llanmalarni taviya qilish va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar uchun zarur bo'lgan pedagogik jarayonlarni muvofiqlashtirish;
- mutaxassis va pedagoglarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish maqsadida, ta'lim-tarbiya faoliyatining zamon talabiga mosligini, fo'yilgan talablarning bajarilishi va ijodiy fikrlarning ta'lim jarayoniga to'g'ri yo'galtirilganligini kuzatib borish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mutaxassis va pedagoglarni «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari» sohalarining bajarilishi va «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti» asosida ishoarini tahlil qildai va zaruriy tavsiyalarni ishlab chiqish;
- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi o'quv yili oldidan o'quv dasturlarini ko'rib chiqish va zarur tavsiyalarni bergan holda Pedagogik Kengashlarda ko'rib chiqish uchun tavsiya qilish;
- tuman (shahar) miqyosida tegishli ta'lim yo'nalishlardagi metodik qo'llanma va didaktik materiallar bilan ta'minlash darajasini tahlil qilish hamda ularga bo'lgan ehtiyojini aniqlash;

- yangi dasturlar, metodik qo'llanma va boshqa metodik nashrlar, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoniga doir ilmiy maqolalarni o'rganadi va hayotga tadbiiq etish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;
- maktabgacha ta'lim tizimidagi boshqaruv organlari ko'rsatmasi bilan sohaga oid yaratilgan yangi dastur, qo'llanmalarni ta'lim jarayoniga tatbiiq qilgan holda kuzatuvlarni olib boradi, tahlil qiladi va asoslangan takliff, xulosalarni tegishli tartibda yuqori turuvchi organlarga taqdim etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maxsus sanitariya-gigena talablari asosida jihozlanishiga metodik yordam berish;
- tuman (shahar) miqyosida tegishli yo'nalish bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalar, ilg'or ish tajribalarni o'rganishga yo'naltirilgan o'quv-metodik seminarlar tashkil etish kabi vazifalarni bajaradi.

Respublika maktabgacha ta'lim metodikasi xonasi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi huzurida tashkil etilib, mazkur soha bo'yicha yetakchi tuzilma sifatida barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini uslubiiy jihatdan boshqaradi va muvofiqlashtirib boradi.

Markaziiy metodika kabineti – viloyat, shahar, Qoraqalpog'iston respublika metodika kabineti ishini nazorat qiladi. Metodika kabinetining asosiiy vazifalari tegishli xalk ta'limi bo'limlari – metodik kabineti ishini nazorat kilish; tarbiyachilar va maktabgacha ta'limi xodimlarining ixtisosini oshirish, eng yangi ilg'or ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirishdan iboratdir.

Respublika maktabgacha ta'lim metodikasi kabineti o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan chiqarilgan qarorlar, farmoyishlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslanib ish yuritadi.

Respublika maktabgacha ta'lim metodikasi kabineti Qori Niyoziiy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy- tadqiqot instituti, Abdulla Avloniiy nomidagi maktabgacha ta'lim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziiy instituti, Maktabgacha tashkilotlar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va boshqa ilmiy tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini

o'rnatadi.

Respublika maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetlariga uslubiy yordam ko'rsatish, pedagogik jarayonlar va ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, «*Ilk qadam*» o'quv dasturini to'liq bajarilishini ta'minlaydi;

Ilg'or ish tajribalarni o'rganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari, maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetlari, nazoratchi-metodist, direktorlar, metodistlar va tarbiyachilar, murabbiylar faoliyatini tahlil etish asosida);

Maktabgacha pedagogika ilg'or pedagogik tajribalarni, pedagogika, psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar, xalq pedagogikasi an'analariga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishlarini takomillashtirishning ilmiy- uslubiy asoslari, yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqadi.

Metodika kabineti o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga ko'ra:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar maktabgacha ta'lim metodika kabineti ish faoliyatini nazorat etadi va muvofiqlashtiradi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya ishlar ahvoli va belgilangan rejalarning bajarilishini o'rganadi;

«*Ilk qadam*» davlat o'quv dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va bajarilishini nazorat qiladi;

Respublika metodika kabineti xodimlarini malaka oshirish kurslarida ma'ruzalar o'qishga, seminar-mashg'ulotlar o'tkazishga va to'garaklar ishini olib borishga jalb etadi.

Respublika maktabgacha ta'lim metodika kabineti huzurida tashkil etilgan uslubiy Kengash metodikasi kabinetlari faoliyatiga yangi uslubiy yondashuvlar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga mas'uldir. Kengash tarkibiga metodistlar, o'qituvchilar malakasini oshirish instituti rahbari va mutaxassislari, direktorlar,

tarbiyachilar, musiqa rahbarlari, oliy o'quv yurtlarining yetuk professor-o'qituvchilari kiradi.

Uslubiy Kengashda markaziy maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetining ish rejasi, bajarilgan va rejalash- tirilayotgan tashkiliy, uslubiy tadbirlar muhokama etiladi, ta'lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish, jumladan, metodika kabinetlarining ilg'or pedagogik tajribalarni to'plash borasidagi amaliy faoliyati, maktabgacha ta'lim bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni muhokama qilish, tasdiqlash bilan bog'liq masalalar hal etiladi.

Respublika maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetida xodimlarning bilimi va malakasini oshirish maqsadida tegishli shart-sharoit yaratiladi (buning uchun ma'ruzalar, seminar- treninglar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi). Respublika maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetida ilmiy pedagogik va uslubiy adabiyotlar uchun kutubxona tashkil qilinadi.

Tuman maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetining sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Maktabgacha ta'lim vazirligi, boshqarmalari va bo'limlari tomonidan chiqarilgan qarorlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlar asosida besh yilga mo'ljallangan istiqbol rejasi tuziladi.

Yillik rejada metodika kabinetining har bir o'quv yiliga taalluqli faoliyati aks etadi. Chorak va oylik rejalarida yillik reja belgilangan vazifalarning bajarilishi muddati aniq qayd etiladi.

Tuman maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetining yillik ish rejasi tumandagi uslubiy ishlarni bosqichma-bosqich, mazmunli tashkil etilishini ta'minlash kerak. Bunda asosiy e'tibor o'quv, ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi faoliyatini o'rganish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uslubiy ishlarni tashkil etish va takomillashtirib borish, direktor, metodist, tarbiyachilarga o'quv faoliyati, mehnat, estetik, musiqa tarbiyasi bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish tashkilotlarda kasalliklarning oldini olish va profilaktikasini yo'lga qo'yish, yasli va aralash guruhlarda, shuningdek, bolalar soni kam bo'lgan tashkilotlar faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etish kabi masalalarning bajarilishiga qaratiladi.

Rejada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini maqsadli, birlamchi yoki tizimli

tekshirish tadbirlari alohida o'rin tutadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tekshiruv shakli uning maqsadi va mazmuniga bog'liq. Bunday tadbirlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bilan tanishish, ularda kechayotgan jarayonlardan doimo xabardor bo'lib turishni ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, tekshiruv rejasi barcha tashkilotlarni qamrab olishi kerak.

Rejada maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni va nomi ko'rsatiladi. Xulosa qilib aytganda, tuman maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetining asosiy vazifasi - pedagogika va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida erishilgan yutuqlarni, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va tahlil qilish asosida maktabgacha tarbiya tashkilotlarining kundalik faoliyatiga doir yutuq va tajribalar, yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etish borasida amaliy uslubiy yordam berishdan iborat.

Bu o'rinda tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tavsiya etilgan bilimli, tajribali va ilg'or pedagoglarning uslubiy birlashmalar, seminar mashg'ulotlari, ma'ruzalar va boshqa anjumanlarni tashkil etish borasidagi sa'y-harakatlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodika kabineti xodimlari Respublika maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetiga Malaka oshirish markazi direktori rahbarlik qiladi. U oliy pedagogik bilimga va tashkiliy-uslubiy ishlarni tashkil etish borasida muayyan tajribaga ega bo'lishi lozim. Uning zimmasiga kabinetning uslubiy, moliyaviy xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qilish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, mehnat qonunchiligiga binoan xodimlarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi.

Metodik ishlar markazi direktori tavsiyasi bilan maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan tayinlanadigan oliy pedagogik ma'lumot va kamida 5 yillik ish stajiga ega bo'lgan malakali uslubchilar tomonidan amalga oshiriladi. Respublika maktabgacha ta'lim metodikasi kabinetining shtatlari O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan belgidanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida butun metodik ishning markazi metodika xonasi hisoblanadi. Pedagogik jarayonni uyushtirish, ota-onalar bilan ishlash, pedagogik mahoratlarni oshirish va mustaqil o'qishlarni tashkil qilishda

tarbiyachilarga amaliy yordam ko'rsatishdagi etakchi rol metodika xonasi zimmasidadir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonlariga rahbarlik qilishining asosiy yo'nalishlari:

- 1) har bir guruhdagi ta'lim-tarbiya ishlari reja asosida tashkil etilishini nazorat qilish, tarbiyachining ish hujjatlarini, jumladan, guruhning ta'lim-tarbiya ishlari rejasi, diagnostika daftari, amalga oshirilgan ishlar hisobotini o'rganish va tahlil etish;
- 2) guruh xonalarining jihozlanishi, ularning tegishli o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali vositalar, o'yinchoqlar bilan ta'minlanishini nazorat etish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayonlari tarkibiga:

- ✓ mashg'ulotlar (o'quv faoliyati);
- ✓ o'yin faoliyati;
- ✓ mehnat faoliyati;
- ✓ sayr va ekskusiyalar kiradi.

O'quv faoliyatini tashkil etilishini nazorat qilish:

1. Tarbiyachining mashg'ulotdagi tashkiliy faoliyati:

- mashg'ulot konspektining borligi;
- ko'rgazmali qurollar bilan jihozlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligi;
- mashg'ulotni tashkil etishga qo'yiladigan psixologik va gigienik talablarning bajarilishi;
- vaqtdan foydalanishning samaradorligi;
- butun mashg'ulot. Uning qism va bosqichlarining davomiyligi.
- didaktik printsiplarga amal qilishi;
- bolalarning o'zlashtirish darajasi bo'yicha tabaqalashtirishga e'tibor qaratishi;
- "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilangan mazmunning bajarilish darajasi (didaktik maqsadga erishish);
- mashg'ulotda foydalanilayotgan metodlarning optimalligi;
- mashg'ulot mantig'ining bolalar yoshi va rivojlanish darajasiga muvofiqligi;

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash darajasi.

Pedagogning mashg'ulotdagi tarbiyaviy faoliyati:

- mashg'ulotning g'oyaviy yo'nalganligi;
- bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari qay darajadahal etilganligi;
- mashg'ulotni bolalarga estetik ta'sir darajasini, boshqa tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalanish darajasini baholash asosida analiz qilish.

Mashg'ulotlarda pedagogning shaxsga oid sifatlarining namoyon bo'lishi:

- tarbiyachining nutqi (tempi, diktsiyasi, emotsionalligi, ifodaliligi);
- pedagogning madaniyati, odobi, bolalarga nisbatan tutgan pozitsiyasi;
- mashg'ulotlarda gurug'ga pedagogik rahbarlik uslubi (avtoritar, demokratik, liberal);
- pedagogning mashg'ulotlardagi tashqi ko'rinishi.

O'yin faoliyatini nazorat qilish.

O'yin faoliyati uchun sharoitlarning ta'minlanganligi:

- ✓ o'yin uchun vaqt miqdorining etarliligi;
- ✓ o'yin faoliyatini kengaytirish uchun joyning, zarur o'yinchoq va qo'llanmalarning mavjudligi va xonada ularni to'g'ri joylashtirilishi;

bolalarni taassurotlar bilan boyitish va ularning yaxshi kayfiyatleri.

O'yin faoliyatiga rahbarlik qilish metodikasi:

- ✓ bolalarning emotsional-ijobiy holatlarini qo'llab-quvvatlash va yaxshilashga yo'llangan metodlar va usullar;
- ✓ o'yin ishtirokchilarining faolligini ta'minlash;
- ✓ faoliyatning bir turidan boshqasiga o'z vaqtida o'tish, bunga qanday metod va usullar bilan erishiladi;
- ✓ o'yin faoliyatini uzaytirish va murakkablashtirish;
- ✓ ijobiy o'zaro munosabatlar va boshqa axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Mehnat faoliyatini nazorat qilish:

- rejada bolalar mehnatining barcha turlari aks etganmi (maishiy-xo'jalik mehnati, qo'l mehnati, tabiatdagi mehnat);

- mehnat jarayonlari qaysi rejim vaqtlariga rejalashtirilgan (nonushtagacha, mashg'ulotlarda, sayrda, kechki vaqtlarda);
- tarbiyaviy masalalar rejada qanday aks ettirilgan (mehnatsevarlik, mas'uliyat, o'zaro yordam...);
- mehnat faoliyatiga rahbarlik usullarining rejalashtirilishi;
- bolalami kattalar mehnati bilan tanishtirish metodlarining xilma-xilligi;
- mehnat rejasining "Bolajon" dasturi talablariga muvofiqligi;

ota-onalar bilan ishlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida uslubiy ishlarning asosiy yo'nalishlari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.
2. Pedagogik hujjatlarni yuritish.
3. Yosh tarbiyachilarga metodik yordam ko'rsatish.
4. Ta'lim-tarbiya ishini uyushtirish va uni nazorat qilish.
5. Bolalar hayotini tashkil qilish va ularni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llanilishini ta'minlash.

- ✓ O'quv ulotlar (o'quv faoliyati);
- ✓ o'yin faoliyati;
- ✓ mehnat faoliyati;
- ✓ sayr va ekskusiyalar kiradi.

O'quv faoliyatini tashkil etilishini nazorat qilish:

2. Tarbiyachining mashg'ulotdagi tashkiliy faoliyati:
 - mashg'ulot konspektining borligi;
 - ko'rgazmali qurollar bilan jihozlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligi;
 - mashg'ulotni tashkil etishga qo'yiladigan psixologik va gigienik talablarning bajarilishi;
 - vaqtdan foydalanishning samaradorligi;
 - butun mashg'ulot. Uning qism va bosqichlarining davomiyligi.
 - didaktik printsiplarga amal qilishi;
 - bolalarning o'zlashtirish darajasi bo'yicha tabaqalashtirishga e'tibor qaratishi;

- “Bolajon” dasturida belgilangan mazmunning bajarilish darajasi (didaktik maqsadga erishish);
- mashg‘ulotda foydalanilayotgan metodlarning optimalligi;
- mashg‘ulot mantig‘ining bolalar yoshi va rivojlanish darajasiga muvofiqligi;
- ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash darajasi.

Pedagogning mashg‘ulotdagi tarbiyaviy faoliyati:

- mashg‘ulotning g‘oyaviy yo‘nalganligi;
- bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari qay darajadahal etilganligi;
- mashg‘ulotni bolalarga estetik ta‘sir darajasini, boshqa tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalanish darajasini baholash asosida analiz qilish.

Mashg‘ulotlarda pedagogning shaxsga oid sifatlarining namoyon bo‘lishi:

- tarbiyachining nutqi (tempi, diktsiyasi, emotsionalligi, ifodaliligi);
- pedagogning madaniyati, odobi, bolalarga nisbatan tutgan pozitsiyasi;
- mashg‘ulotlarda gurug‘ga pedagogik rahbarlik uslubi (avtoritar, demokratik, liberal);
- pedagogning mashg‘ulotlardagi tashqi ko‘rinishi.

O‘yin faoliyatini nazorat qilish.

O‘yin faoliyati uchun sharoitlarning ta‘minlanganligi:

- ✓ o‘yin uchun vaqt miqdorining etarililigi;
- ✓ o‘yin faoliyatini kengaytirish uchun joyning, zarur o‘yinchoq va qo‘llanmalarning mavjudligi va xonada ularni to‘g‘ri joylashtirilishi;

bolalarni taassurotlar bilan boyitish va ularning yaxshi kayfiyatlarini.

O‘yin faoliyatiga rahbarlik qilish metodikasi:

- ✓ bolalarning emotsional-ijobiy holatlarini qo‘llab-quvvatlash va yaxshilashga yo‘llangan metodlar va usullar;
- ✓ o‘yin ishtirokchilarining faolligini ta‘minlash;
- ✓ faoliyatning bir turidan boshqasiga o‘z vaqtida o‘tish, bunga qanday metod va usullar bilan erishiladi;
- ✓ o‘yin faoliyatini uzaytirish va murakkablashtirish;
- ✓ ijobiy o‘zaro munosabatlar va boshqa axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

Mehnat faoliyatini nazorat qilish:

- rejada bolalar mehnatining barcha turlari aks etganmi (maishiy-xo‘jalik mehnati, qo‘l mehnati, tabiatdagi mehnat);
- mehnat jarayonlari qaysi rejim vaqtlariga rejalashtirilgan (nonushtagacha, mashg‘ulotlarda, sayrda, kechki vaqtlarda);
- tarbiyaviy masalalar rejada qanday aks ettirilgan (mehnatsevarlik, mas‘uliyat, o‘zaro yordam...);
- mehnat faoliyatiga rahbarlik usullarining rejalashtirilishi;
- bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish metodlarining xilma-xilligi;
- mehnat rejasining “Bolajon” dasturi talablariga muvofiqligi;

ota-onalar bilan ishlash.

Мактабгача таълим ташкилотида услубий ишларнинг asosiy yo‘nalishlari:

6. MTTda ta’lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.
7. Pedagogik hujjatlarni yuritish.
8. YOsh tarbiyachilarga metodik yordam ko‘rsatish.
9. Ta’lim-tarbiya ishini uyushtirish va uni nazorat qilish.
10. Bolalar hayotini faoliyatini kuzatish va tahlil qilish.
11. Pedagogik Kengash, seminar va konsultatsiyalarni tashkil etish.
12. Ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirish.
13. Bolalar bog‘chasi, oila va jamoatchilik hamkorligini yo‘lga qo‘yish.
14. Metodik kabinetni jihozlash va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Nazorat savollari:

1. Metodik xizmat ko‘rsatishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonlariga rahbarlik qilishining asosiy yo‘nalishlarini izohlang.
3. «Metodist maktabi» xonasini tashkil etishning maqsadi qanday?
4. Respublika maktabgacha ta’lim metodikasi xonasi qanday vazifalarni bajarishi ko‘zda tutilgan.

GLOSSARIU

Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar — nogironligi bo'lganidan yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar.

Axborot bilan ishlash – turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, ta'lim oluvchilar guruhi va pedagogik xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladigan usul.

Bola kompetensiyasi — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun etarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatları

Bolaga yo'naltirilgan yondashuv - bu bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, talab-ehtiyojlari, uning ta'lim maqsadlariga erishish uchun yordam beradigan maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgunga qadar to'plagan tajribasini e'tiborga oladigan ta'lim shakli.

Bola huquqlari haqida Konvensiya - bu butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Birlashgan Millatlar tashkilotining shartnomasidir. U bolalar rivojlanishining turli bosqichlarida bolalar farovonligining mavjud mezonlarini aniqlaydi va bolalar huquqlarini himoya qiladi.

Bolaning qonuniy vakillari - bolaning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar.

Boshqaruv muloqoti – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonidagi muloqot, ya'ni sub'ektlarning faolliklarini ta'minlash, xatti-harakatlarini maqsadga yo'naltirish yoki motivlashtirishdir.

Bola huquqi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari Konvensiyasi tomonidan tasdiqlangan umumiy, me'yoriy qonun qoidalar majmui.

Boshqaruv pog'onasi – tashkiliy tuzilishga ko'ra ta'lim muassasasining yuqori bo'g'ini (rahbarlar) bilan quyi bo'g'ini (ijrochilar) o'rtasidagi masofaning katta-kichikligi – pog'onaviyligi, ya'ni bu bir zvenoning (xodimning) boshqasiga bo'ysunish ketma-kelligidir. Rahbar bilan oddiy ijrochi o'rtasidagi masofa qanchalik katta bo'lsa

(darajalar soni) ta'lim muassasalaridagi pog'onaviylik darajasi shunchalik katta bo'ladi.

Boshqaruv strategiyasi -ko'zlangan maqsadlarga erishishda pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, strategik reja asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo'nalishida asosan boshqaruvning ikki xil turi nazarda tutiladi: strategik boshqaruv, kon'yunkturaviy boshqaruv. Amaliy faoliyatda u yoki bu boshqaruv yo'nalishining ustunligi tashkiliy tizimning yangilik darajasi ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Boshqaruv uslubi – bu muassasa oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda xodimlarni boshqarish hamda boshqaruv jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan usullar, yo'llar majmuidir. Boshqaruv faoliyatining uslublarini shakllantirish ma'lum darajada rahbarning yashash va mehnat qilish sharoitlariga asoslanadi (mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar, boshqaruv faoliyati muhiti va h.k.) va boshqaruv sub'ektlarining harakatlariga tizim orqali ta'sir ko'rsatgan holda uning individual uslublarini rivojlantiradi.

Boshqaruv faoliyati – ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'ektlar, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv ob'ekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z o'rnida boshqaruv natijalariga va boshqaruv sub'ektiga ta'sir ko'rsatadi.

Boshqaruv – bu so'z odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi tizim (yoki boshqaruv ob'ekti)ga faol ta'sir ko'rsatish to'g'risida gapirilganda qo'llaniladi. Bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi faoliyat bo'lib, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir.

Boshqaruv algoritmi – bu ta'lim muassasasi rahbarlari boshqaruv faoliyatining ketma-ketligi (izchilligi) bo'lib, u ettita bosqich: pedagogik jarayonning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishlash va ob'ektiv baholash; boshqaruv faoliyati maqsadini belgilash; boshqaruv faoliyatini oldindan ko'rish (anglash) va rejalashtirish; kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish; jamoa

faoliyatini nazorat qilish va tashxis; jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish; ta'lim muassasasi faoliyatining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlashdan iborat, mazkur bosqichlar izchilligida, boshqaruv metodlari: ma'muriy, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, shuningdek, axborotlar to'plash metodlarini qo'llash yordamida boshqaruv funksiyalarining bajarilishi amalga oshiriladi.

Boshqaruv vakolatlari – ta'lim muassasasini boshqarishda ta'lim muassasasi rahbari yoki boshqa rahbarlar tomonidan o'z qo'l ostidagi xodimlarga o'zi javobgar bo'lgan vazifalarni, ma'lum bir masalani hal etish yoki tashkiliy ishlarni amalga oshirishda rahbarlik qilish huquqini vaqtincha berishidir.

Boshqaruv vositalari – innovatsiyalar boshqaruv madaniyatining eng muhim va asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi va ular innovatsion jarayonlarda nafaqat o'zining tavsifi va xususiyatlari bilan, balki boshqaruv madaniyatining eng muhim xususiyatlari sifatida ham belgilanadi. Bu o'z navbatida innovatsiyalarning sifatini belgilash bilan bir qatorda ularning namoyon bo'lishi vaqtlarini ham oldindan belgilaydi.

Boshqaruv jarayoni negizi – har qanday ta'lim muassasasining asosiy vazifasi hisoblangan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va uni takomillashtirish negizi boshqariladigan ob'ekt va boshqaruvchi sub'ekt tizimlaridan tashkil topadi. Bu tizim rahbarlar, professor-o'qituvchilar va o'quvchi-talabalar (sub'ekt)ni pedagogik jarayonlar (ob'ekt)ga munosabatlarini ifodalaydi.

Boshqaruv madaniyati – umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma'lum bir ijtimoiy madaniyat kontekstida boshqaruv tushunchalari, munosabatlarning o'zaro ta'sir etishi natijasida shakllanadi va unda qator kattaliklar – an'anaviylik, dolzarblik darajasi, motivlashtirish tizimi; rahbarlik uslublari, tashkiliy muhitning sifati; kommunikatsiyalar; personalni boshqarish; boshqaruv strategiyasi; rahbar va pedagog-xodimlarning kasbiy madaniyati rasmiy jihatdan namoyon bo'ladi.

Boshqaruv mas'uliyati – ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish, pedagogik jarayonlarni zamonaviy talablarga mos, ilmiy asosda tashkil

etish, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda umumiy manfaatlarni ko'zlovchi natijalarga erishish uchun qabul qilgan qaror, uning ijrosi, o'z xatti-harakati va faoliyati uchun javobgarlikning rahbarlar va professor-o'qituvchilar tomonidan his qilinishidir.

Boshqaruv muloqoti – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonidagi muloqot, ya'ni sub'ektlarning faolliklarini ta'minlash, xatti-harakatlarini maqsadga yo'naltirish yoki motivlashtirish.

Boshqaruv pog'onasi – tashkiliy tuzilishga ko'ra ta'lim muassasasining yuqori bo'g'ini (rahbarlar) bilan quyi bo'g'ini (ijrochilar) o'rtasidagi masofaning katta-kichikligi – pog'onaviyligi, ya'ni bu bir zvenoning (xodimning) boshqasiga bo'ysunish ketma-ketligi.

Boshqaruv uslubi – bu muassasa oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda xodimlarni boshqarish hamda boshqaruv jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan usullar, yo'llar majmui.

But qilinmagan davlat maktabgacha ta'lim muassasalari — rejadagi quvvatining 50 foizi ham but qilinmagan davlat maktabgacha ta'lim muassasalari;

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot;

Demokratik rahbar – bunday turdagi rahbar o'z faoliyatini o'zining jamoasi a'zolariga tayangan holda, jamoa fikrini inobatga olib amalga oshiradi. Boshqaruv vakolatlari, faoliyat uchun javobgarlik bo'ysunuvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Xodimlarning o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga quloq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi.

Davlat-xususiy sheriklik — xususiy investitsiyalarni jalb qilish, resurslarni birlashtirish va xavf-xatarlarni taqsimlash maqsadida davlat sherigi va xususiy sherikning aniq muddatga yuridik rasmiylashtirilgan maktabgacha ta'lim sohasidagi o'zaro samarali hamkorligi;

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim (keyingi o'rinlarda matnda bitim deb yuritiladi) — tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek davlat-xususiy sheriklik loyihasini ijro etishning boshqa shartlarini belgilab beradigan davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida tuzilgan yozma shartnoma;

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim tomonlari (keyingi o'rinlarda matnda tomonlar deb yuritiladi) — davlat sherigi va xususiy sherik;

Davlat sherigi — O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim vazirligi

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim ob'ekti (keyingi o'rinlarda matnda ob'ekt deb yuritiladi) — bitim bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish maqsadida foydalanilishi mumkin bo'lgan er uchastkalari, bo'sh turgan binolar, shu jumladan ishlamaydigan va but qilinmagan davlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshqa ob'ektlar;

Davlat-xususiy sheriklik loyihasi — muhim davlat, ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy-texnik ahamiyatga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasidagi investitsiyaviy, innovatsion, infratuzilmaviy va boshqa tadbirlar majmui;

Diagnostika (tashxislash) - pedagogikaning bo'limi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligini, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorgarliklari, bilim, ko'nikma, malaka va mahoratlarini, o'quvchi va maktabgacha yoshdagilarning bilimlarni o'zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi.

Funksional boshqaruv deyilganda kadrlar sohasidagi ishlar bilan bog'liq bo'lgan barcha vazifalar va qarorlar, masalan, kadrlar tanlash, ulardan foydalanish, malakasini oshirish, ularning mehnatiga haq to'lash, rag'batlantirish va mukofotlash, lavozimlarga tayinlash, ishdan bo'shatish va h.k. tushuniladi.

Funksional strategiya – pedagogik jarayon sub'ektlari, ta'lim muassasasining bo'limlari hamda jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlarining

funksional vazifalarini amalga oshirish usullarini o'z ichiga olgan ishchi strategiya hisoblanadi.

Funksiya – bu lotincha so'z bo'lib, biror kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi, vazifasi degan ma'nomlarni bildiradi. Rahbar o'zining ishlab chiqarish va texnologik vazifalarini bajarishi professional funksiyalarini belgilaydi va bunda rahbar professional-mutaxassis sifatida doimo insonlar bilan munosabatda bo'ladi.

Filantropik faoliyat — jismoniy va yuridik shaxslarning fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga mol-mulkni, shu jumladan pul mablag'larini beg'araz (bepul) o'tkazish, bepul tarzda ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, boshqacha ko'mak berish bo'yicha ixtiyoriy faoliyati;

Xususiy sherik — bitim tuzgan yoki bitim tuzish istagini bildirgan yuridik yoxud jismoniy shaxs. Davlat tashkilotlari xususiy sheriklar bo'la olmaydi, shuningdek xususiy sheriklar tarafida ishtirok eta olmaydi;

Inklyuziv ta'lim va tarbiya — bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayon

Ish yuritish – bu ta'lim muassasasining o'z funksiya va vazifalarini bajarishi davomida amalga oshiriladigan faoliyat va unga tegishli ko'rsatmalarni me'yoriy hujjatlar asosida rasmiylashtirish usullari va jarayonlari majmui

Ishbilarmonlik, ishchanlik, uddaburonlik xislatlari – quntlilik, tirishqoqlik, mas'uliyatlilik, halollik, raqobatbardoshlik, chaqqonlik, abjirlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, chidamlilik, sabr-toqatlilik, bardoshlilik, muntazamlilik, tejamkorlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, mardlik.

Kasbiy mahorat va loyihalashtirish – boshqaruvda strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, muassasaning umumiy faoliyatini loyihalashtirish, innovatsion faoliyatni tashkil etish, boshqaruv jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdir.

Kasbiy tajriba – avlodlarning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llashni ta'minlab beruvchi tushunchalar tizimi bo'lib, rahbarlar ...

professor-o'qituvchilarning o'z faoliyati davomida fan-texnika yangiliklariga, ilg'or tajribalarga tayanishi hamda mazkur tajribalar asosida o'zining ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borishi bilan bir qatorda, o'quvchi-talabalar faoliyatini boshqarishidir.

Kasbiy faoliyatning belgilari – ixtisoslashtirish, mehnat faoliyatining mohiyati va mazmuni, boshqaruv ob'ekti, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos vositalar, tushunchalar, boshqaruv faoliyatining natijasi, asosiy faoliyat uchun sarflangan vaqt, ish o'rning ko'lami va joyi.

Kasbiy qobiliyat – bu rahbarlar va professor-o'qituvchilarda intellektual, kasbiy malaka va ko'nikma, chidamlilik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, o'z fikrini yaxshi bayon eta olishi – notiqlik, ishontira olish, nazorat, kuzatuvchanlik, talabchanlik, xotirada saqlab qolish, tarbiyaviy munosabatlarda faollik hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish, boshqaruvchilik va liderlik xususiyatlarining shakllanganligi.

Kelishuv – professor-o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarning ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatishi uchun ma'lum muddatga tuzilgan shartnoma, boshqa tashkilotlar va o'quv yurtlari bilan ilmiy-amaliy hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha oldindan shartnoma tuzish tizimi

Kollegiallik – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish hamda sub'ektlar faoliyatida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va turli muammolarni hal qilishda hamkorlik qilish, shuningdek, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda sub'ektlarning (o'quchi-talaba) hamkorligini yo'lga qo'yish va birgalikda boshqarish.

Kommunikativlik qobiliyati – bu samimiy muloqotda bo'lishga, muloqotini to'g'ri tashkil etishga, o'quvchi talabalar bilan do'stona muloqot o'rnatish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan qobiliyatdir.

Kommunikatsiya – bu pedagogik jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro axborot almashinuvi bo'lib, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos murakkab tizim hisoblanadi va ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiralayotgan barcha ishlar axborotlarning samarali

almashishini talab qiladi, shuning uchun u o'zining funksional darajasi bilan tavsiflanadi va boshqaruv madaniyatining tashkiliy sifatini belgilaydi. Ta'lim muassasasi kommunikatsiyasi bu o'ziga xos murakkab va ko'p bosqichli tizim bo'lib, nafaqat ta'lim muassasasi ichidagi, balki uning tashqarisidagi axborot almashuvini ham qamrab oladi.

Konstruktiv ixtiloflar – ixtiyoriy muassasa hayotining muhim muammolari va unga qarashlar kurashi, fikrlar xilma-xilligidan iborat bo'lib, turg'unlik va qotib qolishning oldini olishga, rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qilishga, jamoaning maqsad sari ilgarilab borishiga, yangi an'ana va qadriyatlar shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Har qanday ixtilof asosida tomonlar o'rtasida avvalgi munosabatlarni inkor qilishga harakatlar yotganligi uchun yangi munosabatlar va yangi sharoitlar yaratishga olib kelishi mumkin.

Ko'nikma – belgilangan maqsadga muvofiq ravishda harakat usullarini tanlash va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanish.

Liberal rahbarlik – muhosozlik (ko'ngilchanlik)ka asoslangan rahbarlik uslubi. Liberal (erkin ish yuritish) rahbarlik uslubi professor o'qituvchilarning o'quvchi-talabalarga topshiriq va maslahatlarni tavsiyalar ko'rinishida berishi o'quvchi-talabalarining ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi.

Maktabgacha bo'lgan yosh — bolalarning tug'ilgan paytidan etti yoshgacha to'ularga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish boshlangan paytga qadara bo'lgan yoshi;

Maktabgacha ta'lim va tarbiya — bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi;

Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti — ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui;

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi — bola tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko'nikmalarning hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek ta'lim va tarbiya mazmunining o'ziga xosligini, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat;

Maktabgacha ta'lim tashkiloti — maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti;

Menejment – inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil etish (boshqarish, boshqaruv hokimiyati, tashkil etish), rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi.

Menejment – bu ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni individlar yoki ularning guruhlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmui.

Menejment (yoki boshqarish) - mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jaravonidir.

Menejer – ta'lim jarayoni yoki o'quv muassasasining boshqaruvchisi.

Menejment fani – bu rahbarlarga boshqaruv faoliyatini to'g'ri amalga oshirish, xodimlar faoliyatini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishda, shuningdek, korxonada va muassasada oldiga qo'yilgan maqsadlarga hamda ko'zlangan natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorlarni qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilish, tahlil qilish va ob'ektiv baholashni o'rgatuvchi fan bo'lib, uning asosiy maqsadi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda boshqaruvning barcha bo'g'inlarida samarali ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

Nazorat – bu boshqaruv jarayonining faol bosqichlaridan biri bo‘lib, u boshqaruvning barcha funksiyalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Umumiy holda rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o‘zaro solishtirish jarayoni bo‘lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Nazorat-tashxis funksiyasi - rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o‘zaro solishtirish jarayoni bo‘lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Nazorat qilish – davlat nazorati, xalq ta‘limi bo‘limlari tomonidan MTTlari va rahbarlari faoliyatini tekshirish shakli

Nazorat tartibida tekshirish - maktabgacha ga‘lim tashkilotlarining ilgari tekshirishda ko‘rsatilgan qonun buzilishlarini bartaraf etishi ustidan tekshirishga vakolatli organlar tomonidan amalga oshiradigan tekshirish.

Oldindan ko‘rish–rejalashtirish funksiyasi. Boshqaruv faoliyatini oldindan ko‘rish (anglash) va rejalashtirish funksiyasi uchun maqsadli-motivlashtirish boshlang‘ich asos bo‘lib xizmat qiladi, oldindan ko‘rish-rejalashtirish funksiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta‘sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me‘yori va natijalarini baholashga xizmat

Ota-onalar universiteti – ota-onalar orasida pedagogik bilimlarni targ‘ib etishga qaratilib, maktab, klub, mahallalar qoshida tashkil etilgan mashg‘ulotlar.

Ota-onalar qo‘mitasi – tarbiyaviy, xo‘jalik vazifalarini hal etishda maktabga yordam ko‘rsatuvchi ota-onalarning jamoatchilik uyushmasi

Filantropik faoliyat — jismoniy va yuridik shaxslarning fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga mol-mulkni, shu jumladan pul mablag‘larini beg‘araz (bepul) o‘tkazish, bepul tarzda ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, boshqacha ko‘mak berish bo‘yicha ixtiyoriy faoliyati;

OpenEMIS –bu ta‘lim muassasalari haqida ma‘lumotlarni to‘plash va ularni taqdim qilishga mo‘ljallangan ta‘lim sohasini boshqarish axborot tizimi.

Pedagogik kengash – bu metodik ishning doimiy faoliyat ko‘rsatadigan jamoatchilik shaklidir.

Pedagog kadrlar faoliyatini baholash metodikasi – pedagoglarning kasbiy faoliyati natijasini baholovchi metodika.

Pedagogning kasbiy standarti — maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko'nikmalariga doir asosiy talablarni majmui;

Qaror – bu ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirishda rahbarlar va xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarni bajarish yo'llarini tanlash va belgilash yoki innovatsion faoliyatni tashkil etishda ma'lum bir to'xtamga yoki muayyan bir fikrga kelish.

Rahbarlik – insonlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir.

Rahbar madaniyati – rahbar odobi va iqtidori o'rtasidagi dialektik bog'lanish. Bu bog'lanish odob, iymon, insof, adolat va iqtidor kabi fazilatlar majmuidan iborat bo'ladi. Rahbarning kasbiy madaniyati deganda rahbarning professionalligi, uning professional boshqaruv faoliyatini bajarishga tayyorgarlik darajasi tushuniladi. Bunda rahbarlarning maqsadga muvofiq u yoki bu kasbiy sifatleri alohida vaziyatlarda har bir rahbarning "ideal modelini" shakllantirishga asoslanadi.

Rahbarlik uslublari – rahbar o'zining boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar va xatti-harakatining taktika va strategiyalaridan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda bir tomondan strategiyalar bilan boshqaruv faoliyati mazmuni, boshqa tomondan bu tizimning o'zi, inson faoliyati muhitida turli ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar va shu qatori professional faoliyat boshqaruv sub'ektining rivojlanishida hamda uning professional mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Rahbarning o'z ishini tashkil qila bilishi - uning boshqaruv faoliyatini to'g'ri rejalashtirishi, ya'ni buyruq berish, topshiriq ijrosini tekshirish, xodimlar faoliyatini baholash hamda turli xil qarorlar qabul qilishi va uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi.

Rejalashtirish - bu zarur shart-sharoit, foydalanilayotgan vosita, shakl va uslublarni ko'rsatgan holda, ta'lim-tarbiya ishini amalga oshirishning tartibi va

ketma- ketligini oldindan belgilash jarayoni.

Rejali tekshirish - tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki ularning tegishli hududiy bo'linmalari bilan kelishgan holda tasdiqlangan tekshirishlar reja-jadvaliga asosan o'tkaziladigan tekshirish.

Rejadan tashqari tekshirish - tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki ularning tegishli hududiy bo'linmalari bilan kelishilgan holda tasdiqlangan tekshirishlar reja-jadvalida belgilanmagan holda o'tkaziladigan tekshirish.

Smeta – MTTning barcha harajatlari va ularni qoplash manbalari, byudjet ajratmalari va ota-onalar mablag'larini aks ettiradigan moliyaviy-me'yoriy hujjat

Strategik boshqaruv – bu ta'lim muassasasining strategik maqsadi yo'nalishida muassasa imkoniyatlarini professor-o'qituvchilarning umumiy manfaatlarini bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatga tuzilgan dastur, reja va loyihalar asosida boshqarishdir. Strategik boshqaruv, odatda, mazkur tizimni boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini belgilovchi keng innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Strategik qaror - bunday turdagi qarorlar ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etib, unda muassasaning uzoqqa mo'ljallangan rivojlanish vazifalari va maqsadlari belgilanadi. Strategik qarorlarni qabul qilishda ta'lim muassasasining istiqbolli harakat dasturi asos qilib olinadi, uzoq muddatlarga ko'zlangan maqsadlarga erishishda bajariladigan vazifalarning muddati belgilanadi, mavjud muammolarni hal etish yo'llari va uslublari ko'rsatiladi.

Strategik rajalashtirish - ta'lim muassasasining maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish jarayoni bo'lib, bunda maqsad va vazifalarning ilmiy asoslanganligi, belgilangan muddatlarning aniqligi va ob'ektivligi, ijrochilarning bilimi va kasb mahorati, tashqi muhit ta'siri, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, muassasa imkoniyatlari, shuningdek, boshqaruv

strategiyasi, ya'ni strategiyani amalga oshirishni boshqarish yo'nalishlari o'rganilib tahlil qilinadi.

Strategik reja – bu muassasada ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagogik jarayonda ko'zlangan maqsadlarga erishish – raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash yo'nalishida uzoq (besh, o'n yil va undan ko'proq muddatlarni o'z ichiga oladi) muddatlarga mo'ljallangan vazifalarni o'z ichiga olgan dastur (istiqbol reja) bo'lib, u ta'lim muassasasining hamda rahbar xodimlarning yillik va joriy rejalar uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim va tarbiyaning muqobil shakli - maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli

Ta'lim menejmenti – 1) ilmiy asosda tashkil etilgan, o'ziga xos izchillikka asoslangan boshqaruv; 2) boshqaruvni turli xil modellar asosida amalga oshiruvchi rahbar, pedagogik, jamoa va o'quvchilarning o'zaro munosabati.

Ta'limning boshqaruv strategiyasi – boshqarish yo'nalishlarini ifodalovchi istiqbolli rejalar.

Ta'lim tizimi – turli daraja va yo'nalishdagi o'zaro aloqador uzluksiz ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlari, tashkiliy huquqiy turlaridan qat'iy nazar ta'lim muassasalarining barcha tarmoqlari, ta'limni boshqaruv organlari va ular qoshidagi muassasa hamda tashkilotlarni qamrab oluvchi tizim.

Ta'limni strategik boshqaruv – ta'lim muassasasining strategik maqsadiga asoslangan holda uni boshqarish jarayoni.

Ta'limni strategik rejalashtirish – ta'lim muassasasining maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalar, boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini belgilash va amalga oshirishga qaratilgan reja.

Ta'limning boshqaruv strategiyasi – boshqarish yo'nalishlarini ifodalovchi istiqbolli rejalar.

Tekshirishga vakolatli organlar - maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar va idoralar hamda ularning hududiy bo'linmalari.

Tekshirish - maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan qonunlar hamda

ular faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotgailigini tekshirishga vakolatli organlarning bir marta nazorat qilishi.

Vaziyatli yondashuv – boshqarishning samaradorligini aniq vaziyatlarga ko‘ra aniqlash.

Yuridik shaxslar - xususiy mulk huquqi sub'ektlari va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari.

ILOVALAR

ILOVA-1

O'zbekiston Respublikasida 2016-2022 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini tashkil etish va boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari

№	Me'yoriy- huquqiy hujjatlar nomi
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2016 y. PQ-2707-son "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2017 y. PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi «Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3276-sonli Qarori
3.	O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" (O'zR Prezidentining 09.09.2017 y. PQ-3261-son qaroriga 1-ilova)
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 y. PF-5198-son "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 y. PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
6.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risida Nizom (O'zR VM 21.11.2017 y. 929-son qaroriga 1-ilova)
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2018 y. PQ-3651-son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
8.	Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi Nizom (O'zR Prezidentining 05.04.2018 y. PQ-3651-sonli qaroriga 1-ilova).
9.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.07.2018 y. 595-son "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash haqida"gi Qarori.
10.	Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida Nizom (O'zR VM 30.07.2018 y. 595-son qaroriga 1-ilova).
11.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2018 y. 681-son

	"Davlat-xususiy sherikchilik asosida zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
12.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2018 y. PQ-3955-son "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
13.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.11.2018 y. 944-son "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
14.	Maktabgacha ta'lim vazirining 21.11.2018 y. 2-mh-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Buyrug'i (AV tomonidan 03.12.2018 y. 3094-son bilan ro'yxatga olingan).
15.	Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi haqidagi Namunaviy nizom (AV tomonidan 03.12.2018 y. 3094-son bilan ro'yxatga olingan Maktabgacha ta'lim vazirining 21.11.2018 y. 2-mh-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan)
16.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 y. 999-son "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
17.	Maktabgacha ta'lim vazirining 13.12.2018 y. 3-mh-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Buyrug'i (AV tomonidan 18.01.2019 y. 3123-son bilan ro'yxatga olingan).
18.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom (AV tomonidan 18.01.2019 y. 3123-son bilan ro'yxatga olingan maktabgacha ta'lim vazirining 13.12.2018 y. 3-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan).
19.	Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tekshirish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 25.04.2019 y. 352-son qaroriga 1-ilova).
20.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2019 y. PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
21.	O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi (O'zR Prezidentining 08.05.2019 y. PQ-4312-son qaroriga 1-ilova).
22.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.05.2019 y. 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-

	tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
23.	Umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida Nizom (O'zR VM 13.05.2019 y. 391-son qaroriga 1-ilova).
24.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to'g'risida Nizom (O'zR VM 13.05.2019 y. 391-son qaroriga 2-ilova).
25.	Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida Nizom (O'zR VM 13.05.2019 y. 391-son qaroriga 3-ilova).
26.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi huzuridagi tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya to'g'risidagi Nizom (O'zR VM 13.05.2019 y. 391-son qaroriga 4-ilova).
27.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019 y. 487-son "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
28.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.07.2019 y. 626-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori.
29.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 25.07.2019 y. 626-son qaroriga 1-ilova).
30.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 25.07.2019 y. 626-son qaroriga 2-ilova).
31.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.08.2019 y. 696-son "Namangan viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
32.	O'zbekiston Respublikasining 16.12.2019 y. O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 22.10.2019 y. qabul qilingan, Senat tomonidan 14.12.2019 y. ma'qullangan).
33.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2020 y. PQ-4581-son "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
34.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2020 y. 132-son "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

35.	Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 09.03.2020 y. 132-son qaroriga 2-ilova).
36.	Boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlovdan o'tganlik to'g'risida sertifikat berish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 09.03.2020 y. 132-son qaroriga 4-ilova).
37.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020 y. 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
38.	Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti (O'zR VM 22.12.2020 y. 802-son qaroriga 1-ilova).
39.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.04.2021 y. PQ-5071-son "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
40.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2021 y. PQ-5125-son "Hududlarda maktabgacha ta'lim xizmatlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
41.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.06.2021 y. PQ-5144-son "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
42.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.06.2021 y. 407-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
43.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.06.2021 y. 406-son "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun innovatsion tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
44.	Maktabgacha ta'lim vazirining 09.07.2021 y. 125-son "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi buyruqni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi Buyrug'i (AV tomonidan 15.07.2021 y. 3032-1-son bilan ro'yxatga olingan).
45.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.08.2021 y. 494-son "Mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
46.	Maktabgacha ta'lim mobil guruhlar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 03.08.2021 y. 494-son qaroriga ilova).
47.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.10.2021 y. 632-son

	"O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining idoraviy mansubligidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
48.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida" 255-son buyrug'i.
49.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 11 yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida odob-axloq qoidalariga rioya etilishini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 11-son buyrug'i.
49.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 12 iyulda "Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida" 128-son buyrug'i.
50.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 10 iyulda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida kadrlarni rotatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" 99-sonli buyrug'i.
51.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2018 yil 21 noyabrda "Maktabgacha ta'lim muassasasining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida" 2-mh-son buyrug'i.
52.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 mayda 418-sonli «Maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 418-sonli Qarori.
53.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 30 dekabrda 255-sonli «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i.
54.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.04.2019 y. 352-son "Maktabgacha hamda umumta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari

RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil « 30 » avgust 155 -sonli buyrug'iga I-ILOVA

Y/j indeksi	Yig'ma jild nomi	Saqlanish muddati va modda	Izoh
01 - Boshqaruv hujjatlari			
01-01	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim sohasiga oid me'yoriy-xuquqiy hujjatlar (O'zR Qonunlari, O'zR Prezidenti farmonlari, qaror va farmoyishlari, O'zR Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari va	Zarurat qolmaguncha 1 ^b , 2 ^b , 9 ^b -moddalar	
01-02	Tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan yuborilgan buyruq, xat va hujjatlar	Zarurat qolmaguncha	
01-03	MTTning Ustavi	Doimiy 31 -modda	
01-04	Turli tashkilot va idoralardan kelgan hujjatlar	5 yil	
01-05	Jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlari	3 yil ' 65 b - modda	Tez-tez murojaat qilgan hollarda oxirgi
01-06	MTTning asosiy faoliyatga doir buyruqlari va ularning nushalari	Doimiy 5 a -	
01-07	MTT tomonidan chiqarilgan xatlar hamda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar	3 yil 898 - modda	
01-08	"O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"	Doimiy 57-modda	
01-09	"Ilk qadam" Davlat o'quv Dasturi	5 yil ETK ¹ 629-modda	YAngisi bilan almashtirilgan
01-10	MTTning qonuniy asosda joylashuvi bo'yicha o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan kadastr hujjati, moddiy-texnik bazasining holatini aks ettiruvchi tashkilot pasporti	Doimiy 5 yil ²	Asosiy mablaglar tugatilgandan so'ng

01-11	MTTning yillik sarf- xarajatlar smetasiga berilgan takliflar hamda smetaning o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan nushasi a) yilliklar; b) chorakliklar	Doimiy 3 yil ² 222-modda	Yilliklar yo'q bo'lsa - doimiy
01-12	Shtatlar jadvali va pedagog xodimlarning tarifkatsiyasi	Doimiy 46-modda	
01-13	MTTning yillik ish	Doimiy	
I/j indeksi	Yig'ma jild nomi	Saqlanish	Izoh
	rejasi va ularning bajarilishiga oid hujjatlar	170-modda	
01-14	Pedagogik kengash rejasi va uning hujjatlari	Doimiy	
01-15	Maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashi hujjatlari	Doimiy	
01-16	Taftish komissiyalari, auditorlar, davlat moliyaviy nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv xulosalari, dalolatnomalar	5 yil ETK ¹ 80-	Navbatdagi tekshiruv
01-17	Attestatsiya-akkreditatsiya natijalari bo'yicha ma'lumotnoma va dalolatnomalar, sertifikatlar	5 yil ETK	
01-18	Tashkilot rahbariyati almashganda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomalari va ularga oid ilova hujjatlar	Doimiy 54-modda	
01-19	Maktabgacha ta'lim tashkilotga tashrif buyuruvchilarni qayd etish bo'yicha monitoring kitobi	3 yil 124 ^g -	
02 - Tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlar			
02-01	Tarbiyalanuvchilarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish, guruhdan-guruhga o'tkazish va tashkilot ro'yxatidan chiqarish to'g'risidagi buyruqlar kitobi	5 yil ¹ 25-mod	Oxirgi yozandan so'ng
02-02	Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasida tuzilgan shartnomalar, bolalalarga DXAdan berilgan yo'llanmalar yoki ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlariga berilgan Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosalar	5 yil ¹ 1087-modda	SHartnoma muddati tugagandan so'ng
02-03	yo'llanmalar yoki ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlariga berilgan Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosalar maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasida tuzilgan shartnomalarni qayd etish kitobi	3 yil 124-modda	
02-04	Korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalish (ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan va ko'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlari uchun)	5 yil	

03 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari

03-01	Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil	
03-02	Xodimlarning ish vaqti hisobini yuritish tabeli	5 yil	
03-03	Xodimlar bilan yo'riqnomalar ("Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom, "Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavzomlarining malaka tavsiflari", "Texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish" yo'riqnomalari hamda "Yong'in xavfsizligi qoidalari") o'tkazish kitobi	3 yil 124-modda	
I/j indeksi	Yig'ma jild nomi	Saqlanish muddati va	Izoh

04 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti

04-01	Davlat talablari, o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar	YAngilar bilan almashtirilganda n	
04-02	Metodistning shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil	
04-03	Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifati hamda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha ish rejalarini	3 yil 171-	
04-04	Bolaning rivojlanish xaritasi yuritilishini nazorat qilish kitobi	3 yil	

05 - Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

05-01	Davlat talablari, o'quv dasturlari, metodik qo'llanma va tavsiyalar	YAngilar bilan almashtirilgan	
05-02	Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil 124-	
05-03	Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, patronaj va ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar)	Zarurat qolmaguncha 172-modda	
05-04	Bolalarning rivojlanish xaritalari	3 yil ¹	Tarbiyala nuvchi muassasalaridan kelgandan so'ng
05-05	Pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi	3 yil	

06 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi

06-01	Davlat talablari, o'quv dasturlari, metodik qo'llanma va tavsiyalar	YAngilar bilan almashtirilgan	
-------	---	-------------------------------	--

06-02	Psixologning shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil	
06-03	Pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi	Zarurat qolmaguncha	
06-04	Psixologik hulosalar va bolaning psixologik rivojlanish xaritasi*	3 yil ¹	*XDFU Tarbiyala nuvchi mu-
06-05	Korreksion ish jurnali	3 yil	
07- Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari			
07-01	Davlat talablari, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va tavsiyalar	Yangilar bilan	
I/j indeksi	Igma jild nomi	Saqlanish muddati va modda	Izoh
		so 'ng	
07-02	Musiqa rahbarining shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil	
07-03	Pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi	3 yil	
07-04	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	Zarurat qolmaguncha	
07-05	Bayram ertaliklari ssenariylari	Zarurat qolmaguncha	
07-06	Korreksion ritmika mashg'ulotlari rejasi (<i>ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarida jismoniy yoki psixik nuqsoni turiga qarab</i>)	1 yil 697- modd	
08 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yuriiqchisi			
08-01	Davlat talablari, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va tavsiyalar	YAngilar bilan almashtirilgan an	
08-02	Jismoniy tarbiya yo'riqchisining shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil	
08-03	Pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi	3 yil	
08-04	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	Zarurat qolmaguncha	
08-05	Sport bayramlari ssenariylari	Zarurat qolmaguncha	
09 - Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi			
09-01	Davlat talablari, o'quv dasturlari, metodik qo'llanma va tavsiyalar	YAngilar bilan almashtirilgan an	

09-02	Defektologning shaxsiy ish rejasi (Ish jumali)	3 yil 124- modd	
09-03	Pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi	3 yil 171- modda	
09-04	Bolalarning mashg'ulotga qatnovini qayd etish kitobi	3 yil	
09-05	Bolaning nutq xaritasi	Zarurat qolmaguncha	
09-06	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	Zarurat qolmaguncha	
09-07	Defektologning bolalarni ro'yxatga olish va ro'yxatdan chiqarish kitobi	3 yil	

10 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti til o'qituvchisi

10-01	Davlat talablari, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va tavsiyalar	Yangilar bilan	
Y/j indeksi	Igma jild nomi	Saqlanish muddati va modda	Izoh
		so'ng 27 ^a - modda	
10-02	Til o'qituvchisining ish rejasi a) yillik	3 yil Zarurat qolmaguncha	
10-03	Til o'qituvchisining mashg'ulot jadvali	1 yil	

11 - Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

11-01	Davlat talablari, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va tavsiyalar	Yangilar bilan almashtirilgan	
11-02	Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, patronaj va ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar)	Zarurat qolmaguncha 172 - modda	
11-03	Pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi	3 yil	
11-04	Bolaning yakka tartibdagi rivojlanish xaritasi	5 yil ETK	
11-05	Bolalar bilan olib borilayotgan ta'lim-tarbiya faoliyati bo'yicha kundalik rejasi (konspekt)	3 yil 697	
11-06	Kunning ikkinchi yarimida bolalar bilan olib borilayotgan yakka tartibda ishlash daftari	1 yil	
11-07	Illik hisobot	3 yil 297	

12 - Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi

12-01	Davlat talablari, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va tavsiyalar	YAngilar bilan almashtirilgandan	
12-02	Iillik va istiqbol ish rejasi	5 yil	
12-03	Pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi	3 yil	
12-04	Frontal mashg'ulotlar kundalik rejasi (konspekt)	3 yil 697	
12-05	Bolalar bilan yakka tartibda ishlash rejasi	Zarurat qolmaguncha	
12-06	Bolaning yakka tartibdagi uy vazifasi daftari	1 yil Zarurat	
12-07	Iillik hisobot	3 yil 297	

KEYS-1

3 YOSHLI UKASINI BO'G'IB O'LDIRGAN O'SMIR QIZGA HUKM O'QILDI

Taxiatosh tumanida joriy yil 22 yanvar kuni 3 yoshli o'gay ukasini bo'ynidan bo'g'ib o'ldirgan 10-sinf o'quvchisi Venera Alimovaga sud hukmi o'qildi. Mudhish voqeaga bolaning o'gay opasi (V.Alimovaga)ga "men bilan o'yinchoq o'ynamading" deb haqorat qilishi sabab bo'lgan, ammo suddagi ko'rsatmalarga ko'ra, buning zamirida jiddiy ruhiy holat va oiladagi nazoratning yo'qolishi sabab bo'lgan.

Voqea qanday yuz bergan?

2020 yil 22 yanvar kuni soat 18:40 lar chamasida, uyida onasi va o'gay otasi yo'q paytida V.Alimovaning oldiga 2016 yilda tug'ilgan o'gay ukasi Sarvar Alimov (ismi-sharifi o'zgartirildi) keladi va birga o'yin o'ynashni so'raydi. O'gay opaning ko'ngil hushi yo'q va bu vaqtlarda u o'zining yashash tarziga nolib, hayotidan bezib yurgan payti edi. Ukasining iltimosini rad etadi. 3 yoshli bola opasining birga o'ynamaganligi uchun uni haqorat qilib, so'kadi. Ko'pdan buyon alamini ichiga yutib yurgan o'smir qiz o'gay ukani avval qo'llari bilan urib, oyog'i bilan tepkilab, krovat ustiga yotqizib, bo'ynini qo'llari bilan, keyin shu erda yotgan oq rangli metall sim bo'lagi bilan bo'g'a boshlaydi. Sim qo'lida turmaganligi sababli bo'ynidan ayollar ro'moli bilan bug'adi. 3 yoshdagi bolakay bu harakatlarga faol qarshilik ko'rsata olmasdi va u hushini yo'qotib chala jon bo'lib qoladi.

O'smir qiz ukasi S.Alimovning o'lganiga ishonch hosil qilish maqsadida uning nafas olish yo'llariga havo keltirmaslik uchun bet yuzini 15 minutgacha yostiq bilan bosib turib, o'ta shafqatsizlik bilan qasddan o'ldiradi.

Voqea bo'yicha avvalida real vaziyat ochiqdanmaydi, lekin ish bo'yicha tayinlangan sud-tibbiy ekspertizasi bolaning o'limiga bo'yin qismining tashqi ta'sir

tufayli bo'g'ilishi oqibatidagi mexanik asfiksiyadan kelib chiqqanligini isbotladi. Keltirilo'an dalillarni o'smir qiz tan oladi.

Qotillikka nima sabab bo'lgan? V.Alimovning ota-onasi 2013 yilda ajrashib ketadi. Ota-onalari uni va ikki ukasini Xo'jaylidagi "Mehribonlik uyi"ga, eng kichkina ukasini esa Taxiatoshdagi "Go'daklar uyi"ga topshiradi. Onasi boshqa erga tegadi va 2016 yilda o'g'il ko'radi. 2019 yilda V.Alimova onasining qo'liga tarbiyalanishga qaytadi, lekin ukalari "Mehribonlik uyi" va "Go'daklar uyi"da qolishadi.

Sudlanuvchining ko'rsatmasi bo'yicha, onasi va o'gay otasi unga doimo yomon munosabatda bo'lib kelishgan. Voqea sodir bo'lgan kuni tushlikni birga tanavvul qilib bo'lgandan keyin qiz onasi bilan gap talashib qoladi. Keyinchalik otasi ham onasi ham ishga ketadi. Uyda 3 yoshar o'gay ukasi S.Alimov bilan qoladi.

Qiz onasining gaplarini hazm qila olmay boshi og'rib krovatda yotib qoladi. Ukasi o'ynagisi kelib, qayta-qayta qoshiga kelib osila beradi. U boshi og'rib, yomon kayfiyatda bo'lganligi bois ukasini qaytarib tashlaydi. SHu payt, ukasi unga yomon gap aytib, haqorat qiladi, so'kadi. Onasi bilan janjallashib, jonidan to'yib, chidami tugab turgan vaqtda uning so'kingani qattiq jahlini chiqaradi va urib, tepib tashlaydi. Ukasi yig'lab krovatga yotib qoladi. SHu vaqtda o'gay opasi uni ikki qo'li bilan bug'ib boshlaydi va miyasida uni o'ldirish niyati paydo bo'ladi hamda bo'ynidan sim bilan bug'adi, nihoyat uni o'ldiradi. O'lganiga aniq ishonch hosil qilgandan keyin o'zi ham tinch uxlab qoladi.

Jabrlanuvchining qonuniy vakili va ikkalasining ham onasi Muyassar Alimovning ko'rsatmasi bo'yicha qizi Venera 7-sinfdan 10-sinf gacha Xo'jaylidagi "Mehribonlik uyi"da tarbiyalangan va shu erda o'qigan. U erda yana ikki o'g'li ham bor. Ulardan vaqti-vaqti bilan xabar olib turgan. Qizi 9-sinfni tugatgandan keyin uyiga, onasining qo'liga kelgan. SHu paytdan oilada eri, 2016 yilda tug'ilgan o'g'li Sarvar, qizi bilan to'rt nafar kishi bo'lib yashay boshlagan. Qizining xulq-atvori "Mehribonlik uyi"dan kelgandan keyin juda o'zgargan, birdan jahli chiqadigan bo'lib qolgan.

2020 yil 14 yanvar kuni qizi qo'shnisi R. ismli bola bilan arqoq ichib o'tirganida ushlab olib, ichki ishlar xodimlarini chaqirib ularga topshirgan. Keyinchalik maktabda tibbiy ko'rikdan o'tganida qizida bronxit kasalligi va kistasi borligi aniqlanadi va 17 yanvar kuni uni sanatoriyaga olib ketishadi. 22 yanvar kuni sog'ligi yaxshi, deb uyiga qaytariladi. Eri ishga ketadi. Qizi shim kiyib, bo'yanib yurganligi uchun unga "qizim, shim kiyma, ko'ylak, ishton kiyib yur, bo'yanma, ko'zlarindagi buyoqlarni o'chir" deb nasihat qilib koyiydi va bolalarining sirtidan ilib ishga ketadi. Ishdan kelgan vaqtda oldidan qizi chiqadi va "Sarvar ikkalamiz uxladi" deydi.

Keyin eriga "Sarvarni uyg'ot" deydi, u ichkariga kirib bolasini uyg'otmoqchi bo'lsa, bolasi tilini tishlab, jonsiz holda yotganini ko'radi.

O'smirga 6 yillik qamoq jazosi tayinlandi.

Voyaga etmagan V.Alimova tomonidan sodir etilgan ushbu voqea yuzasidan jinoyat ishi Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha sudida 2020 yil 28 iyul kuni mazmunan ko'rib chiqildi. Voyaga etmagan V.Alimova O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismining "v,j" bandlarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir qilganlikda aybdor deb topilib, sud tomonidan unga jazo tayinlashda u jinoyatni voyaga etmagan 15 yoshda sodir etganligi, ayol kishi ekanligi, muqaddam sudlanmaganligi, dastlabki va sud tergovlarida aybiga to'liq iqror bo'lib, chin ko'ngildan pushaymon ekanligi, jinoyat sodir etishiga oiladag og'ir sharoit, xususan uning onasi bilan o'rtalarida kelib chiqqan kelishmovchilik onasining va o'zining yashash tarzidan qoniqmasligi, onasi bolalarini davlat tarbiyasiga topshirib qo'yib, o'g'liga ko'proq e'tibor berib, uni yaxshi ko'rishi, o'zi yoshligi sababli hayotni tushunmasdan onasiga achchiqlanib, uning uch yashar o'g'lining umriga qasd qilganligini hisobga olingan va O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 85-moddasi 2-qismining "v" bandiga asosan 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

P.S.: Bir yosh o'smir qilmishiga yarasha jazo oldi, ammo jamiyatimizda shunday oilalarda ota-onasi, yoshi katta qarindosh-urug'lari tomonidan kamolga etib kelayotgan yosh avlodning ongiga xuquq va burch, halollik va poklik

tushunchalarini, shuningdek, odob-axloq qoidalarini chuqur singdirib bormaganliklari, ularning kundalik hayot tarziga, atrof-muhitida duch kelayotgan muammolariga etarli darajada e'tibor qilmasdan, ularning kelajagiga beparvo munosabatda bo'lishi natijasida yuqoridagi kabi jinoyatning sodir etilib, voyaga etmagan qizning sudlandi degan tamg'a olishiga hamda bir norasida go'dak umrining zavol topishiga olib keldi.

E.Qanoatov, O'ZA

Keys yuzasidan savollar: bu oilani asotsial oila toifasiga kiritish mumkinmi?

Nima uchun?

KEYS-2

«ONAM O'Z HAYOTI BILAN YASHAYDI, BIZ BILAN ISHI YO'Q...»

Insonga berilgan ne'matlardan eng totlisi, shubhasiz, farzand. Ammo afsuski, ota-onalar har doim ham bu ne'mat qadrini va uning mas'uliyatini to'la anglab etaverishmaydi. Aynan tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolardan, oiladagi nosog'lom muhitdan bola aziyat chekadi va ular ko'p hollarda bunga xuddi o'zlari sababchidek «xulqi og'ir bolalar» deya ataladi.

Tarbiyasi alohida nazoratga olingan bolalar bilan suhbatlashib ko'rganmisiz? Ular ota-onalari haqida qanday fikr bildirishadi? Ota-ona va farzand munosabatlarida kelishmovchilik qaerdan boshlanadi? Nega ayrim ota-onalar bolasiga e'tiborsiz, ayrim farzandlar esa eng yaqin insonlarini ko'p ranjitadi?

«Onamning gapi tufayli 2 marta o'z jonimga qasd qilishga uringanman»

Nikolay, 17 yoshda (Toshkent shahri):

- Bu erga o'tgan yili dekabr oyida Toshkent shahridan keldim. Bunga ota-onam bilan kelishmovchilik sabab bo'ldi. Bu erga kelganimdan keyin xarakterimda ko'p o'zgarishlar bo'ldi. Tortinmaslikni o'rgandim, boshqa bolalarga qo'shilib, o'z fikrimni bildirib, bilmagan narsamni so'ray boshladim.

Bu jihat menga kelajakdagi kasbim uchun juda kerak. Kelajakda reklama agenti bo'lmoqchiman. Ilgari shu sohada ishlab ko'rganman va buni uddaladim. Bo'yoq sotganman. Uni kichik sexda tayyorlardik. Tayyorlagan bo'yog'imizni

sotishga ham yordamlashganman. Mendan oldin ishlab ketgan qiz haftasiga 500-600 blok bo'yoq sotgan bo'lsa, men 1200 blok sotganman.

Tez orada bu erdan ketaman. Maktabdagi o'qishim hali tugamaydi. Faqat o'quv yilining 2-choragi tugagan bo'ladi. O'zim o'qigan maktabda tahsilni davom ettirmoqchiman. SHu vaqtda biror ish topaman. Keyinchalik o'qish xarajatlari uchun pul ishlamoqchiman.

Oilam juda havas qilarli darajada emas. Ota-onam hech qaerda ishlamaydi. Bir xonali uyda ijarada yashaymiz. Oilada to'ng'ichman. 4 nafar farzandmiz: ikki ukam, bir singlim va men. SHaroitimiz biroz og'irroq. SHu sababli ham shu erga kelib qoldim. Ishlayman, deb maktabni tashlashga to'g'ri kelgan. Onamga ham, o'gay otamga ham bu yoqmasdi.

Keyin meni ichki ishlar ro'yxatiga kiritib qo'yishdi. SHunda ham ishga boraverdim. Ro'yxatga kiritilganimdan keyin ular bilan janjallashib qoldim, biroz vaqt men bilan gaplashmay qo'yishdi. Ovqat ham bermay qo'yishdi. O'zimni boqish uchun ishlardim, kechgacha ishlardim, ertalab maktabga borolmasdim. Ro'yxatda turganim uchun uyga kech kelishim tartibni buzish sifatida qabul qilinardi. SHu tariqa bu erga kelib qolganman.

O'gay otam hech qaerda ishlamagani uchun plastik idish (baklajka) yig'ardi. Bir o'zi bu ishni qilolmasdi. Meni ham o'zi bilan olib ketardi. Bu menga yoqmasdi. CHunki sinfdoshlarim va do'stlarim meni ko'rishardi va bundan uyalardim. Umuman olganda, menga farqi yo'q, lekin ortimdan boshqacha gaplarni gapirishardi.

Uyga kech kelganim uchun meni doim urishardi. Bo'sh vaqtimda sayr qilishga ruxsat bermasdi. Uyga vazifam bo'lmasa ham qilishga majburlardi. Qilishni istamagan ishlarimni qildirardi. «Nima uchun bunday qilyapsiz? Nahotki siz ham yosh bo'lmagansiz?» deb savol berganman. «Men ham yosh bo'lganman, menga ham tanbeh berishgan», deb javob berardi.

Onamning gaplari uchun 2 marta o'zimni o'ldirishga harakat qilganman. U: «Menga kerakmassan», derdi. Bu erga kelganimdan so'ng esa: «Bo'ldi, bu erga kelgan bo'lsang, qamoqxona kabidir, orqaga yo'l yo'q», degan. SHu so'zlarni deb

jonimga qasd qilishga qaror qilganman. Biz ham odammiz. Bolalar ham inson. Biz ham qandaydir yangi hissiyotlarni his qilishni istaymiz. Farzandlarga ishonish kerak».

Keys yuzasidan savollar: Tarbiyasi alohida nazoratga olingan bolalar bilan suhbatlashib ko'rganmisiz? Ular ota-onalari haqida qanday fikr bildirishadi? Ota-ona va farzand munosabatlarida kelishmovchilik qaerdan boshlanadi? Nega ayrim ota-onalar bolasiga e'tiborsiz, ayrim farzandlar esa eng yaqin insonlarini ko'p ranjitadi?

KEYS-3

OILADA ERKAKNING O'RNI QOLMADI

Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lganim sababli so'nggi kunlarda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan "Jinoyatga moyil ayollarning 23 toifasi" tasniflangani haqidagi ma'lumotlarning aylanib yurganiga ko'p guvoh bo'ldim. Haqiqat-ki, anchayin achchiq. Oilaviy ajrimlar, ayollarning xorij davlatlaridagi jinsiy zo'ravonliklar qurboni bo'layotgani, ota-onasiz o'sib tarbiyasi buzilayotgan bolalar...

Qo'yingchi, statistika atalmish ma'lumotlar yig'indisi har yili yangilanib turibdi. Bu yig'indilarga qarab minglab, o'g'il-qizlarning tirik etim bo'lishiga sababchi bo'layotgan oilaviy ajrimlarning oxiri bormikan deb o'ylab qolasan kishi. Masalan, aholi zichligi bo'yicha nafaqat mamlakatda, shu bilan birga MDHda etakchi bo'lgan Andijon viloyatida 786 mingdan ortiq oila tarkibida 3 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi. O'tgan yili viloyatda o'rtacha 30 mingdan ortiq yangi oilalar tashki topgan. Biroq 4 ming 149 oila qonuniy ajrashgan. 2019 yilning birinchi choragida Andijonda 1 ming 56 ta ajrim kuzatilgan va ularning 431 tasi yosh oila. Agar buni respublika bo'yicha hisoblab chiqsak katta miqdor yuzaga keladi yoki O'zbekistonda har beshinchi nikoh ajrim bilan tugayapti.

Ayolning begonasi bo'lmaydi. Haftaning ma'lum bir kunlarida hududlar markazlariga chiqsangiz, Fuqarolik sudlari eshigi oldida mung'ayib turgan,

sudyaning aliment masalasi bo'yicha qarorini kutayotgan xotin-qizlarni ko'rasiz. Ha, bu ayollarning achchiq qismlari haqida shunchalik ma'lumotlar ko'pki, bularni birma-bir sanashga vaqt degan oliy hakam etmasligi aniq. O'tgan yili ijtimoiy tarmoqlarda kattaqo'rg'onlik ayol va uni echintirgan ichki ishlar xodimi haqidagi xabar nafaqat mamlakatni balki, butun dunyoni larzaga soldi. Uni bu kuyga solgan kasga la'natlar o'qidik, jazosini olyapti. Lekin jarayon sodir bo'lgunga qadar ayolning moddiy ahvoli yoki uning ruhiy holati bilan kimdir qiziqdimi? Albatta yo'q. Lekin ayol jamiyatni va o'zini sharmanda qilgan bu voqealardan keyin ham tinch yurmagan, eski odati o'g'irlik bilan yana o'sha ijtimoiy tarmoqni "portlatganida" ham aniq echim berolmadik.

Xorij seriallariga taqlidan o'zini "ettinchi osmon"da, to'qlikka sho'xlik qilib boshlanishiga internetda keyinchalik real hayotda turmush o'rtog'iga hiyona qilayotganlar kam deb o'ylaysizmi? YOki tuqqan bolasini mo'may pul evaziga sotayotgan navoiylik, farg'onalik, qashqadaryolik, surxondaryolik, jizzaxlik va hokazolar. Bular millatni, mamlakatni sharmanda qilgani yo'q deb kim kafola beradi? Oilasi buzilgach, turli nopok yo'llarga kirib ketishi oqibatida o'z tuqqan bolasini o'ldirgan ayol ham yangi tug'ilgan chaqalog'ini hojatxonaga tashlab ketgan ham kimningdir, singlisi boshqa birovning jondek aziz farzandi-ku. Tug'ilishidanoq o'z onasi tomonidan tahqirlanib, xojaxonaga tashlab ketilgan, qalbida nafrat unayotgan qizaloq vaqti kelib qanday ona bo'lishini hech o'ylab ko'rganmisiz?

Biroq shunday joylar borki, erkaklar ishlashi kerak bo'lgan joylarda ayollarni ko'ryapmiz. Bularni kuzata turib o'tgan asr boshlarida yoppasiga paranji tashlab traktorga o'tirib, davlatning qandaydir plani sabab oilasiga vaqt topolmagan, kolxozlardagi hurmat taxtasiga qo'yilgan rasmlaridan g'urur hisssini tuyib, umr bo'yi daladan kelmagan o'sha davr xotin-qizlarini eslaysan kishi.

Menda taklif bor. SHarqda azaldan oilani muqaddas qo'rg'onga mengzashadi. Bunga ko'ra, er oilaning boshlig'i, moddiyat bilan ta'minlash gardanida bo'lgan oila a'zosi. Xotin esa o'z navbatida erining topgan tutganini oila a'zolariga, farzandlariga pishirib-kuydirib beradigan, bolalar tarbiyasiga mas'ul

eng katta ijrochi hisoblanadi. Ayolning oiladagi tarbiyasi erkakka bog'liq. Biroq erkakning o'zi tarbiyaga muhtoj bo'lsa-chi? Har qanday sharoitda ham oilada kuzatiladigan noxush holatga ikki tomon ham birdek javobgar. Zero, oila jamiyatning hamda davlatning asosiy bo'g'ini ekan, bunga davlat tashkiloti darajasida javob berish payti keldi.

Otaning o'rni o'zbek oilasida yo'qolib qoldi. Biz ayol, ayol deb uni e'zozladik. Xotin-qizlarning jamiyatda o'rmini topishga dastak bo'lishga harakat qildik. Ammo erkak bilan shug'ullanmadik. Aksar oilalarda farzandlar otasini mensimaydigan bo'ldi. Pul topar ona farzand tarbiyasi bilan shug'ullanmay qo'ydi, otalar alamini aysh-ishratdan oldi. Yo'q demang, bor shundaylar. Eng asosiysi, ko'cha jamiyatda o'z o'rmini topgan uйда taqdirlanib, turmushidan baxt topmagan ayol qanday qilib o'zini baxtliman deb aytsin? Uyida kaltak zarbidan ko'zi ko'karib chiqqan ayolni qanday qilib, himoya qilishimiz mumkin?

Biroq kun sayin o'zgarayotgan bugungi dunyo manzaralarida bir jinsli nikohlarning vujudga kelayotgani, tug'ilish o'rmiga o'lim ko'payotgani, butun boshli millatlar kurrai zamindan yo'q bo'lib ketish xavfi ostida qolayotgani bor gap.

Akbarjon Abduraimov

Keys yuzasidan savollar: tirikchilik sabab farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishga vaqti etishmayotgan ayol-onaga munosabatingiz qanday? Gender tenglik tamoyili erkakning oiladagi funksiyalariga befarq qarashiga olib kelmayaptimi?

KEYS-4

BOLA UCHUN OILADA OTANING O'RNI QANDAY?

Ilmiy izlanishlar natijasi, oilasida otasi bor bo'lgan bolalar hayotga yaxshiroq moslashishini tasdiqladi. "Biroq, ularning hayotlarida faol ishtirok etadigan ota bilan yaqin va ishonchli munosabatlarni rivojlantirishlariga shunday natija kutish mumkin", deydi Pensilvaniya universiteti sotsiologi Pol Amato.

Darhaqiqat, otasi bo'lgan bolalar kamdan kam hollarda maktabni tashlaydilar yoki qonunni buzadilar, nosog'lom munosabatlarga kirishish xavfi ham, xavfli jinsiy aloqada bo'lish ehtimoli ham kamroq bo'lib, ular ko'pincha yaxshi ish topadilar. Uch yoshida bunday bolalarda IQ darajasi yuqori bo'ladi, katta bo'lganlarida ham kamroq psixologik muammolarga duch keladilar va ortiqcha vazn orttirishga moyilligi kamroq bo'ladilar.

Olimlarning ta'kidlashicha, bolalarni tarbiyalashda faol ishtirok etgan otalarning ulushi bola tug'ilishida ishtirok etgan otalarnikidan ancha yuqori. SHuning uchun ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, agar tug'ilish muvaffaqiyatli bo'lgan bo'lsa, ona va bola imkon qadar tezroq otasi g'amxo'rlik va mehr ko'rsata oladigan uyiga qaytishi kerak. Bola tarbiyasiga faol ravishda qo'shilgan ota bolaning yonida jismonan ishtirok etishi - bu yarim muvaffaqiyat.

Agar siz yonida bo'lsangiz, unda siz shunchaki bolaning yoniga o'tirishingiz uning IQ darajasini sehrli tarzda osmonga ko'taradi va u hech qachon umri davomida xatarli yo'lga kirmaydi, deb umid qilmang. Marsi Karlsonning ta'kidlashicha: «Rostini aytganda, vaqt miqdori juda muhim emas, ammo uning sifati katta rol o'ynaydi. Siz tarqatadigan tuyg'u ham muhimdir. Agar siz bolalar bilan shunchaki "xo'ja ko'rsin" ga vaqt o'tkazayotgan bo'lsangiz, bu uning uchun hech qanday foyda bermaydi".

Erkaklar ko'pincha bolalari kichik bo'lishiga qaramay, otalarini onalaridan farqli o'laroq, atrofdagilardan juda yaxshi ajratib olmasligini payqashadi. Ular xizmat safariga ketgan otani unchalik sog'inmaydilar va qaytib kelganida xursandliklaridan qiyqirib yubormaydilar. Ko'pchilik odamlar: "agar bola hali hech narsani tushunmasa, otasi nega bola rivojlanishining ushbu bosqichida ishtirok etishi kerak?" - deya o'zlariga savol berishadi.

Kennet Najetning otaning chaqaloq hayotidagi madaniy va ijtimoiy rolini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, otalari birinchi oyda, 1 yoshida ularning hayotlarida faol ishtirok etishi natijasida bolalar yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan o'zlarining tengdoshlaridan

farq qiladi. Bir qator tadqiqotlar bola hayotining dastlabki bosqichlarida otaning mavjudligi muhimligini tasdiqlaydi.

Rostini aytсам, shuni aytishim kerakki, otaning chaqaloq bilan birga o'ynab o'tkazgan vaqti kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish darajasi bilan bevosita bog'liqligini aniqlamagan tadqiqot mavjud. Bola ulg'aygan sayin, otaning ijobiy ta'siri aniqlashib boradi. Masalan, tadqiqotlardan biri shundan dalolat beradiki, otalar onalarga qaraganda suzishni yaxshiroq o'rgatishadi: ular bolalarga shunchaki g'amxo'rlik qilishmaydi.

Ko'pgina tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, otaning yo'qligi (yoki uning bola hayotidagi sust ishtiroki), asosan, o'g'il bolalarning ijtimoiy ko'nikmalariga ta'sir qiladi. Otaning o'limi, 9000 ta katta yoshli insonlar orasida o'tkazilgan so'rovdan so'ng ma'lum bo'lishicha, o'g'il bolalarga ko'proq ta'sir qiladi va bunday og'ir judolik bolalarda salomatligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Ammo, o'smirlikdan oldin, otalar o'g'il va qiz bolalar uchun bir xil darajada muhimdir.

O'smirlik davrida otalar qizining balog'at yoshidagi xatti-harakatlarini belgilovchi omil bo'lishadi: qiz va otaning o'zaro munosabatlari qanchalik yaxshi bo'lsa, shaxsiy hayotda uning muvaffaqiyati shunchalik katta bo'ladi. Sovuqqon ota yoki otasining yo'qligi qizning psixologiyasini shunday o'zgartirishi mumkinki, u "erkaklardan chuqur, barqaror munosabatlarni kutmaslik kerak", degan fikr bilan o'sadi. Qiz uchun yaxshi ota bu uni tinglaydigan, uning hayoti bilan qiziqadigan, u uchun muhim voqealarda qatnashadigan, ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydigan va erta boshlangan yoki xavfli munosabatlardan himoya qiladigan kishidir.

Keys yuzasidan savollar: sizningcha, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi bilan otalar qay darajada ishtirok etadilar?

«Ona mehrini his qilmaganman»

Baxtiyor, 17 yoshda (Toshkent shahri):

- Asli toshkentlikman. O'sha erdagi mehribonlik uyidan kelganman. Bir yildan beri. shu erda o'qib kelyapman. Musiqa, payvandlash, oshpazlikka qiziqaman. Bundan tashqari, sambo sport turi bilan shug'ullanaman. Maktabni tamomlagach, pedagogika universitetiga hujjatlarimni topshirib ko'raman. Kirolmasam, ish topib, oshpazlik kursida o'qiyman. Sekin-sekin oyoqqa turib olib, singlim va ukamni ham ortimdan ergashtirib ketmoqchiman. SHu orqali oilamga yordam berishni niyat qilganman.

Asosiy soham oshpaz bo'lishini xohlayman. 40 kilogacha osh tayyorlay olaman, Mehribonlik uyida oshpazlarimiz tayyorlaganida har doim oldilarida turib, qarashganman. Bu qiziqishga onam sababchi bo'lgan. Onam 4-darajali oshpaz.

Oilada 5 kishimiz: onam, ukam, singlim, buvim va men. Buvim hozir nafaqada. Bizdan alohida bir xonali uyda yashaydi. Men shu maktabdaman. Ukam va singlim mehribonlik uyida.

Onam 36 yoshda. U o'z hayoti bilan yashaydi. Biz bilan ishi yo'q. Dadam : yoshligimda onam bilan ajrashgan. Onam, umuman olganda, yaxshi inson. Lekir ona mehrini ko'rmaganman. Kichkinaligimda faqat buvim qarab yurardi. Onam bizga e'tibor ham bermasdi.

Onam o'zini bunday tutishining sababi – buvim noto'g'ri tarbiya bergani. Onamning o'zi ham aybdor. Ona farzandi bilan yaxshi munosabatda bo'lishi kerak. O'zi umuman olganda, bolalarning bu erga kelib qolgani ularning aybi emas. Ota-onasi aybdor: to'g'ri tarbiya bermagan, bolasiga qattiq turmagan. Bola ham qisman aybdor: o'z vaqtida yomon ishlarni to'xtatmagan..

Keys yuzasidan savollar: Bola o'z hayotidan qanday xulosa chiqarmoqda? Uning kelajagi qanday bo'ladi deb o'ylaysiz?

KEYS - 6

KUMUSH QOSHIQ. ZAMONAVIY OTA-ONALAR QANDAY XATOLARGA YO‘L QO‘YISHMOQDA?

Rossiyada yuz yillik tanaffusdan keyin badavlat oila farzandlari ulg‘aydi. Ota-onalar hayratda. Ular farzandlariga berayotgan ulkan imkoniyatlar nafaqat kutilgan natijalar keltirmayapti, balki aks ta‘sir ko‘rsatayapti. Ota-onalar ularning farzandi bilan kuzatilayotgan vaziyat o‘zgacha deb hisoblashmoqda. Biroq aslida ular yuzma-yuz kelayotgan muammolar yangi emas – G‘arbda bu mavzu yaxshi o‘rganilgan va u haqida ko‘p gapirilgan. Ilmiy adabiyotlardan matbuotga ko‘chgan – “kumush qoshiq sindromi” atamasi ham bor.

“Kumush qoshiq sindromi”ga ega bolalar passiv, hech nimani istamaydi, ularda moddiy xohishlardan tashqari qat‘iy istaklar mavjud emas. Bundan tashqari, bunday bolalar jiddiy maqsadlarni belgilash va ularga erishishga qodir emas. Hayotga umuman moslashmagan, o‘z huzurlari – alkogol, narkotik moddalar, avtomobil poygalari ortidan chopish bilan ovora. Ular “oilaviy ish” bilan qiziqishmaydi, minnatdorlik hissidan begona, sovuq, befarq, asotsial axloq va depressiyaga moyil. “Tantiq” bolani tarbiyalamaslik uchun uni buzayotgan jihatlarni o‘rganish lozim. Bu oqibatlariga emas, sabablarga ta‘sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Keys yuzasidan savollar: “Kumush qoshiq sindromi”ga ega bolalar toifasining kelib chiqish sabablarini tahlil qiling.

Biz nimani noto‘g‘ri qilyapmiz? Hech narsani cheklamayapmiz. Bolaga so‘ragan narsasining barini darhol berishga tayyormiz. Unga hech nimani rad etmaymiz – u “yo‘q, hozir olib berolmayman, keyingi safar” degan so‘zlarni bilmaydi. Biz nafaqat uning barcha istaklarini qondiramiz, balki ularni aytmasidan oldin muhayyo qilishga harakat qilamiz: bola ertakdagi “ko‘za ichidagi jin” haqida orzu qilishi ham shart emas – u istagini aytib ulgurmasidan bari amalga oshadi. Natija-chi? Istagan narsasini olishga odatlangan bolalar xafa bo‘lish nima ekanini bilmaydi, kutish va sabr, orzu, maqsadlar belgilash, rejalashtirish, istagan narsasiga erishish uchun harakat qilish, erishganlarni qadrlash kabi hislar unga begona. Oxir-

oqibat to'yish hissi paydo bo'ladi – bolalar hech narsani istamay qoladi. Zerikish, befarqlik, depressiya ana shundan kelib chiqyapti.

Normadan ortig'ini yuklayapmiz. Bugun bola ko'proq mablag' kiritish va tezroq natija olish kerak bo'lgan investitsion loyiha sifatida qabul qilinmoqda. "Investitsiyalar" deyarli yo'rgakdan boshlanadi: rivojlantirish mashg'ulotlari, to'garaklar, sport va ijodiy mashqlar. Undan keyin maktab qo'shiladi, biroq qo'shimcha mashg'ulotlar soni kamaymaydi, aksincha, ko'payib boradi. Farzandimizni barcha yangi va obro'li, bolaligimizda orzu qilgan narsalarga o'rgatgimiz keladi. Natijada bola qat'iy jadval bo'yicha yashaydi. Uning har bir daqiqasi hisobli. Uning uchun biz reja tuzamiz. Aks holda, ulgurmaydi. U esa bo'ysunishga majbur. U tashqi boshqaruvga ko'nikadi. O'z-o'zini shakllantirishga qodir emas. Etakchilikni esa aytmasa ham bo'ladi. U doimiy ravishda yordam va ustozga muhtoj. Unda orzulari, ijodkorligini rivojlantirish uchun dastlab vaqt, keyin esa xohish bo'lmaydi. Doimiy "kerak" va "shart"lar har qanday ijodiy ilhomni so'ndiradi. O'smirlik davriga kelib, bola o'zining "chegarasi"ga etib keladi. Hech narsa bilan shug'ullanishni istamaydi va barchasini tashlab, rad etadi.

"Aybimizni yuvamiz". Doimiy ravishda bandmiz, farzandlarimizga vaqtimiz yo'q. Ular bilan vositalar yordamida muloqot qilishga harakat qilamiz: his-tuyg'ularimiz, e'tiborimiz o'rniga sovg'alar beramiz. Mohiyatan olib qaraganda, buyumlar, pul, sayohat, orzularni ro'yobga chiqarish orqali aybimizni yuvishga harakat qilamiz. Buni qanchalik aniq anglaganimiz sayin yo'qligimizni moddiy narsalar bilan to'ldirishga intilamiz. Bola tobora ulg'aya boradi, u bilan birga badal hajmi ham ortib boradi – o'yinchoqlardan tortib, qimmatbaho taqinchoqlar, avtomobillargacha. Bolalar muhabbatning moddiy ko'rinishi haqiqiy munosabatlar o'rmini bosishiga ko'nikadi. SHunga qaramay, hamma narsaga ega bola o'zini yolg'iz va tashlab ketilgandek his qiladi. Unga his-tuyg'ular, ota-onaning hayotidagi ishtiroki, iliqligi etishmaydi. U his-tuyg'ularini namoyon etish, sevish va do'st bo'lishni bilmaydi – unga buni o'rgatadiganlar bo'lmagan. Natijada atrofdagilar, jumladan, ota-onasi bilan munosabatlarda foydani ko'zlab ish tutish

etakchi omilga aylanadi. Bunday bolalar sovuq, befarq, xudbin bo'lib ulg'ayadi.

Uch oltin qoida. Nima qilish kerak? Eng avvalo, qorong'i xonada chiroqni yoqib, yon-atrofga yaxshilab qarash kerak. Bola bilan nimalar sodir bo'layotganini tushunish, muammoning ahamiyatini anglash hamda uni echish usullarini izlash lozim. Har qanday murakkabliklarni engishda yordam beradigan "tarbiyalashning uch oltin qoidasi" quyidagicha:

CHegara. Bolaga cheklovlar - "qizil chiziqlar" o'zini qanday tutishni bilish, uning har bir harakati muayyan oqibatlar keltirishini anglash uchun kerak. Taqiqlarni aniq bildirish, bolani tahqirlamaydigan, uni qarshilik qilishga undamaydigan shaklda tushuntirish kerak. Agar biz kattalar chegaralarni belgilamasak, bolalar ularni ushlab ko'rishga harakat qilishadi. Bu esa ko'p hollarda achinarli oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Erkinlik. Bolaga barcha narsalar va odamlar, jumladan, ota-onasidan ham dam olish uchun vaqt berish kerak. Bu vaqtda u o'zi istagan mashg'uloti bilan shug'ullanadi. O'ynab, zerikib, orzu qilib, tajriba o'tkazib, u o'zini izlaydi, qarorlar qabul qilish, vaqti va hayotini boshqarishni o'rganadi. Unda qiziqishlarni izlab topish, bemalol fikrlash, tajribaga ega bo'lish, do'stlar orttirish va dunyoga o'z ko'zlari bilan boqish imkoni paydo bo'ladi.

Iliqlik. Bolani muhabbat bilan qurshab olish kerak va uning evaziga hech narsa talab qilmaslik lozim. Uning uchun ota-onasi uni xarakteri, axloqi, baholari, faxriy yorliqlari, sportda erishgan yutuqlari uchun emas, aynan sizning farzandingiz ekani uchun, qanday bor bo'lsa, shundayligicha yaxshi ko'rishingizni bilishi muhim. U bilan yaxshi narsalar sodir bo'lganida birgalikda quvonishimiz, yomon bo'lganida birgalikda xafa bo'lishimiz lozim. U bizning unga qadrdon ekanimiz, doim yonida bo'lishimizni his qilishi lozim.

Bir qarashda bu qoidalar bir-biriga zid bo'lib ko'rinadi. Ko'pincha u chegaradan bunisiga "borib-kelamiz". Ba'zida bolalarga to'liq erkinlik beramiz, ayrim hollarda ularni to'rt devor ichiga "qamaymiz". YO barcha narsalarni tanqid qilamiz yoki hammasini birvarakayiga maqtaymiz. Biroq bu shartlarning bari faqat

yagona birlashmadagina ishlaydi. **Chegara, erkinlik va iliqlik uchligi** – bolani zamonaviy oilada tarbiyalashda me'yor hissini yo'qotmaslikka yordam beradigan universal retsept.

Keyslardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar:

- 1. Keyslar asosida disfunktsional oilalar turini aniqlang.**
- 2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar shaxsiga ota-onaning asotsial xulq-atvor qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiling.**
- 3. Asotsial oilani aniqlash va ular bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat yuritish dasturini tuzing.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent "O'zbekiston" 2007 y. -39 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son. <https://lex.uz/docs/4646908>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312- son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2017 y. PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 391-sonli Qarori. **13.05.2019 y.**
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi «Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3276-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017 y. PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2018 y. PQ-3651-son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.07.2018 y. 595-son "Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash haqida"gi Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2018 y. 681-son "Davlat-xususiy sherikchilik asosida zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining. 30.09.2018 y. PQ-3955-son "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
14. Maktabgacha ta'lim vazirining 21.11.2018 y. 2-mh-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi haqidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Buyrug'i (AV tomonidan 03.12.2018 y. 3094-son bilan ro'yxatga olingan).
15. Maktabgacha ta'lim vazirining 13.12.2018 y. 3-mh-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Buyrug'i.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.07.2019 y. 626-sor "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020 y. 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida" 255-son buyrug'i.
19. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 12 iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizma ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida" 128-son buyrug'i.
20. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2021 yil 30 dekabrda 255-sonli «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i.
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.04.2019 y. 352-son "Maktabgacha hamda umumta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
22. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., Kayumova N., A'zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.: "Tafakkur". 2019 y -684 b.
23. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. To'ldirilgan qayta nashr. -T.: TDPU, 2017 y.
24. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv-metodik qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiya", 2008 y. -160 b.

25. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. –T.: “Ma’naviyat”, 2013 y. – 160 b.
26. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Ta'lim menejmenti. A. Avloniy nomidagi Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish Markaziy instituti. T.: 2006 y.
27. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. T.: «VORIS-NASHRIYOT». 2006 y.
28. Po'latov Sh. Ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: «Tafakkur», 2012 y.
29. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. T.: «YAngi asr avlodi», 2007 y.
30. Murakaev I., Saifnazarov I. Menejment asoslari. T.: «O'zbekiston», 2001 y.
31. Qo'chqorov A., Toshmatov X., Abduvoxidov G'. Menejer imkoniyatlari. T.: «Istiqlol», 2000 y.
32. Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik. Metodik qo'llanma. A.V.Shin, Sh.Sh.Mirziyoeva, I.V.Grosheva va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Muvofiqlashtirish kengashining 2020 yil 17 iyuldagi 1-bayonnomasi. Toshkent-2020.
33. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo'llanma. A.V.Shin, Sh.Sh.Mirziyoeva, I.V.Grosheva va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi Muvofiqlashtirish kengashining 2020 yil 17 iyuldagi 1-bayonnomasi. Toshkent-2020.
34. Upravlenie doshkolnym obrazovaniem : uchebnik i praktikum dlya vuzov / N. A. Vinogradova [i dr.] ; pod redaksiyey N. A. Vinogradovoy, N. V. Miklyayevoy. – 2-e izd., ispr. i dop. – Moskva : Izdatelstvo YUrayt, 2020. – 530 s.

Internet saytlari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. [tdpu-INTRANET.Ped.](http://tdpu-INTRANET.Ped)

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-MAVZU: IJTIMOYIY MAKTABGACHA TA'LIMNI TASHKIL ETISH VAZIFALARI.....	5
2-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI.....	27
3-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA MOLIVAVIY TA'MINLASH.....	46
4-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA ULARNI TASHKIL ETISH.....	61
5-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARI.....	74
6-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI USLUBCHISINING METODIK ISHLARGA RAHBARLIGI.....	85
7-MAVZU: PEDAGOGI KENGASH SHAKLLARI.....	96
8-MAVZU: NAZORAT QILISHNING USUL VA USLUBLARI.....	112
9-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BO'YICHA METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISH VAZIFALARI.....	129
10-MAVZU: «METODIST MAKTABI» XONASINING ISH MAZMUNI.....	137
GLOSSARIU.....	150
ILOVALAR.....	164
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	190

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	3
ТЕМА 1: ЗАДАЧИ ОРГАНИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНОГО ДОШКОЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ.....	5
ТЕМА 2: ПРИНЦИПЫ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ.....	27
ТЕМА 3: РАЗВИТИЕ И ФИНАНСОВОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ДОШКОЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ.....	46
ТЕМА 4: ДОШКОЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УЧРЕЖДЕНИЯ И ИХ ОРГАНИЗАЦИЯ.....	61
ТЕМА 5: РУКОВОДИТЕЛЬ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ.....	74
ТЕМА 6: РУКОВОДСТВО МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТОЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ.....	85
ТЕМА 7: ФОРМЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО СОВЕТА.....	96
ТЕМА 8: МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ КОНТРОЛЯ.....	112
ТЕМА 9: ЗАДАЧИ ОРГАНИЗАЦИИ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ.....	129
ТЕМА 10: СОДЕРЖАНИЕ РАБОТЫ КАБИНЕТА "ШКОЛА МЕТОДИСТА".....	137
ГЛОССАРИЙ.....	152
ПРИЛОЖЕНИЯ.....	164
ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА.....	190

CONTENT

INTRODUCTION.....	3
TOPIC 1: TASKS OF ORGANIZING A SOCIAL PRESCHOOL INSTITUTION.....	5
TOPIC 2: PRINCIPLES AND MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM IN THE YEARS OF INDEPENDENCE.....	27
TOPIC 3: DEVELOPMENT AND FINANCIAL SUPPORT OF PRESCHOOL INSTITUTIONS.....	46
TOPIC 4: PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THEIR ORGANIZATION.....	61
TOPIC 5: HEAD OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION.....	74
TOPIC 6: GUIDANCE ON THE METHODOLOGICAL WORK OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION.....	85
TOPIC 7: FORMS OF THE PEDAGOGICAL COUNCIL.....	96
TOPIC 8: METHODS AND TECHNIQUES OF CONTROL.....	112
TOPIC 9: THE TASKS OF ORGANIZING THE METHODOLOGICAL WORK OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS.....	129
TOPIC 10: THE CONTENT OF THE WORK OF THE CABINET "METHODIST SCHOOL".....	137
GLOSSARY.....	150
APPENDIX.....	164
TEACHING CHILDREN TO LITERACY.....	190

O'quv qo'llanma

Z.T.Qoraboyeva

MAKTABGACHA TA'LIM MENEJMENTI

Muharrir: Ilhomjon Xayitov

Muharrir: Nodira Jumaboyeva

Bichimi: 60x84 1/16. Hajmi: 11,4 bosma taboq

Ofset usulida bosildi. Buyurtma – 50

Adadi: 50 nusxa. Bahosi kelishilgan narhda.

Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent shahar,
Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30 uy

Tasdiqnoma raqami 3918

